

90 *yil*
TDIU

M.T. YAXSHIYEVA

MONETAR NAZARIYA VA SIYOSAT



TOSHKENT

2ya 91

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

M.T.YAXSHIYEVA

**MONETAR NAZARIYA
VA SIYOSAT**

(Kredit-modul bo‘yicha)

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan**

4001

TOSHKENT – 2021

UO'K: 336.74
KBK 65.9(50')

M.T.Yaxshieva. Monetar nazariya va siyosat: O'quv qo'llanma. –T.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2021, 140 bet.

ISBN 978–9943–7393-1-4

Ushbu o'quv qo'llanma kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti hamda shu fan bo'yicha namunaviy va ishchi o'quv dasturlari asosida magistrantlar uchun tayyorlangan. Unda monetar siyosatning nazariy asoslari, monetar siyosatni amalga oshirish usullari va vositalari, iqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartibga solish mexanizmlari, O'zbekiston respublikasi markaziy bankingning valyuta siyosati o'z aksini topgan.

Ushbu o'quv qo'llanma yangi pedagogik va informatsion texnologiyalarni hisobga olgan holda tayyorlangan. Qo'llanma birinchi navbatda magistrantlar uchun mo'ljallangan bo'lib, undan mustaqil izlanuvchilar, talabalar, malaka oshirish instituti tinglovchilari va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish muammolari bilan qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Подготовленное учебное пособие составлено на основе требований Национальной программы по подготовке кадров, образовательного Госстандарта Республики Узбекистан, типовой и рабочей программы по данному магистерскому предмету. Он отражает теоретические основы денежно-кредитной политики, методы и инструменты реализации денежно-кредитной политики, денежно-кредитная политика центрального банка Республики Узбекистан, механизмы регулирования экономики посредством денежных инструментов.

Вместе с этим при подготовке данного учебного пособия использованы новые педагогические и информационные технологии. Пособие рассчитано в первую очередь для магистрантов и может использоваться независимыми исследователями, студентами, стажерами и теми, кто заинтересован в повышении монетарной политики национальной экономики.

The prepared textbook is compiled on the basis of the requirements of the National Program for Personnel Training, the educational State Standard of the Republic of Uzbekistan, the standard and work program for this master's subject.

It reflects the theoretical foundations of monetary policy, methods and tools for implementing monetary policy, the monetary policy of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, the mechanisms of regulation of the economy through monetary instruments.

Along with this, in the preparation of this textbook, new pedagogical and information technologies were used. The manual is designed primarily for undergraduates and can be used by independent researchers, students, interns and those who are interested in improving the monetary policy of the national economy.

UO'K: 336.74
KBK 65.9(50')

Mas'ul muharrir B.D.Xajiyev – i.f.n., dos.
Taqrizchilar: X.S.Asadullayev – i.f.n., prof.
B.E.Mamarahimov – i.f.n., dos.

ISBN 978–9943–7393-1-4

© «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи» 2021.

KIRISH

O'zbekistonda hozirgi jadal iqtisodiy islohotlar davrida milliy xo'jalikning samarali faoliyat yuritishi uchun monetar siyosat orqali pul muomalasini tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Monetar siyosat davlat yo'li bilan moliya sohasini tartibga solish usullaridan biri bo'lib, u jamiyatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilib kelmoqda. Makroiqtisodiy barqarorlik umumiy narx-navo o'sishi sur'atlarining pastligi, ijtimoiy xo'jalikda ishlab chiqarishning barqaror o'sishi, mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan to'liq bandligi, to'lov balansining qoniqarli ahvoldaligi va milliy valyutaning tashqi bozorlardagi barqarorligi kabi ko'rsatkichlarda aks etadi.

Monetar siyosat - to'liq bandlik sharoitida yalpi milliy mahsulotni ishlab chiqarishga inflyatsiyaning ta'sirini kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadida muomaladagi pul miqdorini o'zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Pul kredit siyosati davlat tomonidan belgilanadi va uni markaziy bank amalga oshiradi.

Boshqa mamlakatlar singari O'zbekistonda ham milliy pul birligi barqarorligini ta'minlash va uni samarali boshqarish, monetar siyosat vositalarining maqsadli darajalariga erishish, bank tizimining likvidligini hamda moliyaviy bozorlar faoliyatining samaradorligini oshirish markaziy bank zimmasiga yuklatilgan. Uning yordamida har qanday davlat mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vazifasini hayotga tadbiiq etadi.

“2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasining “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” deb nomlangan uchinchi yo'nalishda ko'rsatilgan chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta'minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish, nazarda tutilmoqda”¹.

¹ 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish ko'p jihatdan iqtisodiyotda amal qiluvchi pul-kredit mexanizmlarining takomillashuv darajasiga uzviy bog'liqdir. Bu esa iqtisodiyotda vujudga keladigan ayrim nomutanosibliklarni o'z vaqtida va muvaffaqiyatli bartaraf etishda hamda monetar siyosat instrumentlarining (qayta moliyalashtirish stavkasi va majburiy zahiralarni normasi) ta'sirchanligini oshirishda to'siq bo'la oladigan mavjud muammolarning aniqlanishi va hal qilinishini taqozo etadi. Hozirgi jadal iqtisodiy islohotlar davrida milliy xo'jalikning samarali faoliyat yuritishi uchun valyuta va pul-kredit siyosati orqali makroiqtisodiy barkarorlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Shu sababli "Monetar siyosat nazariyasi" fani bo'yicha ushbu o'quv qo'llanma bozor iqtisodiyoti va jahon moliya munosabatlarining negizini tashkil etuvchi monetar siyosatning nazariy asoslari, monetar siyosatni amalga oshirish usullari va vositalari, O'zbekiston Respublikasi markaziy bankining valyuta siyosati, iqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartibga solish mexanizmlariga bag'ishlangan dolzarb o'quv qo'llanma hisoblanadi.

Ushbu o'quv qo'llanmada pul-kredit munosabatlari sohasidagi jarayonlarning faqatgina yuzaki, ko'rinib turgan tomonlarigagina emas, balki ularning ichki mohiyati, ziddiyatlari va bog'lanishlariga, bu jarayonlarning sabab va oqibatlariga alohida e'tibor berildi. Ushbu o'quv qo'llanmada O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida pul munosabatlari sohasidagi muammolar, ayniqsa, Prezidentimiz asarlarida, ma'ruza va nutqlarida, qabul qilingan qonunlar va qarorlarda bayon etilgan tamoyillar, xususiyatlar ham qamrab olindi hamda nazariyani amaliyotga yaqinlashtirish maqsadida pul-kredit munosabatlari sohasining ko'pgina umumiy qonun-qoidalari bevosita O'zbekiston hayoti misolida yoritildi.

Ushbu o'quv qo'llanma yangi standart talablari bo'yicha tuzilgan dastur asosida yozildi. O'quv qo'llanmada dasturdagi asosiy va zaruriy mavzular qamrab olingan. Lekin hajm cheklangan bo'lganligi uchun ko'pgina materiallar iloji boricha qisqartirib berildi. Shuning uchun o'quv qo'llanmada kamchilik va munozarali jihatlar ham bo'lishi mumkin.

"Monetar nazariya va siyosat" bo'yicha mazkur o'quv qo'llanma yangi pedagogik va informatsion texnologiyalarni hisobga olgan holda

tayyorlangan. qo'llanma birinchi navbatda magistrantlar uchun mo'ljallangan bo'lib, undan mustaqil izlanuvchilar, talabalar, malaka oshirish instituti tinglovchilari va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish muammolari bilan qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Muallif o'quv qo'llanmaning tuzilishi, mazmuni, muammolarning bayon qilinish tartibi va uslubi bo'yicha bildirilgan har qanday taklif-mulohazalarni minnatdorchilik bilan qabul qiladilar va keyingi o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda hisobga oladi.

1- MAVZU. PUL ASOSLARI

1.1. Pulning vujudga kelishi

Pul kelib chiqishining evolyutsion konsepsiyasiga ko'ra, ular ijtimoiy mehnat taqsimoti, ayirboshlash, tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Qiymat shakllari va ayirboshlash rivojlanishining tarixiy jarayonini tadqiq qilish orqali tovarlar umumiy olami ichidan pul rolini bajaruvchi alohida tovarning ajralib chiqishini tushunish mumkin.

Bir tovarning qiymati uni boshqa bir tovarga ayirboshlash orqali aniqlanadi (T-T). Bir qarashda ayirboshlash bitimida har ikkala tovar ham bir xil rol o'ynaydigandek ko'rinadi. Aslida esa ularning roli turlichadir. Bir tovar o'z qiymatini boshqa tovarga nisbatan ifodalaydi. Ikkinchi tovar esa birinchi tovarning qiymatini o'zida ifodalab, ekvivalent rolini bajaradi, ya'ni qiymatning ekvivalent shaklini tashkil etadi. Xuddi mana shu yerda pulning dastlabki kurtagi paydo bo'ladi.

Pulning paydo bo'lishi va rivojlanishida qiymat shakllarining rivojlanish bosqichlari muhim o'rin tutadi. Umuman olganda qiymatning oddiy yoki tasodifiy, kengaytirilgan, umumiy va pul shakllari mavjud.

Ayirboshlash jarayonining tarixan uzoq davom etgan davri mobaynida ekvivalent rolini o'ynovchi ko'plab tovarlar ichidan ba'zi birlari o'zining barcha tomonidan tan olinishi tufayli ajralib chiqa boshladi. Masalan, chorva, jun, tamaki, tuz ana shunday ekvivalent vazifasini bajargan. Chunki ekvivalent rolini o'ynovchi tovarlarning barchasi ham ayirboshlash jarayonida muomala vositasi vazifasini bir xilda muvaffaqiyatli bajara olmas edi. Natijada, barcha tovarlarning qiymatini bir xil tovar qiymati orqali taqqoslash mumkin bo'lgan qiymatning umumiy shakli vujudga keldi.

Universal hisob-kitob ekvivalentiga bo'lgan ehtiyoj eramizdan avvalgi VIII asrdayoq kafolatlangan vaznli va tarkibli standartlash-tirilgan yombilar paydo bo'lishiga olib keldi. Birmuncha keyingi davrlardagi yombilarning ayrim turlari ularni bo'laklarga bo'lishda qulay bo'lishi uchun belgili kertiklar bilan yasalgan. Biroq bunday takomillashtirishlar baribir savdogarlarni hisob-kitoblarni amalga

oshirishda yombilar va ularning bo‘laklarini tortib ko‘rish zaruratidan xalos etmagan.

Tovar ishlab chiqarishning o‘sishi va tovar ayirboshlashning kengayishi, bunday jarayonlarga ko‘p sonli hunarmandlar va boshqa qatnashchilarning jalb etilishi metall pullarning keyingi standartlashtirilishiga va ular miqdorlarining chakana savdo ehtiyojlariga moslash-tirilishiga olib keldi.

Taxminan eramizdan oldingi XII asrda Xitoyda, VII asrda esa O‘rta yer dengizi davlatlari – Lidiya va Eginada vazni, miqdori va qotishmalarining tarkibiga ko‘ra bir xildagi metall pullar paydo bo‘ldi. Ular asta-sekin ishlab chiqarish va foydalanish uchun qulay bo‘lgan doira shakliga ega bo‘ldi. Ular an‘anaviy yombilardan birmuncha kichik o‘lchamlari bilan, shuningdek, ularning to‘lovga qobiliyatligi va asosiy parametrlari (miqdori, qotishmalar tarkibi, vazni) u yoki bu darajada davlat tomonidan kafolatlanishi va muhofaza qilinishi bilan ajralib turardi. Shunday qilib, shu davrdan e‘tiboran metall pullar hukmronligining uzoq davri boshlandi.

Bunday pullarda nominallar – metall pulning muayyan vaznli standartini ifodalovchi va pullarning nomlari sifatida muhim o‘rin olgan tushunchalarning paydo bo‘lishi, ushbu pullar evolyusiyasining eng muhim natijalaridan biri edi. Asrlar qa‘ridan bizgacha yetib kelgan tangalarning nomlari – draxmalar, franklar, markalar, talerlar va boshqa ko‘plab tangalar nomlari – metall pullarning muayyan vaznli mohiyatlarini anglatardi.

Pullarning yombilarda bo‘lmagan yangi sifatlari hisob-kitoblarni amalga oshirishda ularni shunchaki oddiy qayta hisoblashga va vaqti kelib ularni tortib ko‘rishdan voz kechishga imkoniyat yaratdi. Belgilar va yozuvlar shunday sifat belgilari bo‘lib, ular oldiniga pul birliklari-ning bir tomoniga, keyinchalik – ikkala tomoniga ham bosilgan. Eramizdan oldingi V asrdan boshlab esa ularning majburiy atributlari tusini olgan.

Muomalaga kirgan pullar “moneta” (“tanga”) degan nomni Yunonaning nomlaridan biri (Juno Moneta – Ogohlantiruvchi Yunona) sharafiga qabul qilingan bo‘lib, uning Rimdagi Kapitoliy tepaligidagi Yunona saroyida ushbu antik davlatning yangi zarbxonasi joylashgan bo‘lgan. Tangalarning paydo bo‘lishi tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan bog‘liq edi. Metall pulning eng muhim

xususiyatlaridan biri – qiymat ana shu voqeada o‘z aksini topgan. Ular muomala uchun yombilarga qaraganda ancha qulay bo‘lib, qisqa davr ichida butun dunyoda keng ommalashib ketdi.

Tanganing ko‘p asrlik tarixida uning turlari ko‘p marta o‘zgardi, har bir davr unda o‘z “tamg‘a”sini qoldirdi. Masalan, eramizdan ilgarigi V asrdan boshlab ularda shaharlar nomlarining boshlang‘ich harflari, keyinroq – shaharlar nomlari va hukmdorlar ismlarining qisqacha nomlari paydo bo‘ldi.

Qadimgi Rimdagi tangalardagi ayrim raqamlar va harflar tangalarning nominallarini bildirgan. Masalan, 1 raqami bir asosni (bir rim funtiga, ya‘ni misning 12 unsiyasiga teng bo‘lgan og‘irlik o‘lchamini), S harfi $\frac{1}{2}$ asosni anglatgan. Antik Eginaning ilk kumush draxmalarida toshbaqalar, fors shohi Doroning (eramizdan oldingi VII-V asrlar) oltin tangalarida esa yoydan o‘q uzayotgan shoh tasvirlangan. Qadimgi Rim tangalarida majusiylar xudolari, qahramonlari va imperatorlari aks ettirilgan. Keyingi davrlar ularning o‘rniga qirollar, shohlar va cherkov ierarxlari suratlari tasvirlangan. Burjua respub-likalari tangalarida podshohlar va avliyolar tasvirlari o‘rniga davlat gerblari, turli belgilar va yangi tarixiy hodisalar manzaralari aks ettirilgan.

Zamonaviy O‘zbekiston hududidagi pullar ko‘p asrlik tarixga ega. Bu hudud tovar-pul munosabatlari rivojlangan juda qadimgi davlatlar doirasiga kiradi.

Bu hududda yashagan xalq va elatlar dastlabki tangalar bilan eramizdan avvalgi V-IV asrlardayoq tanish bo‘lishgan. Bu tangalar ahmoniyalar davrida chiqarilgan oltin “Deriki” va kumush “sikli”lar bo‘lgan. Bundan tashqari, tovar-pul munosabatlarining tez rivojlanishi asosan, Aleksandr Makedonskiyning O‘rta Osiyoga yurishi va **Selevkid va Grek-baqtriya** davlatlarning tuzilishi bilan bog‘liq. Eramizdan avvalgi III-II asrlarda shimoliy Baqtriya, Sug‘d, Buxoro, Xorazmda kumush va suberat (yupqa kumush bilan qoplangan, bronza asosli) tangalar chiqarila bshlandi.

Eramizdan avvalgi I asrlarda sof kumush va mis tangalar chiqarila boshlandi, ularning bir tomonida mahalliy hokimning portreti tasvirlangan, ikkinchi tomonida esa sug‘d, xorazm, keyinroq esa baqtriya tilida yozilgan yozuv va turli tasvirlar aks ettirilgan.

Boshqa tanga pullar tizimi janubiy O‘zbekiston va Turkmaniston hududlarida joylashgan ko‘chmanchi xalqlar tomonidan tuzilgan yirik Kushon imperiyasi davrida yanada rivojlandi. Bu tizim kumushga emas, turli nominaldagi oltinga asoslangan. Eramizdan avvalgi III asrda O‘rta Osiyo hududda Kushon davlatining parchalanishi bilan pul tizimi krizisi yuzaga keldi: tangalar sifati yomonlashdi, og‘irligi yengillashdi, bularning barchasi quldorlik tuzumi tanazzuli bilan bog‘liq.

Ilgari o‘rta asrlik oltin tangalar O‘rta Osiyo mamlakatlarida zarb etilmagan. Kumush tangalar uchun “draxma” grek atamasi, bronza tangalari uchun esa “pani” mahalliy sug‘d so‘zi va biz uchun tanish bo‘lgan “tanga” (“denga”) so‘zi qo‘llanilgan.

O‘rta Osiyo pul tizimi arablar va musulmonlik me‘yorlari kirib kelishi bilan keskin o‘zgardi. Oltin dinorlar (rimcha “dinary” so‘zidan olingan), kumush dirxamlar (grekcha “draxma” so‘zidan olingan) va mis felslar chiqarila boshlandi.

IX asr oxirlarida Movorounnahrda markazi Buxoro shahri bo‘lgan Samoniylar davlati barpo etildi. Bu davrda tanga yuqori rivojlanish darajasiga etdi. Tangalar kumush miqdorining yuqoriligiga qarab farqlandi. Savdo aloqalarining kengayishi kumushning Yevropaga oqib ketishiga olib keldi. Bunga Uraldan Angliyagacha hududlarda arxeologlar tomonidan topilgan ko‘pgina boyliklar misol bo‘la oladi.

XI asr boshlarida Samoniylar davlati o‘rniga turk hoqonligi dinastiyasi kirib keldi va u ham pul munosabatlarida bir qancha o‘zgarishlar yasadi.

XIII asrda tangalar Buxoro, Xiva, Qo‘qon, shuningdek, Toshkentda ham bosib chiqarila boshlandi. Buxoroda tangalarning yuqori probasi o‘rnatildi, ularni zarb etish erkin tarzda amalga oshirildi. Har qanday shaxs davlat tanga idorasiga kumush olib kelishi va o‘rniga kumush tanga (3,1 gr.) olishi mumkin edi. Shuningdek, oltin tangalar ham (“tillo” – 4,8 gr.) bosila boshlandi.

Buxoroda mang‘itlar dinastiyasining boshqaruvi bilan yuqori probali oltin tangalar chiqarila boshlandi. Rus savdogarlari Buxoro oltin tangalarini olishga juda ishqiboz edilar. Ularning probasi fors va hind oltinlarini yo‘lda qoldirib ketar edi. Bu tangalarni bosish doimiy ravishda amalga oshirildi. Ular orqali asosan yirik savdolar amalga oshirilardi.

XIX asrning oxirlarida Buxoroda qog'oz pullar ham muomalaga kira boshladi. Shunisi qiziqarliki, buning uchun amir mashinadan foydalanishni taklif qildi. Lekin, shu masala bo'yicha yig'ilgan kengash a'zolari darhol unga qarshi chiqdilar: "pulni qanday qilib mashinada chiqarish mumkin" va pullar avvalgidek qo'lda chiqarila boshlandi. Mahalliy tangalarni bosish O'zbekistonning Sovet Ittifoqiga qo'shilishi bilan to'xtatilib qo'yildi, faqatgina bugunga kelib, mustaqillik-yillaridagina o'z pullari – so'm va tiyinlarni (1994-yildan boshlab) chiqara boshladi.

Rossiyada Dmitriy Donskiy davrida pul sifatida quyma kumushlar – "grivna"lar muomalada bo'lgan, tanga sifatida rim dinorlari (VIII asr yarmigacha), sharq dirhamlari (VIII-X asrlar) g'arb tangalari (XI asrdan) ishlatilgan. Mo'yna boyliklari – ko'n, "rezanlar", "mordlar" va boshqalardan foydalanilgan. Vaqt o'tishi bilan pul o'rniga qimmatbaho metallar – oltin va kumush qo'llanilgan. VIII-XIX asrlarda Yeropada qog'oz pullar ham ishtirok eta boshladi. Rossiyada ular Yekaterina P davrida yuzaga keldi.

Pul aylanishining alohida sohalarida va turli sharoitlarida pulning ma'lum turlari qo'llaniladi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida muomalada oltin tanga ko'rinishidagi naqd pullardan keng foydalanildi. Rossiyada 1895 – 1897-yillardagi pul islohotidan keyin I jahon urushigacha 10 rubllik va 5 rubllik oltin tangalar bo'lgan. Bunday pullarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'z qiymatiga ega va inflyatsiyaga uchramaydilar.

Umumiy ekvivalent rolining nodir metallarga, jumladan oltinga yuklatilish sabablari quyidagilar orqali izohlanadi:

- sifat jihatdan bir xil o'lchamga keltirish mumkinligi;
- zanglamasligi va uzoq muddat saqlash mumkinligi;
- bo'linuvchanligi va bo'lingandan keyin yana yaxlit holga keltirish mumkinligi;
- bo'linganda ham o'z qiymatini saqlab qola olishi;
- tabiatda nisbatan kamyobligi;
- ozgina miqdordagi va og'irlikdagi nodir metallning qiymati ancha yuqoriligi.

Biroq oltin pullar ham kamchiliklardan holi emas:

- oltin pullarni qo'llash qog'ozdan tayyorlanadigan pul belgilariga qaraganda qimmatga tushadi;

- pulga bo'lgan ehtiyojlarini oltin pullar bilan qoplash mumkin emasligi, chunki pulga bo'lgan talab oltin qazib chiqarishga qaraganda tez o'sadi.

Ko'p asrlar davomida, deyarli XIX asrning boshiga qadar ko'pchilik mamlakatlarning pul tizimlarida bir xildagi maqomga ega bo'lgan oltin va kumush tangalar parallel ravishda amal qilib kelgan. Bunda oltin bilan kumush o'rtasidagi narxga oid o'zaro nisbat rasman belgilanmagan, balki bozor mexanizmlari bilan belgilangan. Ayrim mamlakatlarda esa to'laqonli oltin va kumush tangalarning amal qilishi oltin bilan kumush o'rtasidagi davlat tomonidan belgilangan narxga oid o'zaro nisbatga ko'ra yuritilgan.

1816-yildan 1900-yilgacha mamlakatlarning ko'pchiligi oltin yoki oltin tangali standartga o'tganlar. Bu standartda mamlakatning asosiy pul birligi to'laqonli muomalada bo'ladigan oltin tangada zarb qilingan. Uning nominali uning tarkibidagi oltin qiymatiga teng edi. Bu davrda banknotalarning oltin tangalarga hech qanday to'siqsiz ayirboshlanishi ta'minlangan. Kumush va mis tangalar esa mayda pul rolini o'ynardi. Bunda mayda pullarning metall qiymati ham, odatda, u yoki boshqa darajada oltin tangaga bog'lanar edi. XX asr boshiga kelib tovar ishlab chiqarish katta miqyosga erishdi va tovar massasining oshib borayotgan hajmiga xizmat ko'rsatish uchun tobora ko'proq miqdordagi pullar talab qilingan.

XIX asrning oxiri - XX asrning boshida yirik mashinali ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan tovarlarning keskin ortib borayotgan hajmi bilan oltin standart shartlariga ko'ra amalda mavjud bo'lishi cheklangan metall pullarning miqdori o'rtasida jiddiy disproporsiyalar vujudga keldi. Lekin oltin standart aksariyat ko'pchilik davlatlarda birinchi jahon urushigacha amal qilib turdi. Birinchi jahon urushi boshlangan vaqtga kelib amalda barcha mamlakatlar harbiy strategik zahiralarni shakllantirish maqsadlarida oltin va kumush tangalarni muomaladan olib tashlashdi. Pul muomalasida ularning o'rmini ta'minlanmagan banknotalar va mayda pullar egalladi.

Shu munosabat bilan prinsipial jihatdan yangi pul tizimlari paydo bo'ldiki, ular o'zining tovar qiymatiga ega bo'lgan real pullardan shakllantirilmagan, balki ularning surrogatlariga asoslangan edi. Bunday pul surrogatlari oltin bilan ta'minlanmagan pul belgilari – banknotalar, xazina biletleri, arzon qotishmalardan yasalgan tangalar

nomini oldi. To'laqonli oltin tangadan farqli ravishda bunday pul surrogatlari tovar bozorida o'zining qiymatiga ega emas edi, chunki bunday qiymat juda kam bo'lib, faqat ularni tutib turuvchining bunday pullarni almashtirganda muayyan qiymatni olish huquqidan guvohlik beradi. Bunday holda pul belgilari faqat qiymatning vositachi vakillari rolini bajarardi.

Birinchi jahon urushi haddan ortiq moddiy zararlar keltirib, xo'jalik faoliyatini izdan chiqargani sababli, dunyodagi barcha mamlakatlarning hukumatlari real qiymatga ega bo'lmagan juda katta miqdordagi pul belgilarini chiqarishga kirishdi. Buning natijasida urush tugaganidan keyin bu mamlakatlarda qadri tushib ketgan pullar miqdori ko'payib qoldi. Inflyatsiya jarayonlari 1930-yillargacha ko'pgina davlatlarni o'z girdobiga tortdi. Bunday jarayonlar sababli iqtisodiy va moliyaviy sohalarda yuz bergan deformatsiyalar shunchalik jiddiy ediki, Yevropada urushdan keyin bir qator mamlakatlarda oltin standartni yana qaytadan tiklashga bo'lgan urinishlar kerakli natija bermadi.

XX asrning 70-yillarida oltinning denominallashuvi yuz berib, buning natijasida oltin oldiniga mamlakatning ichki aylanishida muomala va to'lov vositasi funksiyalarini, so'ngra 1976-yildan boshlab jahon pullari funksiyasini ham bajarmay qo'ydi. Ichki aylanishda va jahon bozorida ham qog'oz va kredit pullari oltinni siqib chiqarib tashladi.

To'la qimmatli pullardan pul belgilariga o'tishda, eng avvalo, muomalada oltinga maydalanadigan kredit biletleri paydo bo'ldi. To'la qimmatli pullarni qog'oz pul belgilariga almashtirish jarayonida bunday pul belgilarini harakat ehtiyojlari bilan bog'lash muammosi paydo bo'ldi, oltin pullardan foydalanishda esa bunday hol kuzatilmaydi. Shu bilan bir qatorda, qog'oz pullar chiqarish davlat xarajatlarini qoplash ehtiyoji bilan belgilanar ekan, bunday pullarni muomalaga ko'plab chiqarish zarur bo'lib qoladi. Natijada qog'oz pullarning qadrsizlanishi, ularning xarid quvvatining pasayishi yuz beradi. Oltin pullar esa bunday qadrsizlanishga uchramaydi.

Qog'oz pullarga xos bu kamchiliklar ko'pincha kredit pullardan foydalanish orqali bartaraf qilinishi mumkin. Kredit pullar ham qog'ozdan tayyorlanadi, muomalaga kredit pullar chiqarish banklar tomonidan turli xo'jalik jarayonlari bilan bog'liq holda yuzaga keladigan kredit operatsiyalarini bajarishda amalga oshiriladi. Kredit

pullar (banknotalar) va qog'oz pul belgilari kabi pul turlari o'rtasidagi farq, bizningcha, ularni muomalaga chiqarish va sotish haqiqiy jarayonlari bilan bog'liqlikda bajariladigan kredit amallari bilan bog'liq muomalaga chiqariladi, qog'oz pullar esa bunday bog'lanishsiz chiqariladi.

O'z ahamiyati va natijalari jihatidan naqd harakatsiz pullar muhimdir, ularning harakatlari mijozlarning bankdagi hisoblar bo'yicha yozuvlari shaklida qayd qilinadi. Bunday harakat pul belgilarisiz yuz beradi.

Pullarni kengaytirilgan asosda qo'llash ularning qator afzalliklari bilan bog'liqdir, ularga birinchi navbatda pul harakatini amalga oshirish xarajatlarni pul belgilarini chop etish bilan qoplash, ularni qayta hisoblash, saqlash kabi xarajatlarni kamaytirish hisobiga erishiladi.

Demak, pulning mohiyati shundan iboratki, u jamiyat iqtisodiy faoliyatining, takror ishlab chiqarish turli ishtirokchilari va bo'g'inlari o'rtasidagi munosabatlarning faol unsuri va tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi.

1.2. Pulning hususiyatlari

Pul – rivojlangan bozor xo'jaligining zarur elementi bo'lib, konyunktura holati va iqtisodiy siklning borishiga doimiy va jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Pul tizimi xalq xo'jaligi organizmida «moddalar almashuvi»ni ta'minlaydi, katta hajmdagi tovarlar va pul massasi harakatini bilvosita ifodalaydi, davlat moliyasi va kredit kanallari orqali ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishini rag'batlantiradi.

Pul tahlilini faollashtirish bu mavzudagi nashrlar sonining keskin o'sishi, pul-kredit muammolari bilan shug'ullanuvchi iqtisodchilar doirasining kengayishi, pul mexanizmining faoliyatiga e'tiborning kuchayishi, pulni modellashtirish usullarini ishlab chiqish va hokazolarda namoyon bo'ladi. Pul haqidagi fan eng dinamik va ommaviy iqtisodiy fanlardan biriga aylandi.

G'arb mamlakatlarida iqtisodiy nazariyaning II jahon urushidan keyingi rivojlanishi pulning faoliyat ko'rsatish muammolariga qiziqishning tobora o'sib borishi uchun xarakterlidir. Bu sohadagi tadqiqotlarning jonlanishi XX asrning 50-yillarida boshlangan bo'lib, «pul renessansi» yoki «pulni takroran kashf etish» deb nomlangan. U paytda g'arb mamlakatlarining pul-kredit tizimi ikkinchi jahon urushini

moliyalashtirish uchun pul emissiyasi va ssuda kapitali bozorida keng foydalangan davlat budjet organlari vasiyigidan chiqq boshladi.

Markaziy banklar ko'proq mustaqillikka ega bo'ldi va pulning xarid qobiliyatini mustahkamlash uchun shiddatli vositalardan foydalana boshladi. Biroq moliya-kredit tizimini to'liq barqarorlashtirishning uddasidan chiqilmadi. G'arb mamlakatlarining ko'pchiligi pul muomalasining surunkali yetishmasligiga duch kelgan bo'lib, bu inflyatsiya bosimining vaqti-vaqti bilan kuchayishi, ssuda kapitali bozorining beqarorligi, foiz stavkalarining keskin tebranishi, valyuta muammolari va hokazolarda namoyon bo'ldi. Shunday qilib, pul muammolariga g'arb nazariyotchilari ko'rsatgan kuchli e'tibor asoslangan hisoblanadi.

Bugungi kunda pul va pul siyosatining nazariy muammolari g'arb iqtisodiy fikr namoyondalari o'rtasida qizg'in munozaralar va raqobat maydoniga aylangan. Chunki xo'jalik rivojlanish sur'atini rag'batlantirish va iqtisodiy konyunkturani kundalik boshqarish vositasi sifatida pulni tezkor qo'llashni ifodalovchi keyns yondashuvi va pul sohasidagi avtomatik bozor stabilizatorlari harakatini qiyinlashtiradigan iqtisodiyotdagi ziddiyatlar va disproporsiyalarni qoralovchi monetarizm o'rtasida chegara yotadi.

Ma'lumki, Keynschilik XX asrning 30 – 40-yillarda shakllangan bo'lib, iqtisodiy siyosat dasturlari va nazariy adabiyotlarda asosiy qoidaga aylandi. Monetarizm maydonga keyinroq, 50-yillar o'rtalarida chiqdi. U asosiy e'tiborni pul massasi va uning iqtisodiyotga ta'siriga qaratdi.

Pul nazariyasi keynschilik va monetarizm paydo bo'lishidan ancha oldin vujudga kelgan bo'lib, ko'p asrlik tarixga ega. Pulning fundamental muammolari g'arb siyosiy iqtisodining mumtoz vakillari A.Smit, D. Rikardo asarlaridayoq yo'lga qo'yilgan. Keyinchalik ular XIX – XX asrlarning yirik nazariyotchi olimlari J.S.Mill, U.Jevons, L.Valras, A.Marshall va boshqalar tomonidan umumlashtirilgan va qayta ishlangan. So'nggi yarim asr davomida pulni o'rganish estafetasi g'arb iqtisodiy fanining J.Xiks, P.Samuelson, J.Tobin, F.Modilyani, D.Patinkin, M.Fridman kabi olimlari qo'lga o'tdi. Nobel mukofoti laureati bo'lgan (Patinkindan tashqari) aynan shu olimlarning mehnatlarida "keynschilik - monetarizm" dixotomiyasi (ikkiga bo'linish) eng to'liq amalga oshirilgan.

Urushdan keyingi «pul renessansi» tadqiqotlarni pul nazariyasining abadiy, fundamental muammolariga qaratdi, “keyns inqilobi” esa asosiy e’tiborni to’lov layoqatiga ega bo’lgan talabni tartibga solish muammolariga qaratdi va «yuqori nazariya» muammolarini chetda qoldirib ketdi. Ularning fikriga ko’ra pulning nimaligi emas, balki uning iqtisodiy faollik, ishlab chiqarish, mehnat va moddiy resurslar bandligiga ta’siri muhim. Bunday yondashuv pul nazariyasining nazariy poydevoridagi jiddiy kamchiliklar mavjudligi, ko’plab boshlang’ich tushunchalar va asoslarning real emasligiga e’tibor qaratmadi.

Iqtisodiy tushuncha sifatida «Pul bu nima?» ekanligi, fundamental xususiyatlari va paydo bo’lish sababini aniqlashga intilish qadimgi faylasuflarning asarlaridan tortib to murakkab matematik apparatni kashf etgan zamonaviy mualliflarning ishlarigacha *ko’p asrlik iqtisodiy fikr tarixi orqali* o’tib davom etadi. Biroq bu sohadagi ulkan tadqiqotlarga qaramay, pul tabiati masalalari hozirgacha qarama-qarshiliklarga sabab bo’lmoqda. Bugungi kunda pulning nima ekanligi va takror ishlab chiqarish aloqalari tizimida qanday o’rin tutishi haqidagi aniq ilmiy tasavvur yo’q. Pulning ta’rifi haqidagi nazariy munozaralar zamonaviy adabiyotlarda ularni «empirik to’ldirish» masalalari bilan uzviy bog’lanib ketgan. Bunday holat urushdan keyingi yillarda ro’y berayotgan pul-kredit mexanizmi strukturasidagi jiddiy o’zgarishlar bilan asoslanadi. To’lov aylanmasida naqdsiz hisob-kitob va kredit bitimlarining har xil turlari tobora keng tarqalmoqda, ular banknotalar va boshqa naqd to’lovlari o’rmini bosmoqda va yangi to’lov vositalariga ehtiyojni qisqartirmoqda. Pul muomalasi va pul kapitalini jamg’arish sohasi o’rtasidagi chegaralar qisqarib ketmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda keng tarmoqli bank-kredit institutlarining mavjudligi faol muomalada bo’lgan pullarni tezlik bilan jang’armalarga aylantirish va buning aksi bo’lgan jarayon uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bunga moliyaviy yangiliklar jarayoni, oxirgi-yillarda yangi pul bozori vositalari va gibril bank schotlarining paydo bo’lishi xizmat qiladi, bu yerda pul bir vaqtning o’zida daromad keltiradi va tovarlar uchun hisob-kitob vositasi bo’lib xizmat qila oladi. Bularning barchasi pul tushunchasining aniqligini pasaytirib, pul va «pul emas» o’rtasidagi chegaralarni yo’q qiladi.

Kompyuter texnikasi va zamonaviy telekommunikasiya vositalari tizimini keng qo’llagan holda bank operatsiyalari va hisob-kitoblarni amalga oshirish texnologiyasining o’zgarishi xuddi shu yo’nalishda

davom etmoqda. To'lovlarni amalga oshirishning mehnat sig'imini qisqartirish hisob-kitoblarni tezlashtiradi, pul massasiga ehtiyojni kamaytiradi. Shu sababli ko'plab mualliflar «cheksiz va naqd pulsiz jamiyat» paydo bo'lishi istiqbollarini jiddiy muhokama qiladilar, bu ham pul ta'rifi haqidagi mulohazalarga dolzarblik baxsh etadi.

1.3. Pulning vazifalari

Hozirgi raqobat kurashi tobora kuchayib borayotgan sharoitda pulning mohiyati, pul muomalasi va uning qonuniyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, tahlil etish va ommaga yetkazish nafaqat iqtisodiyot uchun, balki hayot uchun ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Pulning ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatidagi mohiyatini iqtisodiyot nazariyasida to'plangan boy ilmiy yondoshuvlarni tahlil qilish asosida o'rganishga to'g'ri keladi.

Chunki pul to'g'risidagi nazariyada turlicha yondashuvlar va qarashlar mavjud bo'lib, ular o'rtasida umumiylik yo'q. G'arb iqtisodchilarining pul ta'rifi haqidagi asarlarida doimo tadqiqot obyekti, uning mohiyati va shakllari, tashqi belgilarini yetarlicha aniq tushunmaslik seziladi. Xususan, pulning konseptual tabiati ko'pincha turli tarixiy davrlarda pulning muayyan shakllari haqidagi masalalar bilan almashadi. Birinchi o'ringa turli pul agregatlarini loyihalashtirish muammolari, pul to'lovlari zaxirasining elementlar tarkibi haqidagi muammolar chiqadi.

Shu sababli, uning to'g'ri mazmunini ko'rsatib berish uchun pul to'g'risidagi asosiy nazariyalarni o'rganib, tahlil etamiz.

Pulning mohiyati haqidagi nazariyada uch asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin: metallistik, nominalistik va miqdoriy.

Metallistik pul nazariyasi pulni qimmatbaho metallar, oltin va kumush bilan izohlaydi va XVI – XVIII asrlarda kapital dastlabki jamg'arilishi davrida rivojlangan, bu nazariya namoyandalari (Angliyada-U.Stafford, T.Men, D.Nors; Fransiyada-A.Monkreten) tangalarning emirilishiga qarshi bo'lib, metallarning barqaror muomalada bo'lishini yoqlab chiqishdi. Ular pullarning mohiyatini asl metallarning ijtimoiy xususiyatlari emas, balki tabiiy xususiyatlari bilan bog'lashgan, pullarga ijtimoiy, ishlab chiqarish munosabati sifatida qarashmagan, balki ularni buyum deb bilishgan. Shuning uchun ular pullarning to'laqonli

tangalarni talab qiladigan funksiyalarini, ayniqsa, jahon pullari va xazinalar funksiyalarini mutlaqlashtirishgan.

Nominalistik pul nazariyasi XVII – XVIII asrlarda pul muomalasi to‘la qiymatli bo‘lmagan tangalar bilan olib borilganda shakllandi. Nominalizmning birinchi namoyandalari ingliz J. Berkli, J.Lokk va J.Styuartlar bo‘lishgan. Ularning nazariyasi uchun pullar – bu faqat tovarlar ayirboshlanishiga xizmat qiladigan ideal hisob birliklari, mahsulot, davlat hokimiyatining natijasi, pulning asosiy vazifasi-to‘lov vositasi vazifasidir deb tushunish xarakterli edi, nominalistlar pullarni texnik almashuv quroli sifatida o‘rganib, uning qiymat tabiatini to‘liq inkor qilishgan.

Fikrimizcha, nominalistlarning pul tartib o‘rnatishdan iboratligi haqidagi fikri mutlaqo noto‘g‘ri, chunki haqiqatda pul stixiyaviy ravishda kishilarning xohish-irodalariga bog‘liq bo‘lmagan holda davlat paydo bo‘lgunga qadar, ayirboshlashning rivojlanishi jarayonida paydo bo‘ldi. Pulning mohiyatini uning to‘lov vositasi vazifasidan keltirib chiqarishga urinish ham asossizdir

1929 – 1933-yillardagi iqtisodiy tanazzul davrida nominalizm yanada rivojlandi va oltin standartidan voz kechishni oqlash uchun nazariy asos sifatida tanildi. J.M. Keyns (“Pul haqida traktat”, 1930-y.) oltin pullarni “yovuzlik qoldiqlari”, “Aravaning beshinchi g‘ildiragi”, deb e‘lon qildi.¹ U oltinga nisbatan elastikroq bo‘lgan qog‘oz pullarni ideal deb hisoblaydi va ular jamiyatning doimiy gullab-yashnashini ta‘minlashlari kerak, deb ko‘rsatadi. Qog‘oz pullarning oltinni muomaladan siqib chiqarishiga u pulning oltindan ustunligi va nominalizmning g‘alabasi sifatida qaraydi.

Shunday qilib, nominalizmning barcha ko‘rinishlariga bir xil kamchiliklar xosdir: pulning tovar sifatidagi kelib chiqishini tan olmaslik, uning muhim vazifalarini inkor qilish, pulni narx masshtabi, ideal hisob birligi bilan ta‘riflashdir.

Pulning qiymat miqdori haqidagi masalaning yanada kengaytirilgan talqini miqdoriy pul nazariyasida berilgan. Bu nazariyaning asosiy g‘oyalari shundan iboratki, ular pulning qiymati – haqiqiy pulning ham, pul belgilarining ham qiymati ularning muomaladagi miqdori bilan belgilanadi, deb ko‘rsatishadi. Mazkur gipotezani birinchi marta XVI

¹ Жукова Е.Ф. Общая теория денег. М.: “Банки и биржи”, ЮНИТИ. 1995. –126-с.

asrda Fransuz iqtisodchisi J. Boden ilgari suradi. U G'arbiy Yevropada tovarlarning qimmatlashib ketganini qimmatbaho metallarning kirib kelishi bilan izohlaydi. Bu g'oyani XVII asrda Sh.L. Monteske, D. Yum, J. Millar qo'llab-quvvatlaydilar, biroq ular muomaladagi pulning miqdori va ular qiymatining o'zgarishi o'rtasidagi mutanosiblikni qayd etib ko'rsatdilar.

Miqdoriy pul nazariyasining tarafdorlari tovarlar bozorga narxsiz, oltin esa qiymatsiz chiqadi va faqat bozordagina oltinlar massasi va tovarlar massasining u yoki bu nisbati tovarlarni baholaydi, hamda oltinning qiymatini belgilaydi, deb ko'rsatishadi. Bizningcha, bu mutlaqo asossizdir. Tovarlar muomala sohasiga narxsiz kira olmaydi. Ayirboshlashga qadar tovarlar ularning qiymatini ifodalaydigan narxga, oltin esa qiymatga ega bo'ladi. Ayirboshlash jarayonida tovarlarning narxi ularning qiymatiga mos ravishda sotiladi va oltinning haqiqiy qiymati boshqa tovarlarga nisbatan aniqlanadi.

Miqdoriy pul nazariyasining XVIII asrdagi yorqin namoyondasi D. Rikardodir. Shuni ta'kidlash lozimki, uning qarashlari ikki tomonlama tavsifga ega bo'ldi: bir tomondan, u pulning qiymati ularni ishlab chiqarishga mehnat sarflari bilan aniqlanishini tan olgan, ikkinchi tomondan esa alohida davrlarda pul birligining qiymati pul miqdori o'zgarishlariga bog'liq ravishda o'zgaradi, deb hisoblagan.

D. Rikardo pul ham tovar hisoblanadi va o'z qiymatiga ega bo'ladi, pulning qiymati uni ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnatning miqdori bilan aniqlanadi, deb to'g'ri fikr bildiradi. Biroq u pulning alohida tovar ekanligini ko'ra bilmaydi. U pulning nisbiy qiymati talab va taklif ta'sirida istalgan tovarning nisbiy qiymati singari o'zgaradi, deb hisoblaydi. Pul alohida umumiy tovar bo'lgani uchun talab buyumi ham, taklif buyumi ham bo'la olmasligini tushunmaydi.

Rikardo pulni faqat muomala vositasi sifatidagi vazifasida ko'radi, boylik to'plash vositasi sifatidagi vazifasini esa yo'qqa chiqaradi. Uning fikricha, pul muomalasi sohasining pul bilan ortiqcha to'ldirilishi tufayli uning qadrsizlanishi imkoniyati vujudga keladi. U qog'oz pul muomalasi qonuni bilan metall pul muomalasi qonunlarining farqiga bormaydi. Yuqoridagi nazariyalarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkin, pul tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashning rivojlanishi bilan vujudga kelgan.

Yuqorida keltirilgan nazariyalarning kamchiliklarini qisqa qilib tushuntiradigan bo'lsak, pulning alohida tovar sifatidagi mohiyatini hech bir nazariya to'g'ri va batafsil yoritmaganligini ta'kidlab ko'rsatish mumkin. Natijada metallistlar pulning nima uchun qimmatbaho bo'lylik ekanligini, uning tub negizida nima yotishini tushunib yetishmagan, pulning mohiyatini yuzaki namoyon bo'lish shakllarida ko'rishgan. Nominalistlar bo'lsa, qog'oz pullarni inkor etmagani holda nima uchun ularning qimmatli ekanligini izohlab bera olmadilar, ular ham metallistlar kabi pulni yuzaki tushunib, davlat tomonidan chiqarilgan pul faqat shartli belgi va hisob birliklarinigina ifodalaydi, deb ko'rsatishadi. Yuqorida ko'rsatganimizdek, klassiklar ham pulning alohida tovar ekanligini va boshqa tovarlardan uning ana shu maxsus xususiyati ajratib turishini tushuntirib bera olmadi. Hozirgi davrda, shu kunlarda ham oltin pul mazmuni bilan qog'oz pul mazmunini bir xil deb qarovchilar juda ko'pdir.

Yuqoridagi nazariyalarni umumlashtirgan holda pulni alohida tovar bo'lib, boshqa barcha tovarlarning qiymatini ifodalaydigan umumiy ekvivalent sifatida xizmat qiladi, deb ta'riflash mumkin. U boshqa tovarlar kabi ikki tomonlama xususiyatga ega: bir tomondan, umuman tovar sifatida boshqa tovarlar singari qiymatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, iste'mol qiymatiga ega, uning iste'mol qiymati umumiy ekvivalent sifatida boshqa istalgan tovarga almashuvchanligidir. Bu pul-tovarning umumiy iste'mol qiymatidir. Demak, pul tovar sifatida qiymatga ega bo'ladi, alohida tovar sifatida esa qiymatning bevosita umumiy shakli hisoblanadi. Bu pulning boshqa hech qaysi tovarda bo'lmagan bevosita almashuvchanlik xossasini ko'rsatadi. Yuqoridagi nazariyalar pulning ana shu xossasini tushunib yetmaydilar.

Tovarlar olamining tovarlar va pullarga ajralishida iste'mol qiymati va qiymat o'rtasidagi ichki ziddiyat yuzaga chiqadi. Barcha tovarlar iste'mol qiymati sifatida chiqsalar, pul esa ularning qiymatini ifodalovchi vosita sifatida ko'rinadi. O'zining qiymatini ifodalash uchun har bir tovar oldindan pulga aylanishi kerak. Faqat pulga aylangan tovargina iste'mol qiymati bilan bir qatorda qiymatga ham ega bo'ladi.

Pul doimo abstrakt, ijtimoiy mehnatning o'lchovi sifatida namoyon bo'ladi. Oltin bilan qoplangan xususiy aniq mehnat bir vaqtning o'zida abstrakt ijtimoiy mehnatning ham bevosita qoplanishini bildiradi. Har bir tovar-xususiy mehnat mahsuli bo'lib, u pulga ayirboshlangach, ijtimoiy tan olinadi. Pul yordamida tovarda mujassamlashgan ijtimoiy mehnat hisobga olinadi. Pul doimo qiymatning umumiy ekvivalent qutbida qiymat o'lchovi

sifatida chiqsa, barcha tovarlar doimo nisbiy shaklda bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mana shu har ikki qiymat shakllari o'rtasida mutanosiblikni ta'minlash orqali pul barqarorligini ta'minlash mumkin. Bizning fikrimizcha, shu yerdan pulning ijtimoiy-iqtisodiy munosabat ifodasi tarzidagi mohiyati kelib chiqadi. Tovarlar qiymati bilan muomaladagi pul miqdori o'rtasida mutanosiblik ta'minlansa, makroiqtisodiy barqarorlikka ham erishiladi, deb o'ylaymiz. Demak, pulning o'zi mohiyat jihatdan jamiyatning iqtisodiy ahvolini ifodalaydi. Uning holatiga qarab jamiyatga baho berish mumkin.

G'arb mamlakatlari iqtisodchilarining yirik nazariy muammolar-pulning tabiati va funksiyalari; uning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish modellaridagi o'rni; pulning foiz me'yori, inflyatsiya va iqtisodiy o'sish dinamikasi bilan aloqasi; pul-kredit siyosatining samaradorligi sohasidagi tadqiqotlari bozor islohotlarini amalga oshirishda MDH mamlakatlari uchun katta qiziqish uyg'otadi. Pul jarayonlarining g'arb olimlariga xos bo'lgan eng yangi talqinlari, original tadqiqot usullari bilan tanishish bizning Respublikamiz – O'zbekistonda o'tish davrida ham, uzoq kelajakda ham umumiqtisodiy va pul-kredit siyosati vazifalari va usullarini nazariy fikrlashga xizmat qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Pul kelib chiqishining asosiy sabablari nimalardan iborat?
2. Metall pullar hukmronligining uzoq davri qachon boshlandi?
3. Mamlakatlarning ko'pchiligi oltin yoki oltin tangali standartga qachon o'tganlar?
4. Oltinning denominallasuvi qanday oqibatlariga olib keldi?
5. "Pul renessansi tushunchasini qanday izohlash mumkin?"
6. XX asrning ikkinchi yarmida pul nazariyasiga qiziqishning kuchayib ketishini nimalar bilan izohlash mumkin?
7. Bugungi kunda pul va pul siyosatining nazariy muammolari qanday oqimlar o'rtasida kuchli bahs-munozaralar va raqobat maydoniga aylangan?
8. Pul nazariyasining fundamental savollari nimalardan iborat?
9. Pul muammolari haqidagi konseptual yondashuvlarning mazmunini tushuntirib bering.
10. Pulning tovar sifatidagi xususiyatlari nimalardan iborat?

2 – MAVZU. PUL TA'MINOTI JARAYONI

2.1. Pul aylanmasining mohiyati

Naqd pulsiz va naqd pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladigan tulovlarning yigindisi pul aylanmasini tashkil qiladi. Iqtisodiyot tarmoqlarida yaratilgan tovarlarning barchasi pul yordamida ayirboshlanadi. Pul aylanmasiga tovar aylanishining pul shaklidagi ko'rinishi sifatida qarab bo'lmaydi. Chunki pul aylanmasi tovar aylanmasidan kengroq bo'lib, u tovarning sotilishi va sotib olinishidan tashshqari, har xil sohalarda mehnatga haq to'lash jarayonini ham o'z ichiga oladi.

Pul aylanmasi moliyaviy resurslardan foydalanish jarayonini ham o'z ichiga oladi. Kapital mablag'lardan foydalanish va ba'zi sohalarda xarajatlarni moliyalashtirish, banklar tomonidan kreditlash jarayonlarining amalga oshirilishi ham pul aylanmasining yuzaga kelishi uchun zarur sharoitdir. Kreditlash uchun zarur bo'lgan kredit resurslari pulning uzluksiz aylanishi natijasida vujudga keladi. Korxonalar, tashkilotlar tomonidan moddiy boyliklar, materiallar, yoqilg'i va boshqalarni sotib olish uchun mo'ljallangan pul mablag'lari oldindan avanslashtiriladi. Pul aylanmasi investitsiya bilan bog'liq xarajatlarni, sug'urta jarayonlarini amalga oshirilishini, mulkni, hayotni, transport vositalarini, ekin bog'larni, boshqa buyumlarni sug'urta qilish va uni to'lashni o'z ichiga oladi.

Pul aylanmasi aholi tomonidan uy-joy, kommunal xizmatlar, gaz, elektr energiyasi, aloqa xizmatlar uchun to'lovlar, madaniy maishiy xizmat ko'rsatish korxonalariga to'lovlar, transport uchun to'lovlarni, a'zolik badallarini va paylarni to'lashni o'z ichiga oladi. Pul aylanmasini ikki asosiy belgiga qarab - birinchidan, jami ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish; ikkinchidan, pulning funksiyalariga qarab tarkibiy qismlarga bo'lish mumkin. Jami ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq holda pul aylanmasi tovarlarni ishlab chiqarish va sotish, kapital qurilish bilan bog'liq aylanmaga hamda tovar va ularning xarakati bilan bog'liq bo'lmagan aylanmaga bo'linadi.

Pul aylanmasi tarkibida naqd pulsiz aylanma salmog'ining yuqori bo'lishining sababi, avvalambor, korxonalar, tashkilotlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, ishlab chiqarishni yuksaltirish zarurati, ba'zi bir tarmoqlarning ixtisoslashuvi, kredit tizimining

takomillashuvi va boshqalar bilan bog'liq. Tovarlarini sotish jarayonidagi hisoblar moddiy boyliklar aylanishi bilan bog'liq bo'lib, ular, asosan, korxonalar va tashkilotlar o'rtasida olib boriladi.

Notovar xarakterdagi hisob-kitoblarga milliy daromadni taqsimlash, qayta taqsimlash bilan bog'liq, bo'lgan to'lovlar, daromaddan to'lovlar, har xil soliqlar, kreditlarni to'lash, uy-joy, har xil xizmatlar uchun to'lov va boshqalar kiradi. Tovarlar xarakati bilan bog'liq bo'lgan hisob-kitoblarning naqd pulsiz o'tkazilishi, moddiy boyliklarni yetkazish va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov muddatini yaqinlashtirishga yordam beradi. Tovar moddiy boyliklar va xizmatlar uchun to'lovlarning o'z vaqtida o'tkazilmasligi, korxonalar mablag'larining xo'jalik aylanmasidan chiqib ketishiga, ko'zlangan rejalarni bajarish uchun mablag'larning yetishmasligiga olib keladi.

To'lovning tovarlarini olishdan oldin amalga oshirilishi mol sotib oluvchi korxonalar mablag'larining xo'jalik aylanmasidan chiqib ketishiga olib keladi. Shuning uchun tovarlar xarakati va to'lovlar bir-biriga mos kelishi katta ahamiyatga ega. Pul aylanmasini ko'rib chiqishda to'lov aylanmasi bilan naqd pulsiz aylanmalar o'rtasida farq mavjudligini ta'kidlash lozim. To'lov aylanmasi deb pulning to'lov vositasi sifatidagi xarakati tufayli vujudga kelgan pul aylanmaga aytiladi. To'lov aylanmasining tarkibiy qismi bo'lib, to'lov naqd pulsiz aylanma va naqd pul aylanmasining pulning to'lov vositasi funksiyasi tufayli yuzaga keluvchi qismi hisoblanadi.

Jamiyatdagi pul aylanishi yaratilgan mahsulotlar harakatini bildiradi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin.

$$PM \times PO = N \times MX.$$

ya'ni:

PM – pul massasi (miqdori)

PO – pul aylanishi tezligi

N – narx darajasi

MX – yaratilgan mahsulot va bajarilgan xizmatlar miqdori.

Pul miqdori - har qanday mamlakat iqtisodiyotida tovarlar va xizmatlar aylanishini ta'minlaydigan, xususiylar, shaxslar, korxonalar, muassasalar mulkdorlari va davlat egalik qiladigan naqd puli va naqd pulsiz xarid hamda to'lov vositalari majmuyidir.

Bir qator hollarda tovar muomalasidan tashqari puli munosabatlar va hisob – kitoblar vujudga keladi.

Masalan:

1) yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlarida;

2) firmalar, korxonalar, muassasalar pul daromadlarini taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida;

3) banklar, aholi va xo'jaliklar o'rtasidagi kredit munosabatlarida, ya'ni aholi va xo'jaliklarning vaqtincha bo'sh pul mablag'larini davlatning ssuda fondiga to'plash va uni aholi, xo'jaliklarga vaqtincha foydalanishga berish jarayonlarida;

4) ayrim tarmoqlarni moliyalashtirish va davlat sug'urta muassasalarning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarda;

5) dehqon bozorlarida, aholi o'rtasida xizmatlar ko'rsatish va tovarlar ayirboshlash vaqtida;

6) boshqa ayrim hollarda.

Pulning aylanishi – firmalar va uy xo'jaliklari o'rtasida mahsulot va xizmatlarning harakati demakdir.

Pul aylanishining bir qancha turlari mavjud:

I. Puli munosabatlarning turiga qarab pul aylanishi 2 xil bo'ladi:

- tovarlar, moddiy xizmatlarni ayirboshlash jarayonidagi pul aylanishi.

- tovar shakliga ega bo'lmagan puli hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonida amalga oshiriladigan pul aylanishi.

II. To'lov usullariga qarab ham pul aylanishi 2 turli bo'ladi.

- naqd pul qo'llaniladigan pul aylanishi;

- naqd pulsiz pul aylanishi.


Albatta, pul muomalasini tashkil qilish Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi, lekin naqd pullar oqimining asosiy qismi tijorat banklarining kassalari orqali harakat qiladi. Natijada, tijorat banklari ham naqd pul muomalasini boshqarishda bilvosita ishtirok etadilar.

Naqd pul muomalasidagi pul harakati uchta pul oqimini o'z ichiga oladi:

1. Korxonalar va tashkilotlar o'rtasidagi;

2. Korxonalar va tashkilotlar bilan aholi o'rtasidagi;

3. Alohida shaxslar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish jarayonlari bilan bog'liq naqd pul oqimi.



1-rasm. Naqd pullar aylanmasining tarkibiy qismlari

Korxonalar va tashkilotlar o'rtasidagi naqd pul ishtirokida amalga oshiriladigan to'lovlar hajmi o'ta chegaralangan bo'lishiga qaramasdan, ular o'rtasida ayrim to'lovlar hanuzgacha naqd pulda amalga oshirilib kelinmoqda.

Pul aylanishi faol va nafaol shakllarda amalga oshiriladi.

Muomala jarayonlarida bevosita ishtirok etayotgan harakatdagi pul miqdori faol pul aylanishi deb ataladi.

Ma'lum bir davr mobaynida, vaqtincha muomalada ishtirok etayotgan pul miqdori nafaol pul aylanishi deb ataladi.

Nafaol pul aylanishiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) firma, korxonalar, muassasalardagi vaqtincha bo'sh turgan mablag'lar;

2) aholining jamg'armalari.

Faol pul aylanishi 2 ga bo'linadi:

1) naqd pul qo'llaniladigan pul aylanishi;

2) naqd pulsiz hisob – kitoblardan tashkil topgan pul aylanishi.

2.2. Naqd pullarni qabul qilish tartibi

Umuman pulning harakati bankdan boshlanadi. Naqd pul bankdan chiqib, firma, korxonalar, tashkilot, muassasalarning g'aznalariga va aholining qo'liga o'tadi.

Savdo – sotiq va to'lov harakatlari bajarilgandan so'ng Yana bankka qaytadi.

Naqd pul qo'llanadigan pul aylanishi quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

- davlat va korxonalar, firmalar, tashkilotlar o'rtasida ish haqi to'lashda, tovarlar sotib olishda, xizmat ko'rsatish uchun to'lovlar to'langanda;

- davlat va aholi o'rtasida – pensiya, nafaqa, yutuqlarni to'lash, soliqlarni to'lash amalga oshirilganda;

- banklar va aholi o'rtasida – kredit olish va uni qaytarish, jamg'arma qo'yish va uni olish jarayonida;

Muomaladagi naqd pul miqdori, muayyan bir vaqtda muomalada mavjud bo'lgan naqd pullarning yig'indisidir.

Muomaladagi naqd pul quyidagi unsurlardan tashkil topadi, ya'ni firmalar, korxonalar, jamoa tashkilotlarining g'azna qoldiqlari, banklarning kassalaridagi naqd pul qoldiqlari, aholi qo'lidagi naqd pullar.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar, banklar, jamoa tashkilotlarining g'aznalaridagi naqd pul qoldiqlari limit bilan chegaralanadi.

Ular g'azna qoldiqlarining limitdan ortiqcha qismini banklarga topshiradilar.

Banklar esa oborot g'aznalaridagi limitdan ortiqcha naqd pul mablag'larini zahira fondiga o'tkazadi.

Banklarning zahira fondidagi naqd pullar muomaladagi naqd pul miqdoriga kirmaydi.

Odatda, muomaladagi naqd pul massasining asosiy qismini aholi qo'lidagi pul tashkil qiladi.

Bazor iqtisodiyotiga o'tish davrida ularni tartibga solish ma'lum qiyinchiliklar bilan amalga oshirilmoqda. Uni tartibga solishda talab va taklif, iste'mol va jamg'arma o'rtasidagi nisbatlarni ta'minlash o'ta muhimdir.

Firmalar, korxonalar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar g'aznalaridagi naqd pul miqdori quyidagi omillarga bog'liq:

1) limit miqdorining o'zgarishiga;

2) amaldagi qoidalarga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektlar ish haqini tarqatish davrida 3 kun davomida o'rnatilgan limitdan ortiqcha miqdorda naqd pul saqlash huquqi.

Aholi qo'lidagi naqd pul miqdori esa quyidagi omillar ta'sirida o'zgaradi:

1) aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan talabining qondirilish darajasi;

2) vaqtincha bo'sh turgan jamg'armalarning bank aylanmasiga jalb etish darajasi.

Naqd pullar aholi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda qo'llaniladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda mavjud naqd pul aylanishini tashkil etish quyidagi qoidalarga asoslanadi:

1. Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zlarining pul mablag'larini banklardagi schotlarda saqlashlari shart.

2. Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi naqd pul aylanishi va naqd pulsiz hisoblashlar shartlari maxsus qonunlar va qoidalar bilan qat'iy chegaralangan.

3. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda g'aznaning kirim va chiqim operatsiyalari xarajat qoidalariga rioya qilingan holda aniq, ravshan va o'z vaqtida amalga oshirilishi shart.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul aylanishi yaxlit holda o'rnatiladi va boshqariladi. Pul aylanishini iqtisodiy usullar vositasida boshqarish maqsadida u bir necha pul agregatlariga bo'linadi.

Pul agregati – jamg'arib borilayotgan va xarid qobiliyatini saqlovchi barcha pul vositalaridan iborat. Bunga quyidagilar kiradi:

- naqd pullar;

- sertifikatlar;

- ma'lum muddatga yoki muddatsiz bankka qo'yilgan pullar.

Pul agregatlarining soni mamlakatda iqtisodiyot va pul massasini boshqarish xususiyatlari inobatga olingan holda turlichadir.

Umumiy ko'rinishda ular quyidagilardan iborat bo'ladi:

Mo - muomaladagi naqd pul miqdori.

MI = Mo+ banklarning turli xil schotlardagi foiz to'lanmaydigan muddatsiz depozitlar qoldig'i.

Tayanch tushunchalar.

Pul massasi, pul aylanishi, narx darajasi, faol pul aylanishi, nofaol pul aylanishi, pul agregati, diskoniy siyosati vekselni hisobga olish, narxni tushirish, naqd puli hisob-kitoblar, monetar siyosat, fiskal siyosat.

Pul agregatlarini boshqarishda bir qator pul-kredit siyosatlari olib boriladi. Bu siyosatni Markaziy bank amalga oshiradi. Ular quyidagilardan iborat:

1) Dispont (foiz) siyosati. Veksellarni hisobga olish, skidka (narxni tushirish), skidka foizi hisobiga olish stavkasi dispontning asosiy yo'nalishlaridan iborat.

2) Ochiq bozorlardagi operatsiyalar siyosati. Markaziy bank tijorat banklaridan qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish yoki ularga davlatning qimmatbaho qog'ozlarini sotish orqali pul talabi va taklifiga hamda pul massasiga ta'sir etadi.

3) Markaziy bankda saqlanayotgan tijorat banklarining turli xil rezerv me'yorini o'zgartirish orqali ham pul agregatlariga ta'sir ko'rsatiladi va boshqariladi.

2.3. Naqd pulsiz hisob – kitoblarning shakllari

III. Naqd pulsiz hisob-kitoblar pul muomalasida muhim o'rin tutadi.

Naqd pul ishtirokisiz sotuvchi va xaridorning schotlarida yozuv orqali amalga oshiriladigan hisob-kitoblar naqd pulsiz hisob-kitoblar deb ataladi.

Firmalar, korxonalar, tashkilotlar tomonidan tovar ayirboshlash, xizmatlar ko'rsatish va tovarsiz operatsiyalar bo'yicha bir-biriga bo'lgan talab va majburiyatlarni naqd pul ishlatmasdan pul mablag'larini schotga o'tkazish orqali amalga oshirilishi naqd pulsiz hisob-kitoblar deb ataladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan pul aylanishida naqd pulsiz hisob kitoblarning ulushi ortib boradi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning ko'payib borishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- yalpi ichki mahsulot (jami milliy mahsulot) va milliy daromad hajmining ortib borishi;
- moddiy ishlab chiqarish sohalarida mahsulot hajmining ko'payishi;
- tovar aylanishi hajmining keskin o'sib borishi;

- ayirboshlash jarayonida kreditning ahamiyatini yuksalishi;
- firmalar (korxonalar), muassasalar va tashkilotlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning ortib borishi;
- elektron hisoblash texnikaning, kompyuterlarning keng rivojlanishi va ulardan kundalik hayotda foydalanish.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarning bir qancha turlari mavjud. Uni ma'lum belgilariga muvofiq guruhlash mumkin:

I. To'lovning obyektiga binoan:

- tovar va xizmatlar uchun hisob-kitoblar;
- tovarsiz hisob-kitoblar (budjet to'lovlari, ssuda operatsiyalari bo'yicha to'lovlar).

II. Hisob-kitoblarni o'tkazish obyektiga, joyiga qarab:

- bir hududda amalga oshiriladigan hisob-kitoblar;
- hududlararo hisob-kitoblar;
- mamlakatlararo hisob-kitoblar.

III. To'lovni amalga oshirish usullariga qarab:

- kafolatlangan (oldindan to'lovlar uchun pul ajratilgan va kafolatlanmagan to'lovlar) hisob-kitoblar.

- schotlarga pul o'tkazish yoki o'zaro qarzlardan kechish orqali hisob-kitoblar;

- to'lov kechiktirilgan hisob-kitoblar.

IV. Mahsulotni sotish usuliga ko'ra:

-to'g'ridan to'g'ri sotuvchi bilan sotib oluvchi o'rtasidagi hisob-kitoblar;

-tranzit operatsiyalari orqali amalga oshiriladigan hisob-kitoblar.

Markaziy bank naqd pulsiz hisob-kitoblarni olib borishning tartib-qoidalari tuzib beradi.

Tijorat banklari esa korxonalariga, tashkilotlarga, muassasalarga naqd pulsiz hisob-kitob xizmatini ko'rsatadi. Buning uchun banklar xo'jalik yurituvchi subyektlarga bir qator schotlarni ochadi. Bu schotlarni ochilishida quyidagi omillar hisobga olinadi:

1) moliyalashtirishning manbayi;

2) xo'jalik yurituvchi subyektlarning va tashkilotlarning faoliyat turi;

3) mablag'lardan foydalanish maqsadi (joriy sarflar, kapital qo'yilmalar).

Schotlarni ochish tartibi amaldagi qonun va qoidalar bilan aniqlanadi.

Hisob-kitob schotlari huquqiy jihatdan mustaqil balansga va o'z oborot mablag'lariga ega bo'lgan korxonalar, firma, tashkilotlarga ochib beriladi.

Huquqiy jihatdan mustaqil bo'lmagan va xo'jalik hisobida ish yuritish uslubiga o'tmagan ishlab chiqarish korxonalari va budjet mablag'lari va boshqa ajratmalar hisobiga ish yurituvchi noishlab chiqarish sohasiga qarashli tashkilot va muassasalarga joriy schotlar ochiladi.

Budjet schotlari budjet kassasini ijro etish operatsiyasini bajarish, to'lovlarning tushishi va xarajatlarni aks ettiriladi.

Amaliyotda naqd pulsiz hisob-kitoblarning quyidagi shakllari qo'llaniladi:

- aksept shakli;
- to'lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar;
- akkreditiv shakli;
- cheklar bilan hisob-kitoblar;
- rejali to'lovlar.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi pul aylanmasining tarkibiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, taraqqiy etgan mamlakatlarda iqtisodiyotning pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi yuqori bo'lganligi sababli, tovar pul munosabatlarida to'lovsizlik muammosi mavjud emas.

$$MK = \frac{M2}{\text{PM}}$$

MK = monetarizatsiya koeffitsiyenti;

M2 = pul agregati

| |
|--------------|
| TBC-KCF-MKTC |
| PM = |
| PAT |

PM = pul massasi;

MKTS = muddati kelgan to'lovlar summasi;

TBS = tovarlar bahosi summasi;

KST = kreditga sotilgan tovarlar summasi;

PAT = pul aylanmasi tarkibi

Taraqqiy etgan mamlakatlarda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining rivojlanganligi naqd pullarga bo'lgan talabning kamayishiga olib keldi. Bu esa pul aylanmasi tarkibida naqdsiz yuqori va barqaror darajada saqlash imkonini beradi.

Nazorat uchun savollar

1. Pul aylanmasining mohiyatini tushuntirib bering.
2. Jamiyatdagi pul aylanishini qanday formula orqali ifodalash mumkin?
3. Naqd pullar muomalasi ko'rinishlari qanday?
4. Aholi qo'lidagi naqd pul miqdori qaysi omillar ta'sirida o'zgaradi?
5. Naqd pulsiz hisob-kitoblar deb qanday hisob-kitoblarga aytiladi?
6. Amaliyotda naqd pulsiz hisob-kitoblarning qanday shakllari mavjud?

3-MAVZU. PULGA TALAB

3.1. Pulga talab nazariyasi, modeli va grafigi

Neoklassiklarning yondashuvi kapitalistik voqeelikka zid keldi va bu hol 1929 – 1933-yillardagi “**Buyuk depressiya**” jarayonida alohida namoyon bo‘ldi. Ahvolni tuzatish ishi J.M.Keynsning zimmasiga tushdi. U «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» asarida (1936)pullarning aylanishdan chiqib ketishi sabablarini aniqlashga urinadi, chunki uning fikricha, buning natijasida yalpi to‘lovga qobiliyatli talab hajmi qisqaradiki, bu ishlab chiqarish rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. J.M. Keynsning fikricha, pullarning chiqib ketishining bosh sabablari “uchta fundamental psixologik omillar”: iste’molga moyillik, likvidlikni afzal ko‘rish va kapital aktivlardan keladigan bo‘lg‘usi daromad taxmini bilan bog‘liq.

Bu nazariya akademik tadqiqotlar va ta’limda ham, siyosatni ifodalashda ham qo‘llanadigan ustunlik qiluvchi makroiqtisodiy modelga aylandi, biroq bu nazariyaning rivojlanishidagi bosqichlarni farqlash lozim:

a) eski keyns modeli bu – keyns nazariyasini Xiks va Xansen tomonidan interpretasiya qilish bo‘lib, ko‘pincha uni Xiks-Xansen modeli deb atashadi. Uning rivojlanishiga, shuningdek, Kleyn, Samuelson va Modilyani ham munosib hissa qo‘shgan;

b) yangi keyns modeli –XX asr 60-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab Klauer, Leyonxuvud, Berrou va Grosman tomonidan ishlab chiqilgan. Biroq Keyns yondashuvi umumiy bo‘lib qolaverdi, u o‘z vazifasini to‘liq bandlikda muvozanat umumiy holat emasligini ko‘rsatishda deb bildi.

Umumiy holat bu – ishsizlik mavjudligidagi muvozanat, to‘liq bandlik – o‘ziga xos holat. To‘liq bandlik holatiga erishish uchun davlat maxsus siyosat yuritishi lozim, chunki avtomatik amal qiluvchi bozor kuchlari unga erishishni kafolatlamaydi.

Keyns modeli makroiqtisodiy agregatlar yordamida ifodalanadi. Bunda agregatsiyalashning ikki turidan foydalaniladi:

1) model xususiy sektordagi firmalar va individlarning xulq-atvori va davlat sektorining xulq-atvorini aks ettiradi (keyns modeli xorijiy sektorni ham qamrab oladi, biroq biz bunga hali qaytamiz);

2) modelda ma'lum bir tovar turlari va o'zgaruvchilar tarkibiy qismlarga birlashadi, shuning uchun iste'mol tovariga belgilangan umumiy talab (aytaylik X_1) emas, balki barcha iste'mol tovarlariga umumiy talab (S) tahlil qilinadi.

Eski keyns modelida investitsion tovarlar iste'mol tovarlaridan prinsipial farq qilmaydigan tovarlar bozori mavjudligi ko'zda tutilgan. Model barcha turdagi bozorlarni bitta bozorga birlashtiradi. Bundan tashqari, alohida pul bozori va obligatsiyalar bozori ham mavjud. Obligatsiyalar bozori barcha turdagi obligatsiyalar va pulsiz moliyaviy aktivlarni birlashtirishni ifodalaydi. Va nihoyat, modeldagi to'rtinchi bozor bu – ishchi kuchi bozori. Modelda bu bozorlarning har biri faoliyati va ular o'rtasidagi aloqalar belgilab berilgan.

3. 2. Fisher tenglamasi

Siyosiy iqtisod matematik maktabining yirik vakili, xalqaro iqtisodiy jamiyat asoschilaridan biri va uning birinchi prezidenti (1931-1933) **Irving Fisher** (1867-1947) pullarning miqdoriy nazariyasini zamonaviylashtirishga katta hissa qo'shdi. U "Pullarning xarid qilish kuchi. Uning belgilanishi va kredit, foizlar va tanazzullarga munosabati" asarida (1911) pullar massasi bilan tovarlar narxlar darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni formalashtirishga harakat qilgan. Tovarlar uchun to'langan pullar soni va sotilgan tovarlar narxlar summasi teng bo'lgani uchun buni I. Fisher tarozi bilan o'xshatmoqchi bo'ladi.

Matematik shaklda ayirboshlash tenglamasini quyidagi formula shaklida tasavvur etish mumkin:

$$MV = \sum PQ$$

bunda: \sum (Expenditure) - pul muomalasining umumiy hajmi, ya'ni mazkur jamiyatda shu yil davomida tovarlarni sotib olish uchun sarflanadigan pullar summasi; M (Money) – ushbu jamiyatda yil davomida muomalada yurgan pullarning o'rtacha miqdori;

$$\frac{\sum PQ}{V} = M$$

V – (Velocity) – ne'matlarga ayirboshlashdagi pullar aylanishlarining o'rtacha soni; P – (Price) – ushbu jamiyatda sotib olinadigan har qanday alohida tovarning o'rtacha sotish narxi; Q – (Quantity) – tovarlarning jami xarid qilingan soni.

Fisher formulasi oltin tangali standart sharoitida to'g'ri bo'lmaydi, chunki u pullarning ichki qiymatini hisobga olmaydi. Biroq oltinga almashtirilmaydigan qog'oz pullar muomala qiladigan sharoitda u muayyan mazmun kasb etadi. Bunday sharoitda pul massasining o'zgarishi, garchi I. Fisher tovarlar narxlarining mutlaq elastikligini nazarda tutib, narx mexanizmini ma'lum ma'noda ideallashtirsada, lekin tovarlar narxlari darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Boshqa neoklassiklar kabi Fisher ham mukammal raqobatchilikka asoslanadi va o'z xulosalarini monopoliyalar hukmronlik qiladigan va narxlar oldingi elastikligini jiddiy yo'qotgan jamiyatga tegishli deb biladi.

Ko'pgina hozirgi iqtisodchilar ayirboshlash tenglamasini bir xillik, ya'ni $MV = PQ$ sifatida tavsiflashadi. Gap shundaki, bu tenglama P-T ayirboshlash harakatini tovarlarning jami massasiga daxldor deb ifodalashga urinadi, ya'ni tovarlar sotib olingan pullar summasi sotib olingan tovarlar narxlari summasiga teng (bir xil). Bu tavitologiyadir va shuning uchun ayirboshlash formulasi narxlarning umumiy (mutlaq) darajasini izohlash uchun xizmat qila olmaydi.

Miqdoriy nazariya tarafdorlarining faraz qilishicha, ayirboshlash formulasi mutlaq kattalikni EQ ni izohlaydi (ayni bir vaqtda talab va taklif mexanizmi undan nisbiy tebranishlarni izohlaydi).

I. Fisher va uning izdoshlari shunday nuqtayi nazarga amal qilishgan. Ular pullarning aylanish tezligi (V) va ishlab chiqarish darajasi (Q) muomalada yurgan pullar miqdoriga (M) va narxlar darajasiga (P) bog'liq bo'lmasligini asoslashga urinishgan. Ular pullarning aylanishi tezligi avvalo demografik (aholining zichligi va hokazo) parametrlarga bog'liq bo'ladi., deb faraz qilishgan. Ishlab chiqarish darajasi esa, asosan, mehnat bozorida yuzaga kelayotgan shart-sharoitlar bilan belgilanib, narxlar darajasi va muomalada yurgan pullar soniga bog'liq bo'lmaydi. Shubhasiz, bozor xo'jaligi hukmronlik qiladigan sharoitda bunday qoidalar yaqqol noreal tus kasb etadi.

3.3. Pulga talabning Keynes nazariyasi, likvidlilikning afzalligi nazariyasi

Rivojlangan mamlakatlarda pul massasini aniqlashda - M_1 ; M_2 ; M_3 ; M_4 deb belgilanadigan pul agregatlaridan foydalaniladi. Pul agregatlarining tarkibi va miqdori turli mamlakatlarda o'zaro farq qilish mumkin. Quyida umumlashtirib olingan pul agregatlari tarkibini keltiramiz: " M_0 - bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar va tijorat banklarining Markaziy bankdagi rezervlari; $M_1 = M_0 +$ muddatsiz depozitlar, yo'l cheklari va boshqalar; $M_2 = M_1 +$ (miqdori va muddati cheklangan) muddatli depozitlar va boshqalar; $M_3 = M_2 +$ (miqdori va muddati cheklanmagan) muddatli depozitlar va boshqalar" Makroiqtisodiy tahlilda M_1 va M_2 pul agregatlari eng ko'p foydalaniladi. Pul agregatlarining dinamikasi turli sabablarga bog'liq. Masalan, daromadlarning oshishi natijasida M_1 ga talab tezroq o'ssa, foiz stavkasining o'sishi natijasida M_2 va M_3 ga talab M_1 ga nisbatan tezroq o'sadi.

Pulga talabning Keynes nazariyasi, likvidlilikning afzalligi nazariyasi, pulni naqd ko'rinishda saqlashga kishilarni undovchi uch sababni ajratib ko'rsatadi:


1. Transaksiyon sabab (joriy bitimlar uchun naqd pulga talab);
2. Ehtiyotkorlik sababli (ko'zda tutilmagan holatlar uchun ma'lum miqdorda naqd pullarni saqlash);
3. Spekulyativ sabab (foйда olish maqsadida qimmatli qog'ozlar sotib olish uchun pulga talab). Spekulyativ sabab foiz stavkasi bilan obligatsiyalar kursi o'rtasidagi teskari bog'liqlikka asoslanadi.

Agar foiz stavkasi ko'tarilsa, obligatsiyalar bahosi pasayadi, ularga talab esa oshadi. Bu esa o'z navbatida, naqd pul zahiralarning qisqarishiga hamda naqd pullarga talabning pasayishiga olib keladi. Pul likvidlilik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun ham aholi uni saqlashni afzal biladi.

Likvidlilikning afzalligi nazariyasi ko'rsatadiki, pulga bo'lgan talab miqdori foiz stavkasiga bog'liq. Foiz stavkasi naqd pul vositalarini qo'lda ushlab turishning muqobil xarajatlari miqdorini, ya'ni siz foiz olib kelmaydigan naqd pullarni qo'lda ushlab turgan sharoitda yo'qotadigan pul miqdorini bildiradi. Nonning narxi non talabi miqdoriga ta'sir qilganidek, naqd pullarni qo'lda ushlab turish miqdori ham pul zahiralari talab miqdoriga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun foiz

stavkasi oshganda, insonlar boyliklarini naqd pul shaklida kamroq ushlab turishga harakat qiladi. Real pul zahiralari talab funksiyasini quyidagi ko‘rinishda yozamiz: $M/R = f(R)$ Bu tenglama ko‘rsatayaptiki, pulga bo‘lgan talab miqdori foiz stavkasi funksiyasi ekan. Grafikda foiz stavkasi va real pul zahiralari miqdoriga talab teskari bog‘liklikka ega ekanligi ko‘rinadi. Chunki, yuqori foiz stavkasi pulga talab miqdoring kamayishini ko‘rsatadi.

Klassik va keynschilarga xos yondashuvlarni umumlashtirib, pulga talabning quyidagi omillarini ajratib ko‘rsatish mumkin: 1) daromadlar darajasi; 2) pulning aylanish tezligi; 3) foiz stavkasi. Agar klassik nazariya pulga talabni, asosan, real daromad hajmi bilan bog‘lasa, keynschilarda esa pulga talab foiz stavkasiga bog‘liq deb hisoblanadi.



1- rasm. Pulga talab grafigi

Pulning aylanish tezligini hisobga olmaganda, real pul qoldig‘iga talab formulasi quyidagicha bo‘ladi: $(M/P) D = f(R, Y)$; Bu yerda: R – foiz stavkasi; Y – real daromad. Chiziqli bog‘liqlikni e‘tiborga olsak, quyidagicha formula hosil bo‘ladi: $(M/P)D = kY - hR$ Bu yerda: k va h – pulga talabning daromadlar va foiz stavkasiga ta‘sirchanligini ifodalovchi koeffitsiyentlar; k – foiz stavkasi (real foiz stavkasi). Real foiz stavkasi nominal foiz stavkasidan inflyatsiya sur‘atini ayirib topiladi. Daromad darajasining o‘zgarishi foiz stavkasi o‘zgarmas bo‘lgan sharoitda ham pulga talabning ko‘payishiga olib keladi. Bu grafikda pulga talab egri chizig‘ining siljishi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Likvidlilik tijorat banki faoliyatining muhim sifat ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, bankning ishonchliligi va barqarorligini ko‘rsatadi. Bankning likvidliligi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning majburiyatlarini

bajarish imkoniyati ham shunchalik yuqori bo‘ladi. “Likvidlilik” atamasi (lotincha “liquidus” – suyuq, oquvchan) moddiy qiymatlilarning osonlik bilan sotilishi va tez sur‘atlarda pul mablag‘lariga aylanishini ifodalaydi. Bank likvidliligini bankning omonatchilari va kreditorlari oldidagi majburiyatlarni o‘z vaqtida va yo‘qotishlarsiz bajarish qobiliyati sifatida talqin qilish adabiyotlarda ko‘p uchraydi[4]. Taniqli iqtisodchi olim J.Sinkining fikricha, likvidlilik tijorat banklari uchun depozitlarning qaytarilishiga va kreditga bo‘lgan talabni qondirishga tayyor turish uchun muhim sanaladi. Ayni paytda, kutilmagan pul oqimi bilan bog‘liq o‘zgarishlar bank likvidliligiga tahdid soladi². Rus professori O.I.Lavrushin tijorat banklarining likvidliligi uning moliyaviy turg‘unligi va barqarorligi, shuningdek: “bankning yetarli darajadagi kapitali mavjudligi, qulay joylashtirilishi va tegishli muddatni hisobga olib, bankning aktiv va passiv mablag‘lari kattaligi sifatida aniqlanadi” deb ta’kidlaydi³.

Nazorat uchun savollar

1. Pulga talab nazariyasi mohiyati nimalardan iborat?
2. Pulga talab nazariyasi Keynscha modelini tushuntirib bering.
3. Fisher tenglamasi mazmuni va undan qanday maqsadda foydalaniladi?
4. Fisher tenglamasi qanday ko‘rinishga ega?
5. Pul agregatlari deb nimalarga aytiladi?
6. Pulga talabning Keyns nazariyasi bo‘yicha kishilarning pullarini naqd ko‘rinishda saqlashga undovchi uchta sabab nimalardan iborat?
7. Pulga talab grafigi qanday ko‘rinishga ega?

² Банковское дело: учебник для вузов / под ред. О.И. Лаврушина. – М.: Финансы и статистика, 2000. – 140 с. 5.

³ Синки Ж. Управление финансами в коммерческом банке: Пер. с англ. – М.: Саталлаху, 1994. – 1548 с.

4-MAVZU. MARKAZIY BANKNING PUL MASSASIGA VA FOIZ STAVKASIGA TA'SIRI

4.1. Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari

Markaziy bankning monetar siyosatini asosiy instrumentlaridan yana biri bu – Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalaridir. **Ochiq bozordagi operatsiyalar (inglizcha – “Open market operations”)** - jahon amaliyotida pul muomalasini tartibga solishning asosiy vositalaridan biri hisoblanib, mamlakatdagi pul taklifi ustidan nazoratning eng moslashuvchan usuli hisoblanadi. Bunda Markaziy bank o‘z mablag‘lari hisobidan ochiq bozorda qimmatli qog‘ozlarni sotib olishi va sotishi mumkin. Ochiq bozorda amalga oshiriladigan operatsiyalarda katta miqdordagi xilma-xil qimmatli qog‘ozlar ishtirok etadi.

Markaziy bankning ochiq bozor siyosati shundan iboratki, qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan talab va taklifni tartibga solib, bunda tijorat banklarining qiziqishlarini uyg‘otishdir.⁴

Ochiq bozordagi operatsiyalar deganda Markaziy bankning o‘z mablag‘lari hisobidan ochiq bozordan qimmatli qog‘ozlarni sotib olishi va sotishi tushuniladi. Ochiq bozorda amalga oshiriladigan operatsiyalarda katta miqdordagi xilma-xil qimmatli qog‘ozlar ishtirok etadi. Ulardan eng asosiylari sifatida Davlat xazina majburiyatlari, Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO), sanoat obligatsiyalari hamda Markaziy bank tomonidan belgilangan boshqa qimmatli qog‘ozlarni ko‘rsatish mumkin.

Ushbu qimmatli qog‘ozlarning bir qismi pul bozoriga tegishli bo‘lsa, ikkinchi qismi kapitallar bozoriga tegishlidir. Masalan, Davlat xazina majburiyatlari pul bozoriga tegishli bo‘lsa, sanoat obligatsiyalari va DQMO kapitallar bozoriga tegishlidir.

Ko‘pchilik rivojlangan xorijiy davlatlarda, xususan, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya va Fransiyada Markaziy bankning qimmatli qog‘ozlarni emitentning o‘zidan bevosita sotib olishi ochiq bozor operatsiyasi hisoblanmaydi, balki kreditlash hisoblanadi. Masalan, hukumatning qimmatli qog‘ozlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotib

⁴I.Butikov “Qimmatliqog‘ozlarbozori”. T.: Konsauditinform 2001 y.

olish Davlat budjetini kreditlash hisoblanadi. Hukumatning qimmatli qog'ozlari kursini saqlash maqsadida amalga oshiriladigan joriy operatsiyalar ham ochiq bozor siyosatiga kirmaydi.

Ochiq bozor siyosatini amalga oshirishning keng tarqalgan vositasi Davlat qimmatli qog'ozlari bilan ikkilamchi bozorda amalga oshiriladigan operatsiyalardir.

Markaziy bank ochiq bozorda operatsiyalar amalga oshirish yo'li bilan bank tizimining zaxiralarga ikki usul bilan ta'sir qilishi mumkin:

1. Agar Markaziy bank kredit institutlarining ixtiyoridagi pul massasini ko'paytirishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, unda u ochiq bozorda qimmatli qog'ozlarni sotib oluvchi bo'lib qatnashadi. Bunda u qimmatli qog'ozlarga qat'iy belgilangan kurs o'rnatishi va kurs o'sha darajaga yetishi bilan taklif qilingan barcha qimmatli qog'ozlarni sotib olish yo'lidan foydalanishi mumkin. Yoki taklif qilingan paytdagi kursidan qat'i nazar, ma'lum turdagi qimmatli qog'ozlarni sotib olish miqdorini belgilashi mumkin.

2. Agar Markaziy bank bank tizimining zaxiralarni kamaytirishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, unda bozorda sotuvchi bo'lib ishtirok etadi. Bunday holatda ham Markaziy bank quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi:

– Markaziy bank ma'lum kursni e'lon qilishi va qimmatli qog'ozlarning kursi o'sha darajaga yetishi bilan istalgan miqdordagi qimmatli qog'ozni sotish majburiyatini olishi mumkin;

– Markaziy bank qo'shimcha tarzda ma'lum miqdordagi qimmatli qog'ozlarni taklif qilishi mumkin. Ochiq bozor siyosati bunday yo'sinda amalga oshirilganda davlatning qimmatli qog'ozlaridan keladigan daromadi ko'payadi. Buning natijasida kredit institutlarining Davlat qimmatli qog'ozlariga bo'lgan qiziqishi ortadi, oqibatda tijorat banklarining kredit resurslari imkoniyati kamayadi va bank kreditining foiz stavkalari oshadi. Foiz stavkalarining shu yo'sinda o'sishi Markaziy bankni qoniqtirmasa, u yana qimmatli qog'ozlarni sotib olishi mumkin. Bu holatni Nemis Federal bankining tajribasidan yaqqol kuzatish mumkin.

Bundesbank tomonidan ochiq bozorda qat'iy foizli qimmatli qog'ozlarni sotib olish 1975-yilning ikkinchi yarmiga kelib o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Bu vaqtda Bundesbank banklarning

likvidligini ta'minlash va foiz stavkalarini o'zi uchun maqbul bo'lmagan darajada o'sib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida 7,5 mlrd. nemis markasi miqdoridagi summaga zayomlar sotib olgan edi. 1976-yilda Bundesbank, aksincha, bunday zayomlarni juda katta miqdorda sotdi. Buning boisi shundaki, qat'iy, foizli qimmatli qog'ozlar kursining oshishi natijasida foizlarning pasayish jarayonini to'xtatib qo'ymasdan turib, bozordan katta summadagi likvidlikni olib qo'yish zarur edi. Faqat 1976-yil davomidagina Bundesbankning qimmatli qog'ozlar portfeli 6,5 mlrd. markaga kamaydi.

Hozirgi kunda, mamlakatimizda davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish, joylashtirish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha imkoniyatlar mavjud bo'lib, bu borada yetarlicha tajriba shakllangan.

Xalqaro amaliyotda davlat qimmatli qog'ozlarining doimiy muomalada bo'lishi nafaqat davlat budjeti defisitini moliyalashtirishning maqbul yo'li, balki mamlakat moliya bozorini rivojlantirishning muhim instrumenti bo'lib hisoblanadi.

O'z navbatida, Markaziy bank ochiq bozor operatsiyalarini faollashtirish maqsadida 2018-yildan davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish borasida Moliya vazirligi bilan tegishli tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. Bunda, bozorning foiz stavkalari va bank tizimida (tijorat banklari)gi likvidlik darajasiga ta'sir ko'rsatish, shuningdek, iqtisodiyotdagi pul massasi hajmi o'zgarishini muvozanatlashtirish maqsadida Markaziy bank ochiq bozorda davlat qimmatli qog'ozlarini, shuningdek, o'zi chiqargan **obligatsiyalarni** hamda boshqaruv qaroriga ko'ra boshqa **qimmatli qog'ozlarni** sotib olishi va sotishi mumkin.

Markaziy bank tijorat banklaridan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish, ya'ni sotib olish orqali bank tizimi likvidligi miqdorini oshiradi. Aksincha, qimmatli qog'ozlarni sotish esa teskari ta'sirga ega bo'lib, bu tijorat banklari likvidligini qisqarishiga olib keladi. Ushbu operatsiyalar Markaziy bank hamda tijorat banklari o'rtasida kechadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Markaziy bank tomonidan qimmatli qog'ozlarning sotilishi bank tizimi likvidligini qisqartirishi, qimmatli qog'ozlarning sotib olinishi esa bank tizimi likvidligini oshirishi mumkin.

4.2. Markaziy bankning valyuta siyosati va uning ko‘rinishlari

Valyuta tizimi bu – xo‘jalik aloqalarining baynalminallashuvi asosida tarixan shakllangan, valyuta amali bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir.

Valyuta tizimini valyuta, valyuta munosabatlari, valyuta munosabatlarini amalga oshiruvchi va ularni tartibga soluvchi hamda muvofiqlashtiruvchi organlar yig‘indisi sifatida ham ko‘z oldiga keltirish mumkin.

Valyuta tizimining mohiyati, tashkil etilish shakllari va roli jamiyat iqtisodiy tuzumi bilan belgilanadi.

Valyuta tizimi 3ga bo‘linadi, ya‘ni milliy, jahon va hududiy valyuta tizimlari.

Valyuta siyosati maqsad va shakliga ko‘ra tarkibiy hamda joriy shakllarga bo‘linadi. Tarkibiy valyuta siyosati jahon valyuta tizimi tarkibini o‘zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli tadbirlar majmuyidir. Ular barcha mamlakatlarning maqsadlariga to‘g‘ri keladigan, alohida valyutalarni shakllantirishga qarshi qaratilgan valyuta tadbirlari orqali amalga oshiriladi. Tarkibiy valyuta siyosati joriy valyuta tizimiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Joriy valyuta siyosati valyuta kursi, valyuta operatsiyasi, valyuta bozorining faoliyati va oltin bozorini qisqa vaqtda tezkorlik bilan boshqarishdir. Valyuta siyosatining quyidagi ikki shakli mavjud: diskont va deviz siyosati. *Uning ko‘rinishlari* – valyuta intervensiyasi, valyuta zaxiralarini diversifikatsiyalash, valyutaviy cheklashlar, valyuta kursining tartibi, devalvatsiya, revalvatsiya.

Diskont siyosati bu Markaziy (Milliy) banklarning foiz stavka siyosati bo‘lib, u valyuta kursiga ikki tomonlama ta‘sir etish maqsadida olib boriladi. Foiz stavkasini oshirish bilan xorijiy investor mablag‘lari mamlakat ichkarisiga jalb etiladi, valyuta oqimini kuchaytiradi, shu bilan birga inflyatsiya jilovlanadi va milliy valyuta qadri oshadi. Foiz stavkasi tushganida aksincha holat kuzatiladi. Diskont siyosati, asosan, kapital oqimi erkinlashtirilganida samara berishi mumkin.

Valyuta siyosatining bu shaklidan rivojlangan mamlakatlar to‘lov balansini muvozanatlash maqsadida olib borishadi.

Ushbu jadvaldan ko‘rib turganimizdek, keltirilgan mamlakatlarda foiz stavkalari turli darajada belgilangan. AQSH va Buyuk Britaniyada

uzoq yillardan beri (1960 – yil oxirlaridan boshlab) to'lov balans defisiti kuzatilib kelmoqda, aksincha, Yaponiya va Yevropaning bir qator yetakchi davlatlari profisit to'lov balansiga ega. To'lov balansining defisiti, albatta, salbiy holat bo'lsada, profisitni ham ijobiy deb bo'lmaydi. Shu bois, jadval ma'lumotlarida ham aks etayotganidek, to'lov balans defisitiga ega davlatlar foiz stavkasini boshqalarga nisbatan oshirishadi, o'z navbatida profisit kuzatilayotgan davlatlar kapital eksportini amalga oshirish bilan foiz stavkasini tushirishadi.

Milliy valyuta tizimi – mamlakat pul tizimining tarkibiy qismi bo'lib, valyuta munosabatlarining yig'indisi sifatida maydonga chiqmaydi, balki ushbu munosabatlarning faqat qonunchilik aktlari bilan tashkil etilish tartibini belgilaydi. Valyuta munosabatlarini tashkil etishning bunday tartibi birinchi navbatda valyuta tizimi elementlarini belgilashni o'z ichiga oladi.

Milliy valyuta tizimining qonunchilik asosida belgilanadigan elementlariga quyidagilar kiradi:

- 1) milliy valyuta va uning nomi;
- 2) milliy valyuta paritetini belgilash;
- 3) milliy valyutaning konvertatsiya shartlari;
- 4) milliy valyuta kursining rejimi;
- 5) xalqaro kredit muomala qurollaridan foydalanishni chegaralash;
- 6) xalqaro zahira aktivlari tarkibiy qismlari o'rtasidagi nisbatni aniqlash;
- 7) mamlakat xalqaro hisob-kitoblarini chegaralash (reglamentatsiya);
- 8) milliy valyuta va oltin bozorlari faoliyati rejimi;
- 9) valyuta cheklanishlarining o'rnatilish tartibi;
- 10) valyuta munosabatlariga xizmat ko'rsatuvchi va ularni muvoqilash tiruvchi milliy organlar maqomi.

Yuqorida zikr etilgan elementlar yig'indisi, xalqaro valyuta-kredit va hisob-kitob munosabatlarini amalga oshirish uchun davlat tomonidan belgilanadigan valyuta mexanizmidir.

Valyuta kursi – bu, bir valyutaning boshqa bir valyutadagi bahosi yoki xorijiy valyutaning milliy valyutadagi ifodasidir. Masalan, O'zbekiston Respublikasida 1 AQSH dollari = 1530 so'm yoki Rossiyada 1 AQSH dollari = 30,35 rubl.

Valyuta kursi pulning xalqaro harakati jarayoniga taalluqli va umumiy asosda milliy iqtisodning jahon xo‘jaligi bilan aloqalarini ifodalaydi.

Valyuta kursining zarurati quyidagilarda aks etadi:

➤ Tovar va xizmatlar savdosi, kapital va kreditlar harakatida valyutani o‘zaro almashtirish;

➤ Milliy va jahon bozorlarida narxlarni hamda turli mamlakatlarda milliy va xorijiy valyutada ko‘rsatilgan qiymat ko‘rsatkichlarini taqqoslash;

➤ Firma va banklar tomonidan xorijiy valyutadagi hisob varaqlarini davriy qayta hisoblash.

Tashqi jihatdan, valyuta kursi bozor ishtirokchilariga talab va taklif asosida aniqlanadigan, bir valyutani boshqasiga qayta hisoblashda qo‘llaniladigan koeffitsiyent sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo valyuta kursining asosiy qiymati bo‘lib, valyutalarning xarid qobiliyati hisoblanadi.

Valyuta kurslari rejimi. Xalqaro amaliyotda valyuta kursining quyidagi rejimlari mavjud:

- qat’iy belgilangan kurslar rejimi. Davlat o‘z iqtisodiy siyosatidan kelib chiqqan holda, ma‘muriy tarzda, milliy valyuta kursini qat’iy belgilab qo‘yishi mumkin. Masalan, Bretton-Vuds sharoitidagi qat’iy belgilangan kurslar rejimi;

- kichik chegaralarda tebranadigan kurslar rejimi. Bu holatda, davlat o‘z iqtisodiy manfaatlardan kelib chiqib, milliy valyuta kursini ma‘lum bir chegaralarda tebranishidan manfaatdor bo‘ladi va valyuta siyosatining instrumentlaridan foydalangan holda ushbu maqsadga erishadi;

- valyutaga bo‘lgan bozor talabi va taklifining o‘zgarishi asosida erkin tebranadigan kurslar rejimi va ularning turli ko‘rinishlari. Bunga Yamayka valyuta tizimi sharoitidagi erkin suzuvchi valyuta kurslari rejimini misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida. Markaziy banklarni tashkil etishdan asosiy maqsad muomalaga pul birliklari chiqarilishini markazlashtirish va muomaladagi pul hajmini tartibga solishdan iborat edi. Markaziy bank tashkil etilishiga qadar kapitalizmning dastlabki davrida mamlakatdagi tijorat banklarining barchasi muomalaga o‘z banknotalarini chiqarish huquqiga ega edi. Banknota – bu, ushbu bankning undagi ko‘rsatilgan miqdordagi pulni real, haqiqiy pulga xohlagan paytda almashtirib berishi to‘g‘risidagi majburiyatidir.

Odatda, Markaziy bankning tashkil etish shakllari deganda ularning faoliyat yuritishi uchun lozim bo'lgan ustav kapitalining shakllanish manbalari e'tiborga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 1992-yil 28-fevralda tashkil etilishgan.

1995-yil 21 dekabrda «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida» qonun qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ustav kapitali miqdori ikki milliard so'mdan iborat. Ustav kapitali miqdori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qaroriga muvofiq oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki davlatning mutlaq mulkidir.

Markaziy bank mustaqilligining obyektiv omillari sifatida, asosan, quyidagilar tan olinadi:

- Markaziy bank kapitalida davlatning ulushi;
- Markaziy bank vazifalarining qonunchilikda yoritilish darajasi;
- Markaziy bank rahbari (Raisi) va uning o'rinbosarlarini tayinlash (saylash) tartibi va ularning faoliyat ko'rsatish muddatlarining qonun hujjatlarida to'liq, aniq aks ettirilishi hamda ushbularga rioya etish darajasi;
- Davlat tomonidan Markaziy bank faoliyatini nazorat qilish shakllari;
- Markaziy bank rahbariyati tomonidan qabul qilingan qarorlariga davlat organlarining qonun asosida ta'sir ko'rsatish ko'lamlari va Markaziy bankning pul-kredit siyosatlarini hayotga tadbiiq etishda hukumatning ishtiroki;
- Markaziy bank moliyaviy faoliyatida davlatning roli, ya'ni uning daromadlarini tashkil etish, harajatlarini amalga oshirish va foydasini taqsimlashda davlatning ishtiroki;
- Mamlakat budjetini to'g'ri va egri moliyalashtirishda Markaziy bankning ishtirokini belgilovchi jihatlarning qonun hujjatlarida aks ettirilishi.

2012-yilga mo'ljallangan monetar siyosat va bank tizimining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisida «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»

mavzusidagi dasturiy ma'ruzasida belgilangan ustuvor vazifalar asosida ishlab chiqilgan.

Markaziy bank – kredit tizimining bosh banki bo'lib, mamlakatda pul-kredit siyosatini, emissiya jarayonlarini olib boradi.

Birinchi Markaziy banklar bundan qariyb uch yuz-yil oldin tijorat banklarining rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Bular 1668-yilda tashkil qilingan Shved Riks Jiro banki, 1694-yilda tashkil qilingan Angliya banklaridir.

Yevropa mamlakatlarida Markaziy banklar ancha kechroq, asosan, XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab faoliyat ko'rsata boshlagan.

Banklar paydo bulishining boshlang'ich davrlarida ular markaziy (emissiya) yoki tijorat banklari tariqasida yuzaga kelgan emas, ya'ni banklar o'rtasida hozirgidek bo'linish bo'lmagan. Bank ishi rivojlanishining birinchi bosqichlarida rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklari kapitallarni yig'ish maqsadida muomalaga banknotlar chiqarganlar. Banklarning yiriklashuvi, bank ishining rivojlanishi natijasida banknotalarni muomalaga chiqarish yirik tijorat banklar qo'liga o'ta borgan va keyinchalik biror yirik bank ixtiyoriga berilgan. Bu bank milliy yoki emission bank keyinchalik markaziy bank deb atalgan. Markaziy bank, ya'ni kredit tizimini boshqarib turuvchi, barcha banklar faoliyatini nazorat qilib turuvchi kredit instituti sifatida namoyon bo'ladi.

Jaon amaliyotida markaziy banklar vujudga kelishining ikki asosiy yo'li mavjud: Birinchi yo'l – bu uzoq davr davomida tijorat banklarining rivojlanishi natijasida, ularni milliy lashtirish yo'li bilan Markaziy banklarning tashkil qilinishi. Bunga misol qilib, Angliya bankini (1844-yil), Fransiya bankini (1848-yil), Ispaniya banki (1874-yil), Germaniya Reyxsbanki (1875-yil), Italiyada (1893-yil), Ispaniyada (1874-yil) mavjud banklarning emission markaz sifatida faoliyat ko'rsatishga moslashganligini keltirish mumkin.

Ikkinchi yo'l tashkil qilingandayoq Markaziy bank – emission markaz sifatida qabul qilingan. Bunday banklarga AQSHning Federal banklari, 1913-yillarda ko'pgina Lotin Amerikasi mamlakatlarida tashkil qilingan banklar, Avstriya banki va boshqalarni misol keltirish mumkin.

AQSHda Markaziy bank funksiyasini 12 ta Federal Zaxira banklaridan iborat Federal Zaxira tizimi bajaradi. Federal Zaxira

banklar aksioner banklar bo'lib, bu banklarning aksionerlari sifatida milliy tijorat banklari faoliyat ko'rsatadi. Tijorat banklar aksioner sifatida dividend olishadi.

Markaziy banklar ijrochi tashkilotlar ta'siriz, o'z faoliyatini olib borishlari kerak. Jahonda o'z faoliyatini olib borishda eng mustaqil bo'lgan banklardan biri, bu Nemis Federal banki va Bundes banki hisoblanadi. Ba'zi bir davlatlarda Markaziy bank Parlamentga hisobot beradi. Ko'pgina hollarda Markaziy banklar o'z faoliyatida mustaqil bo'lsa-da, shu bilan birga, davlat banki hisoblanadi:

Markaziy bank quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

- banknotlar (naqd pullar) emissiyasi;
- davlatning oltin valyuta-zaxiralarini saqlash;
- pul-kredit siyosati instrumentlari yordamida iqtisodiyotni muvofiqlashtirish;
- kredit institutlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- davlat banki sifatida faoliyat ko'rsatish;
- to'lov-hisob munosabatlarini tashkil qilishni belgilab berish;
- valyuta kursini muvofiqlashtirish.

Jahonning barcha mamlakatlarida banknotalarni muomalaga chiqarish funksiyasi markaziy banklarning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi va bu sohada monopol huquqqa ega. Kredit pullar Markaziy bank tomonidan qonunda belgilangan ravishda chiqariladi va Markaziy bank muomalaga chiqarilgan pullarning qaytib bankka kelib tushishi choralarni ishlab chiqishi zarur.

Nazorat uchun savollar

1. Markaziy bankning ochiq bozordagi siyosati deganda nimani tushunasiz?
2. Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalarining tijorat banklariga ta'sirini tushuntirib bering.
3. Markaziy bankning valyuta siyosatining shakllari qanday?
4. Milliy valyuta tizimining elementlariga nimalar kiradi?
5. Markaziy bankning paydo bo'lishi haqida nimalarni bilasiz?
6. Markaziy bankning asosiy funksiyalarini sanab bering.

5-MAVZU. PUL-KREDIT SIYOSATI

5.1. Pul-kredit siyosatiga ta'sir etuvchi neokeynschilar nazariyasi

Neokeynschilar nazariyalari. J.M.Keynsning izdoshlari o'tgan asrning 50-60-yillarida uning nazariyasiga dinamik elementni joriy etdilarki, bu narsa ularga iqtisodiy o'sish nazariyasini yaratishga imkon berdi. Bu nazariyada ko'pgina mamlakatlarning iqtisodchilari (AQSHdan – A.Xansen, S.Xarris; Buyuk Britaniyadan – R.Xarroddan, A.Ilersik, A.Pikoq Fransiyadan – F.Perru; Germaniyadan – F.Neymark va boshqalar) tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy konsepsiya muhim o'rinni egallaydi. Ular fiskal antisiklik nazariyaning yaratilishini nihoyasiga yetkazdilar. Bu nazariyaning mohiyati balanslashtirilgan iqtisodiy taraqqiyot maqsadlari uchun davlat daromadlari va xarajatlaridagi o'zgarishlarga borib taqaladi.

Neokeynschilar samarali talabga erishishning usuli sifatida "defisitli moliyalashtirish" g'oyasini himoya qildilar. Ular davlat qarzlarining o'sishini inobatga olmagan (davlat qarzlarini o'sishi bilan hisoblashmagan) holda davlat katta xarajatlarining zarurligini isbotlab berdilar. Biroq xronik xarakter kasb etgan katta miqdordagi budjet defisitlari iqtisodchi-olimlarning ma'lum bir guruhini, shu jumladan, Stokgolm maktabi vakillarini (E.Lindal, G.Myurdal va boshqalar), budjetga oid muammoni yangicha hal etishga majbur etdi. Bu maktab vakillari "budjetni siklik balanslashtirish", ya'ni budjet daromadlari va xarajatlarini iqtisodiy siklga moslashtirish nazariyasini taklif etdilar. Bu nazariyaga muvofiq iqtisodiy tanazzul paytida vujudga kelgan budjet defisitini davlat iqtisodiy o'sish (ko'tarilish) davridagi ortiqchalar hisobidan qoplashi kerak.

Ana shu tavsianomalarga rioya etgan holda bir necha kapitalistik mamlakatlarning hukumatlari siklik tartibga solishning maxsus pul fondlarini yaratdilar. Bu pul fondlarining mablag'lari iqtisodiyotning o'sishi (ko'tarilishi) davrida to'ldirilgan va ishlab chiqarishning iqtisodiy qisqarishi davrlarida esa ulardan foydalanilgan. Xo'jalikni rag'batlantirish va uni tartibga solish uchun davlat budjetidan faolroq foydalanish borasidagi neokeynschilarning talablari "tizilgan budjet stabilizatorlari" nazariyasida o'z aksini yanada yaqqolroq topdi. Bu

nazariyaning asosida “solih stabilizatorlari” to‘g‘risidagi keynscha qarashlar yotgan edi.

J.M.Keynsning fikricha, “solih stabilizatorlari” siklik tebranishlarni tartibga solib, ularni biroz yumshatib va ularda ma‘lum bir o‘zgaruvchanlikni ta‘minlab, avtomatik tarzda amal qilishi kerak edi.

Neokeynschilar uni “boshqariluvchan stabilizatorlar” bilan, ya‘ni yangi iqtisodiy sharoitlarga muvofiq ravishda davlatning doimo o‘zgarib turadigan solih tadbirlari bilan to‘ldiradilar. Yangi mumtoz nazariyalar. Ikkinchi Jahon urushidan keyingi yillarda yangi keynschilarning nazariyalari bilan bir qatorda davlat tomonidan tartibga solishni cheklash orqali erkin tadbirkorlik g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi yangi mumtoz nazariyalar ham jonlandi. Yangi mumtoz maktabning nazariyotchilari (AQSHda R.Slou, J.Kenriq Buyuk Britaniyada – A.Robbins, J.Mid) iqtisodiyotga davlatning aralashmasligi asosiy prinsipini himoya qilib, bir vaqtning o‘zida maorif va fanga sarf qilindigan xarajatlar salmog‘ini oshirish orqali ularning tarkibiy tuzilmasini o‘zgartirib, davlat xarajatlari umumiy hajmining qisqartirilishini yoqlab chiqdilar. Shuningdek, “inson kapitaliga investitsiyalar”ga alohida e‘tibor qaratildi.

Bir vaqtning o‘zida, 8 soliqlarning darajasini pasaytirish taklif etildi va defitsitsiz budjetga erishilishi talab qilindi. Takror ishlab chiqarish sharoitlarining yomonlashuvi va inflyatsion tendensiyalarning (oqimlarning) kuchayishi bilan iqtisodiy qiyinchiliklar uchun javobgarlik yuklatilgan keynschilik va yangi keynschilik qoidalarini tanqid qilish ham kuchaya bordi. Ana shunday murakkab iqtisodiy vaziyatda yangi mumtoz maktabdan “taklif iqtisodiyoti” nazariyasini ishlab chiquvchi yangi konservativ yo‘nalish (AQSHda – G.Steyn, M.Ueydenbaum; Buyuk Britaniyada – J.Xau, A.Uolters) ajralib chiqdi.

Bu yo‘nalishning moliyaviy konsepsiyasi iqtisodiy o‘sishning jamg‘armalar va jamg‘arma bilan belgilanishiga asoslanadi. Davlat solih tizimi orqali mamlakatda investitsiyalarning yetarililigini ta‘minlash uchun jamg‘armalarni shakllantirishda yetarli shart-sharoitlarni yaratishi kerak. Davlat va uning moliya tizimiga ilmiy-texnika taraqqiyotini rag‘batlantirish vazifasi yuklatildi. Moliyaga iqtisodiy o‘sishni uzoq muddatli rag‘batlantirishni ta‘minlash birlashtirildi. Umumiy tarzda, bu jarayonlarda davlatning roli minimallashtirildi. Bu nazariya mualliflarining ayrimlari davlatga “kechgi qorovul va

politsiyachi” funksiyalarini berish bilan cheklanishni taklif etdi. Boshqa nazariyalar bilan bir qatorda “taklif iqtisodiyoti” nazariyasida soliqlarga faxriy o‘rin ajratilgan. Uning vakillari soliqlarni qisqartirish tarafdori.

Biroq soliqlarni antisiklik konyunkturaviy tartibga solishning vositasi sifatida qaragan keynschilardan farqli o‘laroq, ular jamg‘armalar va investitsiyalarning yuqori darajasini qo‘llab-quvvatlash uchun soliq undirmalarining darajasini pasaytirishni talab etdilar.

Amerikalik iqtisodchi A.Lefferning soliq konsepsiyasi ham keng mashhurlik kasb etdi. U grafik model asosida soliqlarning yuqori stavkalari iqtisodiy o‘shishning sur‘atlarini pasaytiradi, degan xulosaga keldi. Bu olimning tavsiyalari 1980 – 1990-yillarda dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida amalga oshirilgan soliq islohotlarining negizini (asosini) tashkil qildi.

Postkeynschilar nazariyalari.

Yangi mumtoz maktab vakillari nazariyalarining ma’lum darajada rivojlangan bo‘lishiga qaramasdan keynschilar ta’limoti yangi sharoitlarga muvofiq rivojlanishda davom etmoqda. 1970-yillarda postkeynschilar yo‘nalishi shakllandiki, uning yirik namoyandalari qatoriga AQSHda X.Minskiy, R.Klauer, Buyuk Britaniyada – N.Kaldor, G.Shekl va boshqalarni kiritish mumkin. Bu yo‘nalish ham yangi keynschilarning va ham yangi maktab vakillarining asosiy qoidalarini tanqid ostiga oldi. Postkeynschilar nazariyasining asosini hamon moliya mexanizmi yordamida davlat aralashuvini kengaytirish g‘oyasi yotmoqda. Moliyaviy siyosat asosiy siyosatga aylanmog‘i va u monopoliyalar faoliyatini cheklashga hamda harbiy xarajatlarni qisqartirishga yo‘naltirilgan bo‘lmog‘i lozim. “Daromadlar siyosati”da ular sotsial islohotlarni amalga oshirish va sotsial muammolarni hal etish 9 tarafdorlari sifatida maydonga chiqmoqdalar. Ularning fikricha, eng yaxshi soliqqa tortish metodi bu xarajatlarni soliqqa tortishdir.

Ingliz tadqiqotchisi N.Kaldor daromad solig‘ini iste‘mol solig‘i bilan almashtirish g‘oyasini rivojlantiradi. U iste‘mol solig‘ini shaxsiy xarajatlarni qondirishga sarflanadigan daromadlarning bir qismini soliqqa tortish sifatida talqin qiladi. Uning nazarida, bu chora jamg‘arishni rag‘batlantirishi va inflyatsiyaning darajasini pasaytirishi mumkin. N.Kaldorning fikri G‘arb olimlari tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanildi. Ular ham soliq tizimini xarajatlardan olinadigan yagona

solliqqa soddalashtirish tarafdori bo'lib, fuqarolarning faqat iste'mol xarajatlari soliqqa tortilishi kerak.

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida iqtisod ilmi, yaxlit holda bozor tizimini, biznes qonunlarini, iqtisodiyotning har qanday sohasidagi amaliy faoliyatni afzal ko'rmoqda. Bir vaqtning o'zida esa, amerikalik mashhur olimlar K.R.Makkonnell va S.L.Bryular o'zlarining "Ekonomiks. Prinsiplar, muammolar, siyosat" asarida yozganlaridek, moddiy ehtiyojlar cheklanmagan, resurslar esa (kapital, yer, mehnat, tadbirkorlik qobiliyati va boshqalar) aksincha, cheklangandir.

Shuning uchun ham iqtisodiyot taraqqiyotining turli davrlarida uning darajasi turlicha bo'lishiga qaramasdan iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish doimiy ravishda talab qilinadi. Yuqoridagi har ikkala muallif taklifga yo'naltirilgan fiskal siyosatni qo'llab-quvvatlaydilar. Fiskal siyosat esa jami talabga va soliqlarni o'zgartirish orqali esa taklifga ham ta'sir ko'rsatadi. Budjetdan transfert to'lovlari va soliq tizimi, bu olimlar fikricha, turli iqtisodiy vaziyatlarda talab qilingan muvozanatni ta'minlashi mumkin. Xorijiy mamlakatlarning zamonaviy moliya fanida, turli maktablar o'rtasida doimiy ravishda munozaralar va farqlanuvchi fikrlar bo'lishiga qaramasdan, konvergensiya jarayoni kuzatilmoqda. Masalan, keynschilar nazariyasida qarashlar yangi mumtoz maktab vakillarining qarashlariga va yangi mumtoz nazariyalar esa keynschilar nazariyalaridagi qarashlarga kirib bormoqda.

Bu, eng avvalo, barcha nazariyalarda mavjud bo'lgan moliya-kredit-pul mexanizmiga tegishlidir. Barcha nazariyalar mamlakatning xo'jalik hayotiga ta'sir ko'rsatish uchun bu instrumentlarni tadqiq etish zarur ekanligini bir ovozdan tan oladilar, so'zsiz e'tirof etadilar. Holbuki, bunday ta'sir choralari, ulardan foydalanish instrumentlari va vaqtlari bir-biriga mos tushmasligi mumkin. Xorijiy mualliflar moliyaviy konsepsiyalarining tahlili quyidagi yakuniy xulosalarni chiqarishga imkon beradi: moliya sohasidagi qarashlar tizimi umumiqtisodiy nazariyaning ma'lum bir qismi hisoblanadi, ular moliya fanini boyitadi va rivojlantiradi; moliyaviy konsepsiyalarning vujudga kelishi mamlakat makro- va mikroiqtisodiyotining talablariga javob reaksiyasidir yoki ma'lum 10 hukmron sotsial guruhlar buyurtmasining bajarilishidir (ijro etilishidir); xorijiy olimlarning progressiv moliyaviy g'oyalari iqtisodiy o'sishning yetarli yuqori darajasini ta'minlab, insonning turli-tuman ehtiyojlarini qondirishda jamiyatga yordam beradi.

5.2. Pul kredit va fiskal siyosatining o‘zaro bog‘liqligi

Har bir mamlakat iqtisodiy siyosatining bosh maqsadi makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash hisoblanib, makroiqtisodiy siyosatning asosiy vazifalari pul-kredit va soliq-budjet siyosati sohasidagi vositalarni qo‘llash orqali noinflyatsion, barqaror iqtisodiy o‘shishga erishishni nazarda tutadi. Ikkala asosiy manfaatdor tomonlarning siyosatni qo‘llash natijalari ko‘pincha ziddiyatli ko‘rinish kasb etadi. Shuning uchun pul-kredit va soliq-budjet siyosati organlari o‘rtasida muvofiqlashtirish mexanizmiga ehtiyoj iqtisodiy siyosatning istalgan yakuniy maqsadlariga erishish uchun zarur hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturining uchinchi yo‘nalishi “Iqtisodiyotni rivojlantirish va faol investitsiya jalb etishning ustuvor yo‘nalishlari”da makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini saqlab qolish vazifasi belgilangan, bunda eng avvalo:

- qo‘shimcha imkoniyat va manbalar hisobidan budjet defisitini kamaytirish;

- budjet mablag‘laridan samarali foydalanish tizimini yanada takomillashtirish;

- Monetar siyosatni takomillashtirish, Hukumat va Markaziy bankning narx-navo barqarorligini ta’minlash bo‘yicha konsepsiyasini ishlab chiqish chora-tadbirlarini ro‘yobga chiqarish belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan tasdiqlangan 2019 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida tarkibiy islohotlar asosiy yo‘nalishlarining «Yo‘l xaritasi» da makroiqtisodiy institutlarni kuchaytirish va makroiqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish vazifalari belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil sentabrdagi “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida “Umumiqtisodiy, soliq-budjet va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish amaliyotini takomillashtirish, bunda iqtisodiy o‘shish, davlat budjetining balanslashganligi va iqtisodiyotdagi narxlar darajasining barqarorligi bo‘yicha o‘zaro harakatlar va

maqsadlarning kelishilganligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish" - bosqichma-bosqich inflatsiyaviy targetlash rejimiga o'tish yo'llaridan biri sifatida taklif etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora- tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida "Monetar va fiskal siyosatni muvofiqlashtirish hamda Davlat budjetining mutanosibligini ta'minlash orqali pul massasi haddan ziyod o'sishining oldini olish" - valyuta bozorini yanada liberallashtirish sohasida davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

Mamlakatimizda monetar va fiskal siyosatni muvofiqlashtirish bilan bog'liq yuqorida belgilangan vazifalar yurtimizda ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish zarurati mavjudligini ko'rsamoqda. Aslida jahon ilm-fanida ham monetar va fiskal siyosat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tadqiq etgan ko'plab ilmiy izlanishlar mavjud bo'lsa-da, zamonaviy sharoitlarda noan'anaviy pul-kredit siyosatining fiskal siyosat bilan qanday bog'liqlikda amal qilayotganiga juda oz e'tibor berilgan.

Bundan tashqari, pul-kredit va fiskal siyosatning o'zaro bog'liqligi bo'yicha empirik tadqiqotlar juda cheklangan darajada amalga oshirilgan. Monetar va fiskal siyosatni muvofiqlashtirish masalalari doimo iqtisodiy izlanishlarning diqqat markazida bo'lgan. Ularning ba'zilariga to'xtalib o'tamiz. Olimlar Muskatelli V.A., Tirelli P. va Trekrochi o'zlarining "Fiscal and monetary policy interactions: empirical evidence and optimal policy using a structural New-Keynesian model" nomli maqolasida neokeynscha dinamik umumiy muvozanat modeli yordamida AQSH uchun pul-kredit va soliq-budjet siyosatining o'zaro aloqadorligini o'rganishgan.

Ularning xulosasi, avvalgi VAR (vector autoregression) modellaridagi ishlardan farqli o'laroq, fiskal pul-kredit siyosatining strategik yaxlitligi yoki almashinuvi iqtisodiyotga ziyon yetkazadigan shoklarning turlariga va asosiy tizimli modelga doir taxminlarga juda bog'liqligini ko'rsatadi. Agar fiskal va pul-kredit siyosatining qoidalari inersion va muvofiqlashtirilmagan bo'lsa, pasaytiriluvchi (ushlab turiluvchi) fiskal siyosat farovonlik darajasini pasaytirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Iqtisodchi olim Kokreyn o'zining "Understanding policy in the great recession: some unpleasant fiscal arithmetic" nomli maqolasida 2008 –

2009-yillardagi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va undan keyingi davrda fiskal va pul-kredit siyosatini sharhlash uchun davlat qarzlarini baholash tenglamasidan foydalangan. Shuningdek, u deflyatsiyani oldini olish uchun siyosatning muqobil variantlarini va fiskal bosim qanday inflyatsiyaga olib kelishi mumkinligini o'rgangan. Uning xulosasiga ko'ra, Markaziy bankning deflyatsiya yoki inflyatsiyani oldini olish uchun deyarli kuchsiz bo'lishi mumkin; ehtimoliy fiskal inflyatsiya uzoq muddat davomidagi katta miqdordagi defisit yoki monetizasiya amalga oshirilishi oqibatida sodir bo'lishi mumkin, va bu faollikning oshishidan ko'ra turg'unlik bilan kechishi mumkin. Iqtisodchi Sui o'zining "Monetary-fiscal interactions with endogenous liquidity frictions" nomli maqolasida likvidlilik bilan pul-kredit va fiskal siyosatning o'zaro aloqalarni tushunish uchun ichki likvidlik aktivlari bilan boshqariladigan makromodelni ishlab chiqqan, unga ko'ra agentlar noyob investitsiya risklariga duch keladilar va raqobatlashuvchi bozorlarda moliyaviy vositachilar bilan uchrashadilar. Uning xulosasiga ko'ra, aktiv likvidligi talab va taklif mutanosibligi va moliyaviy vositachilarning ish haqi bilan belgilanadi va bu tadbirkorlarning (investitsion loyihalarga ega bo'lganlari) moliyaviy cheklovlarini va investitsiya qobiliyatini rag'batlantiradi. Xususiylardan farqli o'laroq, davlat zayomlari to'liq likvidlidir va bunda kelajakdagi investitsiya imkoniyatlarini oldindan ko'ra olish mumkin.

Haqiqiy davlat qarzining yuqori darajasi biznes portfellarining likvidligini oshiradi va investitsiyalarni ko'paytiradi. Biroq qarzni berish ham davlat xarajatlarini, moliyalashtirish xarajatlarini oshiradi. Shuningdek, pul-kredit va fiskal siyosatining to'g'ri uyg'unlashuvi chuqur moliyaviy pasayishdan qochish mumkinligini ko'rsadi [7, 1-25]. Iqtisodchilar Byanki va Ilyut o'zlarining "Monetary/fiscal policy mix and agents' beliefs" nomli maqolalarida AQSH iqtisodiyoti uchun pul-kredit va fiskal siyosatning o'zgarishi bilan bog'liq modelni shakllantiradi. Ularning xulosasicha, pul-kredit siyosati 60-70-yillar oralig'ida fiskal siyosatni hisobga olgan holda amalga oshirildi va bu inflyatsiyaning yuqori bo'lishiga olib keldi.

Keyinchalik pul-kredit siyosati rejimi P.Volker rejimi bilan almashdi, ammo inflyatsiya faqat fiskal siyosat va agentlarning moliyaviy qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ishonchlari o'zgargandan so'nggina kamaydi, muvaffaqiyatli dezinflyatsiya jarayoni fiskal qo'llab-

quvvatlashni talab qiladi. Agar monetar hokimiyat doimo hukmronlik qilsa yoki agentlar bunga ishonch hosil qilishsa, yirik inflyatsiya sodir bo'lmagan bo'lar edi. Siyosat o'zgarishi 80-yillarda inflyatsiyaning tushib ketishi, yalpi ichki mahsulotga nisbatan qarzlar kamayishi, ishlab chiqarish pasayishi, inflyatsiya barqarorligi va o'zgaruvchanligi pasayganligi bilan izohlanadi. Iqtisodchilar E.Chevik, S.Dibuglu, A.Kutan o'zlarining "Monetary and fiscal policy interactions: evidence from emerging European economies" nomli maqolasida ba'zi o'tish davridagi mamlakatlar va Yevropaning rivojlanayotgan davlatlari uchun 1995-yil 1-choragidan 2010-yil 4-choragigacha Markov rejimini almashtirish modeli yordamida fiskal va pul-kredit siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganib chiqqanlar. Ular pul-kredit va soliq-budjet siyosati aloqadorligini hisobga olishda Teylor (1993) tomonidan taklif qilingan monetar siyosat qoidalar va Devig va Liper (2007) tomonidan taklif qilingan fiskal siyosat qoidasini ko'rib chiqadilar. Empirik natijalar pul-kredit va fiskal siyosatining qoidalar faol va passiv rejimlar o'rtasida almashinuv xususiyatlarini namoyon etayotganini hamda barcha mamlakatlar faol va passiv pul-kredit siyosatiga amal qilishini ko'rsatadi. Fiskal siyosatga keladigan bo'lsak, Chexiya, Estoniya, Vengriya va Sloveniyada faol va passiv fiskal siyosat rejimlari almashinib turadi, Polsha va Slovakiya respublikalarining fiskal siyosati yagona rejimga amal qilishi bilan ajralib turadi. Siyosatning uyg'unlashuvi va pul-kredit siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganilgan davlatlarda turli xil ko'rinishga ega bo'lishiga qaramasdan, 2000-yildan so'ng barcha mamlakatlarda pul-kredit siyosati passiv rejimda amal qiladi.

Moliyaviy holat va inflyatsiya o'rtasidagi past chastotali bog'lanish markaziy bank mustaqilligi davrida va mas'uliyatli fiskal siyosat davrida past va murosa qila oladigan monetar organlar hamda javobgar bo'lmagan fiskal siyosat davrida ancha yuqori ekanligini aniqlashadi. Ikkinchi bosqichda ular past chastotali chora-tadbirlarni tizimli ravishda sharhlash va uzoq muddatda budjet siyosatining inflyatsiya darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi mexanizmlarni ko'rsatish uchun DSGE modelini shakllantirishgan.

Ularning xulosasiga ko'ra, DSGE modelining natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, pul-kredit va fiskal siyosatdagi o'zaro bog'liq o'zgarishlar va strukturaviy shoklarning tarqalishidagi bir-biriga aloqador

o'zgarishlar fiskal holat va inflyatsiya o'rtasidagi past chastotali munosabatlardagi o'zgarishlarni izohlashi mumkin.

Pul-kredit va budjet-soliq siyosatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy yo'nalishi budjet kamomadini moliyalashtirish va pul-kredit sohasini boshqarish hisoblanadi.

5.3. Pul-kredit siyosati va yalpi talab orasidagi bog'lanish

Pul-kredit siyosati qanday amalga oshirilayotgani, hukumatning budjet taqchilligini (defisiti) moliyalash qobiliyati bilan bog'liq, chunki bu qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlari miqdoriga ta'sir qiladi, shuningdek, mavjud moliyalashtirish manbalarini cheklashiga yoki kengaytirishiga olib keladi. Boshqa tomondan esa, hukumatning moliyaviy ehtiyojlari va uni moliyalashtirish strategiyasi pul-kredit organining operativ mustaqillik chegaralarini belgilaydi. Budjet defisitining ta'siri nafaqat inflyatsiya va ishlab chiqarishning o'sish sur'atlariga, balki defisit hajmining qanday moliyalashtirilishiga ham bog'liq.

Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirishning to'rt muqobil manbalari mavjud: xususiy sektor tomonidan hukumatning qarz majburiyatlarini ichki bozorda ixtiyoriy sotib olish, tashqi qarz olish, hukumatning qarz majburiyatlarini majburiy joylashtirish va Markaziy bank orqali pul mablag'larini o'tkazish (Markaziy bankning to'g'ridan-to'g'ri kreditlari, Markaziy bankning g'aznadagi daromadlari, shuningdek, hukumat nomidan kvaz-fiskal operatsiyalar). Hukumat qarz majburiyatlarining mahalliy va xorijiy investorlar tomonidan ixtiyoriy xaridi odatda moliyalashtirishning maqbul usuli hisoblanadi, chunki bunday usulda, katta moliyaviy defisitlar, ya'ni inflyatsiyaning o'sishi, shuningdek, tashqi iqtisodiy aloqalarning zaiflashuvi kabi salbiy oqibatlar cheklangan bo'ladi. Aniq bozor signallari asosida amalga oshiriladigan davlat qimmatli qog'ozlariga ixtiyoriy investitsiyalar qaror qabul qiluvchilarga darhol va ishonchli axborot beradi, shuningdek, moliyalashtirishning bu turi jamoatchilik va hukumat uchun qanday oqibatlarga olib kelishini aniqlash imkonini beradi. Yuqoridagiga nisbatan moliyalashtirishning boshqa manbalari faqat muammolarni yanada kuchaytirishi mumkin, ya'ni davlat budjeti defisitining sezilarli darajada ortishiga olib kelishi mumkin. Markaziy bank tomonidan hukumatga keng ko'lamdagi kredit berilishi, ichki

kredit emissiyasini jadallashtiradi, bu esa xalqaro zaxiralarga hamda pul zaxirasiga ta'sir ko'satadi va shunga mos ravishda mamlakatda inflyatsiya sur'atini o'sishiga olib kelishi mumkin.

Davlat qimmatbaho qog'ozlarini majburiy tarzda joylashtirish moliyaviy sektorda stagnatsiya holatini yuzaga kelishiga va natijada, xususiyl sektorning moliyaviy bozordan "siqib chiqarilishi"ga olib keladi. Agar defisit chet el (xorijiy) mablag'lari hisobidan moliyalashtirilsa, tashqi qarz olishga bo'lgan qaramlik haddan tashqari kuchayishiga olib kelishi mumkin, bu esa hukumat o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga bo'lgan ishonchni susaytiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlar, sanoati rivojlangan mamlakatlarga qaraganda budjet defisitini ko'proq Markaziy bank orqali moliyalashtiradi.

Agar, monetar va fiskal siyosatlar muvofiqlashtirilmasa, quyidagi uchta ssenariy yuzaga kelishi mumkin. Birinchi ssenariyda Markaziy bank asosiy o'rinni egallaydi va buning natijasida Markaziy bank hukumatning moliyaviy ehtiyojlaridan qat'i nazar pul bazasining o'sishini belgilaydi. Bunday holda davlat budjet defisiti ichki va tashqi moliya bozorlarininig moliyaviy imkoniyatlari bilan cheklanib qoladi.

Oxir-oqibatda hukumat, yoki budjet kamomadini mavjud moliyalashtirish bilan mos ravishda kamaytirishga to'g'ri keladi, bu esa budjet xarajatlari tarkibini qisqartirishdagi tanlovlar cheklanishi xavfini yuzaga keltiradi, yoki tashqaridan moliyalashtirishga olib keladi yoki katta hajmda davlat qarz majburiyatlarini ichki bozorga joylashtirish kerak bo'ladi, bu esa real foiz stavkalarining sezilarli darajada ortishiga olib keladi. Ikkinchi ssenariyda Moliya vazirligi ustuvor o'rinni egallaydi va shunga mos ravishda Markaziy bank (pul-kredit organi) bilan maslahatlashmasdan davlat budjeti taqchilligi hajmini belgilaydi. Agar obligatsiyalar bozorining moliyaviy imkoniyatlari hisobga olinsa, bunday holda, pul-kredit organi pul bazasi hisobidan zarur bo'lgan barcha moliyalashtirish manbayi bilan ta'minlashga majbur bo'ladi (ya'ni bevosita hukumatga beriladigan kreditlar).

Agar mavjud narx darajasini hisobga olgan holda real pul bazasiga bo'lgan talabning o'sish sur'ati oshib ketayotgan bo'lsa, bu inflyatsiya darajasini o'sib borishiga va xalqaro zaxiralar bilan bog'liq muammolarni yuzaga kelishiga olib keladi. Bundan tashqari, inflyatsiya tufayli yuzaga kelgan beqarorlik ichki moliya bozorining rivojlanishini cheklaydi. Nihoyat, uchinchi ssenariyda Markaziy bank va Moliya

vazirligi ikkovi ham mustaqil ravishda harakat qiladilar. Buning natijasida pul-kredit va budjet-soliq organlari pul bazasining o'sishi va budjet defisiti hajmiga nisbatan muvofiq bo'lmagan qarorlar qabul qilishlari mumkin. Soliq organlari budjet defisitining ichki va tashqi obligatsiyalar bozorida emissiya solig'i hisobidan qoplanmaydigan qismini moliyalashtiradi. Agar mamlakatda ichki moliyaviy bozorlar yetarlicha rivojlanmagan bo'lsa, shuningdek, hukumat tashqi moliyaviy manbalardan maksimal foydalangan taqdirda ham zaruriy moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlay olmasa, unda yuqorida keltirilgan ikki ssenariy yuz beradi, ya'ni yo budjet-soliq yoki monetar siyosat bo'ysunuvchi holat yuzaga keladi. Bundan tashqari, hattoki ichki kapital bozori yaxshi rivojlangan holatda ham, fiskal vazifalar bilan monetar siyosat maqsadlari muvofiqlashmasa ichki qimmatli qog'ozlar bozorida foiz stavkalarining sezilarli darajada o'sishiga yoki hukumatning muddatida to'lanmagan majburiyatlari hajmi oshishiga olib keladi.

Yuqoridagi ssenariylardan istalgan birida fiskal va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish vaziyatni yaxshilashi mumkin, chunki pul-kredit va davlat harajatlarini boshqarish jarayonlarining rivojlanishi bu siyosatlarining bir-biri bilan o'zaro ta'sirini mustahkamlaydi.

Mamlakatda moliya bozorlarining rivojlanganligi, pul-kredit siyosatini yuritish va davlat harajatlarini boshqarish metodlarini mukammallashtirish (yuksaltirish)da qo'shimcha imkoniyatlarni yaratadi. O'zbekistonda monetar va fiskal siyosatni muvofiqlashtirish zarurati mavjudligi amaliyotda yaqqol ko'rinib turibdi...?

Masalan, 2017–2018-yillarda kreditlarning oshishi muvozanatli makroiqtisodiy sharoitlarda iqtisodiy o'sish sur'atlarining qo'shimcha tezlashishida o'z aksini topishi kerak edi. Lekin, iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar o'sish sur'atining yalpi ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atidan 2 barobardan ko'proq oshishi, iqtisodiyotda qo'shimcha talab yuzaga kelishiga va talab hajmlarining amaldagi taklif hajmlaridan oshib ketishiga, pirovardida musbat ishlab chiqarish tafovutining paydo bo'lishiga olib keldi. 2013–2018-yillarda ishlab chiqarish salohiyati va amaldagi ishlab chiqarish hajmlari o'rtasidagi tafovut bor.

Amalga oshirilgan tahlillar 2018-yilning boshidan boshlab iqtisodiyotda ishlab chiqarishning ijobiy tafovuti paydo bo'lib, uning o'suvchi dinamikaga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Ishlab chiqarish farqining ijobiyligi va o'sib borishi 2019-yilda ham ichki narxlarga

bosimni yuzaga keltirishi va asoslanmagan talab hajmining oshib borishi orqali pul-kredit siyosatini yuritish shart-sharoitlarini qiyinlashtiradi.

Shuningdek, budjet xarajatlari va kreditlar hisobiga shakllanayotgan investitsion va iste'mol talabining katta qismi import evaziga qondirilishi import hajmlarini keskin oshirmoqda. Bu tashqi savdo balansining manfiy saldo bilan ijro etilishiga va milliy valyuta kursiga nisbatan devalvatsion bosimning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Ilmiy, nazariy va amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish zarurati quyidagi sabablarga ko'ra namoyon bo'lmoqda:

- makroiqtisodiy ma'lumotlar va prognozlarini ishlab chiqishda o'zaro uyg'unlikning sustligi;

- rivojlanish davlat dasturlarini davlat va banklar tomonidan faol moliyalashtirilishi pul-kredit ko'rsatkichlari shakllanishiga, shu jumladan bank tizimi likvidligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatayotganligi;

- budjet daromad va xarajatlarining ichki va tashqi hamda davriy va mavsumiy omillarga ta'sirchanligi yuqori ekanligi;

- budjet taqchilligining hajmi va uni moliyalashtirish manbalarining aniq belgilab qo'yilmaganligi;

- davlat qarz majburiyatlarini muomalaga chiqarish natijasida markazlashgan xarajatlarning oshirilishi, pirovardida yalpi talabning o'sishi orqali inflyatsiyaga ma'lum bir bosimning yuzaga kelish ehtimoli mavjudligi;

- iqtisodiyotda yalpi talab hajmining yalpi taklif hajmiga nisbatan yuqori bo'lib borayotganligi;

- davlat korxonalarining davlat tomonidan muntazam qo'llab-quvvatlab turilishi, ularning bozorda monopol o'rinda bo'lishi hamda kredit resurslari va xomashyoga imtiyozli huquqi raqobat muhitini yomonlashtirayotganligi, xususiy sektorning kredit olish imkoniyatini susaytirayotganligi hamda uning rivojlanishiga to'sqinlik qilib, narxlar oshishiga sezilarli turtki berayotganligi va boshqalar.

Ayni ushbu sabablarni inobatga olib, kelgusida O'zbekistonda fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish amaliyotini takomillashtirishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- inflyatsiyani pasaytirish va barqaror narxlarni ta'minlash bo'yicha Hukumat va Markaziy bankning birgalikdagi harakatlarini ishlab

chiqish, Vazirliklar o‘rtasida doimiy ma’lumotlarni almashish va makroiqtisodiy siyosat chora-tadbirlarini birgalikda ishlab chiqish tizimini yo‘lga qo‘yish;

- davlat budjeti barqarorligini ta’minlash maqsadida fiskal cheklovlarni belgilash, shu jumladan:

O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi tomonidan to‘plangan mablag‘larni xomashyo narxlari tebranishining budjetga ta’sirini yumshatish maqsadida ishlatish bo‘yicha tasdiqlangan qoidalarni joriy etish hamda jamg‘armaning budjet doirasidan tashqari xarajatlaridan voz kechish;

- soliq-budjet siyosati va budjet amaliyotlari to‘liq bozor mexanizmlaridan kelib chiqib amalga oshirish, bunda Hukumatning ijtimoiy sohalarga xarajatlarini soliq va majburiy to‘lovlar hisobidan, iqtisodiyotga qilinadigan xarajatlarni esa moliya bozorlaridan jalb qilingan uzoq muddatli resurslar hisobidan amalga oshirish;

- budjet daromadlari va xarajatlarining tashqi omillarga bog‘liqlik darajasini pasaytirish, bunda davlat budjetini shakllantirishda mavsumiy va davriy omillarni hisobga olish;

- budjet operatsiyalarining bank tizim likvidlilik darajasiga ta’sirini kamaytirish, shu jumladan: davlat budjeti hisobidan imtiyozli bank kreditlari ajratish amaliyotini tubdan takomillashtirish va kredit foizini qisman qoplab berish imtiyozini iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlariga berish amaliyotini joriy etish;

- o‘rta muddatli istiqbolda raqobatni cheklovchi tartibga soluvchi qoidalarni bekor qilish maqsadida energetika, neft-gaz sanoati, kimyo sanoati, havo yo‘llari, temir yo‘llari, donni qayta ishlash va paxta sanoati kabi sohalardagi davlat korxonalarini isloh qilish;

- iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar davrida import hajmining keskin oshishi singari tarkibiy nomutanosiblikning saqlanib qolishi to‘lov balansi holati yomonlashuvi hamda inflyatsion va devalvatsion bosimning oshishiga olib kelmasligi uchun pul-kredit va soliq – budjet siyosatini amalga oshirishda ma’lum tuzatishlar kiritib borish.

Nazorat uchun savollar

1. Pul-kredit siyosatida neokeynschilar nazariyasining mohiyati to‘g‘risida fikr bildiring.

2. Neokeynschilar samarali talabga erishishning usuli sifatida nimalarga ahamiyat beradilar?

3. Pul-kredit va fiskal siyosatning o'zaro aloqadorligini o'rganish borasida qaysi olimlarning izlanishlari alohida ahamiyat kasb etadi?

4. Monetar va fiskal siyosatlar muvofiqlashtirilmasa qanday oqibatlarga olib keladi?

5. O'zbekistonda fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish zaruriyati qaysi sabablarga ko'ra namoyon bo'lmoqda?

6. O'zbekistonda fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish amaliyotini takomillashtirish borasida o'z fikrlaringizni bildiring.

6-MAVZU. Yalpi talab, narx va ishlab chiqarish

6.1. Yalpi talab tushunchasi va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar


Iqtisodiyotni muvozanatli rivojlantirib, uning barqaror o'sishini ta'minlashda eng avvalo yalpi talabning mazmunini bilish zarur.

Yalpi talab (aggregate demand, AD) – barcha iste'molchilar, ya'ni aholi, korxonalar va davlat tomonidan narxlarning muayyan darajasida sotib olinishi mumkin bo'lgan turli tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabning umumiy hajmidir. Shuningdek, yalpi talabni milliy iqtisodiyotdagi real pul daromadlari hajmi sifatida ifodalash ham mumkin. Yalpi talab barcha iste'molchilarning turli xil tovarlarga va xizmatlarga bo'lgan talablari yig'indisidan tashkil topadi. Bilamizki, tovar va xizmatlar ikki xil bo'ladi: shaxsiy iste'mol tovarlari va tadbirkorlar ishlab chiqarish jarayonida unumli iste'mol qiladigan ishlab chiqarish omillari – yer, kapital va ishchi kuchi.

Iste'mol tovarlari turli-tuman moddiy, ma'naviy tovarlar va xizmatlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, turli ko'rinishdagi (masalan, davlat, xususiy, jamoa, korporativ) tadbirkorlarning ishlab chiqarish omillariga bo'lgan talabi ham turli-tumandir (masalan, turli mashinalar, stanoklar, asbob-uskunalar, inshootlar, transport vositalari, yonilg'i, xomashyo, materiallar, ishchi kuchi va h.k.). Talabning umumiy miqdori sotib olishga mo'ljallangan tovarlarning turlari, miqdori, sifati hamda narxiga bog'liq bo'ladi. (1-chizma).


Yalpi talabni faqatgina pul miqdori bilan belgilash bizningcha, unga bir tomonlama yondashuv bo'ladi. Masalan, investitsiya tovarlari miqdori, sifati, turi o'zgarmagan holda narx ikki barobar oshsa, belgilangan pul miqdori o'zgarmagan holda ikki barobar kam investitsiya tovarlarini sotib olish mumkin bo'ladi xolos.

Yalpi talab miqdor jihatidan aniqlanadi va uning umumiy miqdori turli omillar ta'sirida o'zgarib turadi.



1-chizma . Yalpi talab miqdorining tovarlar turlari, miqdori, sifati hamda narxiga bog‘liqligi

Narx o‘zgarishi bilan foiz stavkalarining hamda yalpi talab umumiy miqdorining o‘zgarishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni chizma orqali osonroq tushunish mumkin (3-chizma).



3-chizma. Narx darajasi oshishining yalpi talabga ta’siri

Bu yerda biz narx oshgan holatda pulga bo'lgan talabning, foiz stavkasining oshishini va, nihoyat, yalpi talab miqdorining kamayishini ifoda etdik. Narx pasaysa, shu holatning teskarisi, ya'ni pulga bo'lgan talab hamda foiz stavkasining pasayishi va oqibatda yalpi talab miqdorining oshishi ro'y beradi.

Boyluk samarasi. U ba'zida real kassa qoldiqlari samarasi deb ham atalib, narx darajasining oshishi bilan moliyaviy aktivlar (bank omonatlari, aksiya va obligasiyalar) real qiymatining pasayishini anglatadi. Buning natijasida aholi daromadlari ham pasayib, ular tomonidan sotib olinuvchi tovar va xizmatlar miqdori kamayadi.

Import tovarlar xaridi samarasi. Bu samara narx darajasi o'zgarishining u yoki bu mamlakatdagi ichki va jahon narxlari nisbatiga ta'siri orqali namoyon bo'ladi. Mamlakatdagi narxlar umumiy darajasining oshishi, chet el tovarlari narxi o'zgarmagan yoki sekinroq o'sgan holatda, milliy iste'molchi uchun chetdan xorijiy tovarlarni olib kelishni foydali qilib qo'yadi. O'z navbatida, mazkur mamlakat tovar va xizmatlarini xorijiy iste'molchilar tomonidan xarid qilish hajmi ham qisqaradi. Natijada bu mamlakatning eksport hajmi kamayadi. Eksport hajmining kamayishi va import hajmining oshishi sof eksportning va pirovardida, yalpi talab umumiy hajmining qisqarishiga olib keladi.

Tashqi va ichki talabning ortishi va xo'jalik yuritish sharoitlarining yaxshilanishi sanoatning barqaror rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Jumladan, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2007-yilda oldingi-yilga nisbatan 12,1%ga ortdi va 18314,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2008-yilda esa bu ko'rsatkich 12,7%ga oshdi. Sanoatning yuqori sur'atlar bilan rivojlanishida korxonalarni modernizatsiyalash va tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlar boshqaruv tizimini isloh qilish, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlarining amalga oshirilishi sabab bo'ldi. Sanoatning YaIM tarkibidagi ulushi 2000-yildagi 14,2% dan 2008-yilda 22,3% ga oshdi. Qo'shilgan qiymat o'sishining yarmidan ko'prog'i tayanch tarmoqlarda ishlab chiqarishning kengayishi hisobiga yuz berdi.

Yalpi talab hajmiga narxdan tashqari omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Quyida ulardan eng muhimlarini ko'rib chiqamiz.

1. Iste'mol sarflaridagi o'zgarishlar. Narx darajasining o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan holda, narxdan tashqari bir yoki bir nechta omillar ta'sirida iste'molchilar xaridi hajmida o'zgarish ro'y berishi mumkin. Bu iste'molchi farovonligi, iste'molchining kutishi, iste'molchining qarzlari va soliqlarning o'zgarishi natijasi hisoblanadi.

Iste'molchining farovonligi uning moliyaviy aktivlarga (aksiya va obligasiya) hamda uy va er kabi ko'chmas mulklarga egaligiga bog'liq bo'ladi. Ular real qiymatining keskin kamayishi tovar xarid qilish hajmining kamayishiga olib keladi. Iste'mol sarflarining qisqarishi natijasida yalpi talab kamayadi. Aksincha, moddiy va moliyaviy boyliklar real qiymatining oshishi natijasida, narxlarning mavjud darajasida iste'mol sarflari o'sadi. Bunga aksiya kursining keskin oshishi, hatto narxlar darajasi o'zgarmay qolganda iste'molchi farovonligining o'sishiga olib kelishini misol qilib keltirish mumkin. Uy va er real qiymatining keskin kamayishi narx umumiy darajasining o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan holda iste'molchi farovonligining pasayishiga olib keladi.

Iste'molchining kutishi. Iste'mol sarflari hajmidagi o'zgarish, iste'molchining narxlar va daromadlar darajasidagi kelajakdagi o'zgarishlarni oldindan bilishiga bog'liq. Masalan, agar iste'molchi kelajakda o'zining real daromadi ko'payadi, deb hisoblasa, u joriy daromadlarining ko'proq qismini sarflashga tayyor bo'ladi. Natijada bu davrda iste'mol sarflari ko'payadi, jamg'arish esa kamayadi va yalpi talab ortadi. Aksincha, agar iste'molchi kelajakda o'zining real daromadlari kamayadi deb hisoblasa, ularning iste'mol sarflari va demak, yalpi talabi qisqaradi. Xuddi shunday tarzda inflyatsiyaning kutilishi bugungi yalpi talabni oshiradi. Chunki iste'molchilar narxlar oshgunga qadar tovarlarni xarid qilib qolishga harakat qiladi. Aksincha, yaqin kelajakda narxlar pasayishining kutilishi, bugungi iste'mol miqdorining kamayishiga olib keladi.

Iste'molchi qarzlari. Iste'molchi qarzlari ko'p bo'lganda, u joriy daromadini qarzlarga to'lab, o'zining bugungi sarflarini qisqartirishi mumkin. Aksincha, iste'molchi qarzdor bo'lmasa, u bugungi sarflarini ko'paytirishga tayyor bo'ladi.

Soliq. Daromad solig'i stavkasining kamayishi, narxlarning mavjud darajasida iste'mol sarflarini ko'paytiradi, soliqlarning oshishi iste'mol sarflarini kamaytiradi.

2. Investitsion sarflar. Investitsion sarflar, ya'ni ishlab chiqarish vositalarini xarid qilish, yalpi talabning narxdan tashqari muhim omili hisoblanadi. Narxlarning mavjud darajasida korxonalar sotib olishi mumkin bo'lgan yangi ishlab chiqarish vositalarining kamayishi yalpi talabning kamayishiga, aksincha korxonalar sotib oladigan investitsion tovarlar hajmining ko'payishi yalpi talabning ko'payishiga olib keladi. Investitsion sarflarni o'zgartirish mumkin bo'lgan narxdan tashqari omillarni alohida-alohida qarab chiqamiz.

Foiz stavkalari. Boshqa sharoitlar o'zgaray qolganda, foiz stavkasining oshishi investitsion sarflarning kamayishiga va yalpi talabning qisqarishiga olib keladi. Bu erda gap mamlakatda pul massasi hajmining o'zgarishi oqibatida foiz stavkalarining o'zgarishi haqida boradi. Pul massasining ko'payishi foiz stavkasini pasaytiradi va shu orqali kapital qo'yilmalar hajmini ko'paytiradi. Aksincha, pul massasining kamayishi foiz stavkasining oshishiga va investitsiyalarning qisqarishiga olib keladi.

Investitsiyalardan kutiladigan foyda. Kapital qo'yilmalardan yuqori foyda olishning kutilishi investitsion tovarlarga talabni oshiradi va aksincha, istiqbolda investitsion dasturlardan foyda olish noaniq bo'lsa, investitsiyalarga sarflar kamayish tamoyiliga ega bo'ladi, demak, yalpi talab ham kamayadi.

Soliqlar. Korxonadan olinadigan soliqlarning ko'payishi kapital qo'yilmalardan olinadigan foydaning kamayishiga va demak, investitsion sarflar va yalpi talabning qisqarishiga olib keladi. Aksincha, soliqlarning qisqarishi bunday foydani va investitsion sarflarni ko'paytiradi.

Texnologiya. Yangi va takomillashgan texnologiya investitsion sarflarni va shu orqali yalpi talabni rag'batlantirish tamoyiliga ega bo'ladi.

Ortiqcha quvvatlar. Ortiqcha quvvatlar, ya'ni mavjud foydalanilmaydigan asosiy kapitalning ko'payishi, yangi investitsion tovarlarga talabni va natijada yalpi talabni kamaytiradi. Ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanilganda tadbirkorlar ko'proq

mashina va uskunalari sotib olishga tayyor bo‘ladi, demak investitsion sarflari ko‘payadi.

3. Davlat sarflari. Narxlarning mavjud darajasida, milliy mahsulotda davlat xaridining ko‘payishi yalpi talabning o‘shishiga olib keladi. Bunga davlatning milliy armiyani tuzish yoki uning sonini oshirish to‘g‘risidagi qarori misol bo‘la oladi. Davlat sarflarining kamayishi yalpi talabning qisqarishiga olib keladi. Masalan, yangi avtomobil yo‘li qurishga davlat sarflarining qisqarishi shunday natijaga olib keladi.

4. Sof eksportdagi o‘zgarish. Sof eksportning ko‘payishi yalpi talabni ham ko‘paytiradi. Birinchidan, eksportning yuqori darajasi, chet ellarda milliy tovarlarga bo‘lgan talabni oshiradi. Ikkinchidan, importning qisqarishi milliy tovarlarga ichki talabning ko‘payishini taqozo qiladi. Sof eksport hajmining o‘zgarishiga, avvalo, chet davlatlar milliy daromadi va valyuta kurslarining o‘zgarishi ta’sir ko‘rsatadi. Chet mamlakatlarda daromadlar darajasi oshganda, ularning fuqarolari ham milliy tovarlarni, ham xorij tovarlarini ko‘proq miqdorda sotib olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chet ellarda milliy daromadning kamayishi esa sof eksport hajmini qisqartiradi.

5. Valyuta kurslari. Boshqa valyutalarga nisbatan milliy pul kursining o‘zgarishi sof eksportga va demak yalpi talabga ta’sir ko‘rsatadi. Faraz qilaylik, iyenaning dollardagi narxi o‘sdi. Bu dollarning iyenaga nisbatan qadsizlanganligi va iyena kursi ko‘tarilganligini bildiradi. Dollar va iyena o‘rtasidagi yangi nisbat natijasida yaponiyalik iste’molchilar iyenaning ma’lum summasiga ko‘proq dollar sotib olishi mumkin. Demak, yaponiyalik iste’molchilar uchun Amerika tovarlari yapon tovarlariga qaraganda arzonroq bo‘ladi. Shu bilan birga amerikalik iste’molchilar dollarning ma’lum summasiga yapon tovarlarini nisbatan kamroq miqdorda sotib olishi mumkin. Bunday holda AQSH eksportining o‘shishi, importning esa kamayishi holatini kutish mumkin. Sof eksportning ko‘payishi o‘z navbatida AQSH iqtisodiyotida yalpi talabning ko‘payishiga olib kelishini bildiradi.

6.2. Ishlab chiqarishning real hajmi

Turli o‘quv qo‘llanmalari va darsliklarda yalpi talab miqdorini aniqlash usullari va unga ta’sir etuvchi omillarni bayon etishda turli

jihatdan yondashiladi. Jumladan, akademik V.Vidyapin va boshqalar umumiy tahriri ostida chop etilgan «Iqtisodiyot nazariyasi» darsligida yalpi talab iqtisodiyotning alohida sohalari sarflarining yig'indisi sifatida ifodalanadi, ya'ni:

$$Y_d = C + I + G + NX,$$

bu yerda:

Y_d – yalpi talab;

C – uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari;

I – xususiy sektorning investitsiya sarflari;

G – davlat xaridi;

NX – sof eksport.⁵

Professor V.Kamayev esa yalpi talabni real yalpi milliy mahsulot tarkibiy qismlariga bo'lgan umumiy pul miqdori sifatida namoyon bo'lishini hamda uni pulning miqdoriy nazariyasiga muvofiq quyidagi ko'rinishda ifodalanishini ta'kidlaydi:

$$AD = M \times V / P,$$

bu yerda:

AD – yalpi talab;

M – pul miqdori;

V – pulning aylanish tezligi;

P – narx darajasi.⁶

Shunday qilib, boshqa sharoitlar o'zgarmas deb faraz qilgan taqdirda ham birgina narx darajasining oshishi ishlab chiqarishning real hajmiga bo'lgan yalpi talab hajmining keskin kamayishiga, ya'ni ishlab chiqarilgan tovarlar massasining bir qismi sotilmay qolishiga sabab bo'ladi.


Aksincha, narx darajasining pasayishi ishlab chiqarish hajmiga nisbatan yalpi talabning oshishiga, ya'ni tovarlarning etishmasligiga olib keladi. Yalpi talabga narxdan tashqari ta'sir qiluvchi omillarning o'zgarishi ham milliy ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga olib keladi.

⁵ Каралсин: Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005. – с.412.

⁶ Каралсин: Экономическая теория: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений / Под ред. В.Д.Камаева. – 10-е изд., перераб. и доп. - М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2004, с.291.

Narx darajasi va talab ta'siridagi milliy ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi bu teskari bog'liqlikni quyidagi chizma orqali ifodalash mumkin (1-chizma).

Chizmadan ko'rinadiki, yalpi talab egri chizig'i yakka talab egri chizig'iga o'xshaydi, biroq o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar bir-biridan farqlanadi. Agar yakka talab egri chizig'i turli narx ko'rsatkichlarida alohida iste'molchining muayyan tovarga bo'lgan talabi miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalasa, yalpi talab egri chizig'i mamlakatdagi narxlarning turli darajasi hamda ishlab chiqarishning real hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.



1-chizma. Yalpi talab egri chizig'i


Foiz stavkasi samarasi. Mazkur samaraning mohiyati shundan iboratki, narx darajasining o'sishi bilan pulga bo'lgan talab ham ortadi. Bu esa muomaladagi pul miqdorining o'zgarishsiz hajmi sharoitida foiz stavkasining o'sishiga olib keladi. O'z navbatida foiz stavkasining o'sishi iste'mol va investitsiya sarflari hajmini pasaytiradi. Chunki foiz stavkalarining oshib ketishi aholi tomonidan uy va uy jihozlari, avtomobil kabi uzoq muddatli iste'mol tovarlarini sotib olish uchun kredit olishni samarasiz qilib qo'yadi. Shuningdek, tadbirkorlar ham foizning yuqori darajasida o'zlarining nisbatan past daromad keltiruvchi investitsiya loyihalarini amalga oshirishdan voz kechadilar.

Yalpi taklifga eng avvalo bozor narxlari darajasi bilan ijtimoiy qiymat miqdori o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi.

Narxlar darajasining qiymat miqdoridan oshishi qo‘shimcha tovarlar ishlab chiqarish uchun rag‘bat yaratadi. Narxlar darajasining qiymatdan pasayishi esa tovar ishlab chiqarishning qisqarishiga olib keladi. Shu sababli turli tovarlar narxlari va milliy ishlab chiqarish hajmi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bevosita bog‘liqlik mavjud bo‘ladi. Bu bog‘liqlik yalpi taklif egri chizig‘ida aniq aks etadi (2-chizma).

Chizmadan ko‘rinadiki, yalpi taklif egri chizig‘i o‘z shakli jihatidan yakka yoki bozor taklifining an’anaviy egri chizig‘idan farq qiladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, uzoq muddatli va qisqa muddatli davrdagi yalpi taklif egri chizig‘i bir-biridan farqlanadi. Uzoq davrdagi yalpi taklif egri chizig‘i o‘z shakliga ko‘ra chizmadagi Yt nuqtaga qadar joylashgan har qanday tik chiziqdan iborat bo‘ladi.



2-chizma. Yalpi taklif egri chizig‘i

Iqtisodiy resurslarning ishlab chiqarishga tobora ko‘proq jalb etilishi mazkur chiziqni Yt nuqtaga yaqinlashtiradi va pirovardida shu nuqtada joylashgan chiziqqa tenglashadi. Chunki qo‘shimcha resurs va imkoniyatlarni ishga solish uchun vaqtning yetarli bo‘lishi uzoq muddatli davrda iqtisodiyotda to‘la bandlik holatiga olib keladi.

Qisqa muddatli davrda yalpi taklif egri chizig‘ining ko‘rinishi bir oz murakkabroq bo‘lib, uchta kesmani o‘z ichiga oladi.


I. Yotiq kesma. U ba’zida «keynscha» kesma deb ham atalib, iqtisodiyotning tanazzul yoki turg‘unlik pallasidagi holatini aks ettiradi. Yotiq kesma milliy ishlab chiqarish potensial hajmi (chizmadagi Yt nuqta)dan ancha kam bo‘lgan ishlab chiqarishning

real hajmi (chizmadagi Y1 nuqtaga qadar bo'lgan hajm)ni o'z ichiga oladi. Ya'ni bu oraliqda mamlakatdagi mavjud ko'plab ishlab chiqarish quvvatlari, mashina, uskuna va ishchi kuchi ishlab chiqarishga jalb etilmaydi yoki ulardan to'liq foydalanilmaydi. Shunga ko'ra, mazkur resurslarning ishlab chiqarishga jalb etilishi narx darajasiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Bu oraliqda ishlab chiqarish real hajmi qisqarganda ham tovar va resurslar narxi eski darajada qoladi. Shunday qilib, yotiq kesmada narx darajasi o'zgarmagan holda milliy ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyati mavjud.

II. Oraliq kesma. Y va Yt nuqtalar orasidagi mazkur kesma milliy ishlab chiqarish real hajmining ko'payishi narx darajasining o'sishi bilan birga borishini ko'rsatadi. Bu ishlab chiqarishning to'liq quvvat bilan ishlay boshlaganidan, korxonalarining ancha eski va kam samarali uskunalaridan foydalana boshlaganligidan guvohlik beradi. Shu barcha sabablarga ko'ra mahsulot birligiga qilinadigan xarajatlar ortadi, korxonalar ishlab chiqarishining rentabelli bo'lishi uchun tovarlarga ancha yuqori narx belgilaydi. Shu sababli oraliq kesmada milliy mahsulot real hajmining ko'payishi narxlarning o'sishi bilan birga boradi.

III. Tik kesma. U ba'zida «klassik» kesma deb ham atalib, iqtisodiyot o'zining to'liq yoki tabiiy darajasiga erishganligini ko'rsatadi. Bunda iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatining shunday nuqtasida (chizmadagi Yt nuqta) joylashadiki, bunda qisqa muddatda ishlab chiqarish hajmini yanada kengaytirishga erishish mumkin emas. Iqtisodiyot to'liq quvvat bilan ishlay boshlaganligi sababli narxning to'xtovsiz oshib borishi ham ishlab chiqarish real hajmining ko'payishiga olib kelmaydi. Qisqacha aytganda, bu kesma milliy ishlab chiqarish hajmi doimiy bo'lib qolishi, narx darajasi esa o'zgarishi mumkinligini ko'rsatadi.


Tik kesmada ishchi kuchi va ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalaniladi, shu sababli yalpi talabning kengayishi faqat narx darajasiga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni uni oshiradi. Milliy ishlab chiqarishning real hajmi esa o'zgarishsiz qoladi (3-chizma).



3-chizma. Tik kesmada yalpi talab va yalpi taklif muvozanatining o'zgarishi

Chizmadan ko'rinib turibdiki, tik kesmada yalpi talab miqdorining AD_1 dan AD_2 ga o'shishi faqat narx darajasini R_1 dan R_2 ga qadar o'sishiga olib kelmoqda, milliy ishlab chiqarish hajmi esa potensial daraja – Q_s hajmida qolmoqda. Chunki bu chegarada iqtisodiyot o'zining barcha ishlab chiqarish imkoniyatlarini ishga solib bo'lgan hisoblanadi.

Oraliq kesmada yalpi talabning kengayishi bir vaqtning o'zida milliy ishlab chiqarish real hajmining ko'payishiga va narx darajasining oshishiga olib keladi (4-chizma).



4-chizma. Oraliq kesmada yalpi talab va yalpi taklif muvozanatining o'zgarishi

Chizmadan ko'rinadiki, yalpi talabning AD_1 dan AD_2 ga o'sishi yalpi taklif egri chizig'i bo'ylab milliy ishlab chiqarish hajmining Q_1 dan Q_2 ga qadar ko'payishiga olib kelmoqda. Biroq, bu ko'payish ayni paytda narxlar darajasini ham R_1 dan R_2 ga oshirmoqda. Bu esa oraliq kesmada

iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish resurslari asta-sekin to'la bandlik holatiga o'tayotganligini, qo'shimcha quvvatlarning ishga tushirilishi tobora o'sib boruvchi xarajatlar orqali amalga oshishini anglatadi.

Demak, yalpi talabning o'sishi yalpi taklifning qaysi kesmasida ro'y berishidan kelib chiqqan holda narx darajasiga turlicha ta'sir ko'rsatar ekan. Yalpi talabning kamayishi ham turli kesmalarda turlicha kechadi. Agar yotiq kesmada yalpi talab kamaysa, milliy ishlab chiqarishning real hajmi kamayib, narx darajasi o'zgarishsiz qoladi. Tik kesmada narx tushadi, milliy ishlab chiqarish to'liq bandlik darajasida bo'lganligi sababli, uning real hajmi o'zgarishsiz qoladi.

Oraliq kesmada milliy ishlab chiqarishning real hajmi qisqaradi va narx darajasi pasayadi. Ayni paytda bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, oraliq va tik kesmalarda yalpi talabning qisqarishi vaziyatni murakablashtiruvchi omillar ta'sirida birdaniga narxning pasayishiga olib kelmasligi mumkin. Buning murakkablik tomoni shundan iboratki, tovarlar va resurslar narxi pasayish tamoyiliga ega bo'lmaydi.

Shu sababli ayrim iqtisodchilar bunday tamoyilni **xrapovik samarasi** deb ataydilar (xrapovik – bu g'ildirakni faqat oldinga harakat qilishga majbur etuvchi mexanizm). **Xrapovik samarasi shunga asoslanadiki, narx osonlik bilan ko'tariladi, lekin juda qiyinchilik bilan sekin pasayadi.** Shu sababli yalpi talabning oshishi narx darajasini ko'taradi, lekin talab kamayganda, qisqa davr ichida narxning pasayishini kutish mumkin emas.

6.3. Investitsion sarflar texnologiyasi

Mamlakat taraqqiyotini innovatsion bosqichiga o'tishida kapital uchun kurash yuzaga keladi. Ana shunday sharoitda har qanday davlatning jahon investitsion bozoridagi yutug'i nafaqat yuqori foyda keltiradigan va rentabellik darajasi salmoqli bo'ladigan investitsion kapital quyilmalarni jalb etishdan iborat bo'lib qolmay, balki investorlar uchun turli xizmatlarni o'z vaqtida bajarib bera oladigan maxsus moliyaviy institutlar kompleks tarmog'ini shakllantirish, shuningdek, ularda ochiq va shaffof tadbirkorlik faoliyati barqarorligini taminlash zarur bo'ladi. Albatta, bunda korxonalarining investitsion tahlilining o'rni yuqori bo'lib, milliy iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan alohida korxonalarining joriy holati rivojlanishiga hamda

samarali boshqaruv strategiyasining asosiy dastak va yo'nalishlarini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya siyosatida korxonalar iqtisodiy faolligini oshirish hamda shu orqali aholi turmush farovonligini ta'minlash, innovatsion iqtisodiy o'sishga erishishdan iborat. Bugungi kunda mamlakatimizda investitsion muhit sharoitini yaratishga va xorijiy mamlakatlar investitsiyalarini jalb etish bo'yicha keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ana shu sa'y-harakatlar natijasida 7500 mingga yaqin xorijiy kapitalga asoslangan korxonalar o'z faoliyatlarini olib bormoqda⁷.

Mamlakatimizda korxonalar investitsion faoliyat samaradorligini oshirish va ularning samarali faoliyat olib borishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Lekin shunday bo'lsa-da, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "...iqtisodiyot o'sishi-ning yuqori sur'atlari va investitsiya resurslariga o'sib borayotgan talabni qanoatlantirish bir-biriga muvofiq emas. Mamlakatimiz hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish o'ta qoniqarsiz ahvolda qolmoqda"⁸.

Shunday ekan, iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan investitsiyalar-ning modernizatsiyalash jarayoniga qay yo'sinda ta'sir etayotganligini aniq tahlilini olib borish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Investitsion faoliyatni amalga oshirish uchun qilingan sarf xarajatlardan ijobiy natijaga ega bo'lish tashqi omillarning samaradorligini kuchaytirish salbiy holatlarni yumshatish uchun ko'pgina investitsion faoliyatini to'laqonli va samarali boshqaruv tizimini yaratishni taqazo etadi. Alohida ta'kidlab o'tish kerakki, zamonaviy iqtisodiyotning shiddatli harakati uchun korxonaga samarali boshqaruvini yaratishni zarur qilib qo'yadi va busiz korxonaga investitsion faoliyatini amalga oshira olmaydi. O'tgan yillar ichida O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investitsiyalarning samarasiz joylashtirilishi va ulardagi investitsion faoliyat bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy tahlillar mexanizmlari va korxonaga joylashtirilgan investitsiyalarning ishga tushmagan holatda hisob-kitoblarni amalga oshirilishi hamda korxonaga balansida

⁷ Узбекистан окно возможностей. BCG. – Ташкент, Май, 2019. с. 59 http://media-publications.bcg.com/RUS-UZ-Tier_MAY-2019-FIN.pdf Inc. 2019.

⁸ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017. 104 b.

aks ettirilishi korxonani daramat manbayini kamayishiga olib kelgan. Bundan ko'rinadiki mazkur yillardagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda samarasiz boshqaruv tizimining amalga oshirilganligi hamda investitsion faoliyat samarasiz olib borilganligi ko'pchilik hollarda boshqaruv qarorlarni to'g'ri qabul qilinmaganligidan dalolat beradi.

Bu o'z navbatida korxonada taraqqiyotida strategik va moliyaviy boshqaruv va uning tahlili muhim rol o'ynaydi. Investitsion boshqaruv korxonada investitsion faoliyatini barcha bosqichlarini jumladan, rejalashtirish, tashkil etish va ijro jarayonini boshqarishni taqazo etadi. Mazkur boshqaruv tizimi korxonada investitsion tahlilisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Mazkur jarayonlarning maqsadli boshqarish va kutilgan natijaga erishish va korxonaning kelajakda taraqqiyotiga erishishiga o'zaro bog'liq bo'ladi.

Xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlarni investitsion faoliyat tahlili bo'yicha amalga oshirilgan ishlarda ham yuqoridagi kamchiliklardan xoli emas. Ana shu kamchiliklarni hisobga olgan holda bizning fikrimizcha, har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt investitsion boshqaruvini amalga oshirish va mukammal tashkiliy tarkibiy tuzishni shakllantirish kerak.

Investitsion faoliyat boshqaruvning tashkiliy tuzilishi:

1-bosqich. Tovar ishlab chiqarish iste'mol bozori va milliy iqtisodiyot taraqqiyotini rejalashtirish va joriy tahlili;

Tashkiliy reja qismi.

2-bosqich. Investitsion faoliyatni strategik rejalashtirish, investitsion siyosatni shakllantirish, maqsadli investitsion rejalashtirish investitsion dasturini shakllantirish va investitsion strategiyani ishlab chiqish;

3-bosqich. Alohida investitsion loyihalarni amalga oshirish;
Ijro qismi.

4-bosqich. Investitsion faoliyat samaradorligini baholash;
Tahliliy qismi.

Investitsion faoliyat boshqaruv tashkiliy tuzilishining har bir bosqichi o'z navbatida butun bir faoliyat maqsadli tizimini tashkil etadi hamda bosqichlarning o'zi qator tahlillarni amalga oshirishni taqozo etadi. Tovar ishlab chiqarish iste'mol bozori va milliy iqtisodiyot taraqqiyotini rejalashtirish va joriy tahlili. Investitsion faoliyatni amalga oshirishning dastlabki bosqichi ancha murakkabdir. Chunki aynan mazkur bosqichda yuqori ehtimollik darajasi ko'proq tanlangan ijodiy va katta hajmdagi

tahliliy yondashuvga borib taqaladi. Aynan shunday tahlillar natijasiga tayanib, korxonaga investitsion faoliyati rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Shuning uchun birinchi bosqich keyingi bosqichlarning tashkillashtirilishiga bog'liq bo'ladi. Bozor konyukturasini prognozlashtirishdan asosiy maqsad korxonaga investitsion faoliyatiga ta'sir etishi ko'zda tutilayotgan tashqi omillarni aniqlab olishdan iboratdir. AQSH tajribasidan ma'lumki, bunday jarayonni PEST omillar tahlili deb nomlanadi va u o'zida to'rtta omilni, ya'ni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnik omillarni o'z ichiga oladi.

Prognozlashtirish jarayonida, albatta, vaqt davrini hisobga olish zarur bo'ladi. Bu davr uzoq muddatli(10-yildan yuqori), o'rta muddatli (5-10-yil) va qisqa muddatli (5-yilda kam bo'lmagan). Dastlabki tanlovda 2 omil hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Bular birinchisi milliy iqtisodiyot barqarorligi. Ikkinchisi esa xo'jalik yurituvchi subyekt hajmi. Bu korxonaning ichki sifat omili hisoblanib, prognozlashtirishga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'ladi. Vaqtinchalik davr mobaynida korxonaga investitsion faoliyatiga ta'sir etuvchi joriy ko'rsatkichlar tahlili amalga oshiriladi. Shunday so'ng oldingi yillardagi ko'rsatkichlar tahliliga asoslanib, korxonaga kelajakda duch keladigan tashqi muhit omillari aniqlanadi.

Tadqiqotlar tahlili ko'pincha milliy iqtisodiyot rivojlanishining oldingi yillardagi darajasiga bog'liq bo'ladi. Birinchi bosqich yakunlanishi barcha olingan ma'lumotlar jamlanib, rejalashtirish usulidan foydalanilgan holda qator imkoniyatlar chegarasi aniqlanadi. Bunda, albatta, tarmoqlarning raqobatbardoshligi, jahon yoki milliy iqtisodiyot rivojlanish darajasi ta'sir etuvchi omillari hisobga olinadi.

Ehtiyojlarning tobora o'sib borishi boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini murakkablashtirib qo'yadi.

Taraqqiyotning samarali yo'lini tanlash tadbirkorlikning eski yo'lidan voz kechib uning yangi yo'llarini qidirish, eski tizimdan yangi tizimga o'tish, moslashish ancha rejalashtirish jarayonini qiyinlashtiradi. Jahon amaliyotidan ma'lumki, rejalashtirishning aynan yaxlit, tajribadan o'tgan usuli mavjud emas. Lekin har qanday sharoitda ham yuqoridagi tahlillarsiz rejalashtirish jarayonini amalga oshirib bo'lmaydi¹⁰.

Investitsion faoliyatni strategik rejalashtirish, zamonaviy sharoitlarda yirik korxonalar xo'jalik yuritish faoliyatini rejalashtirish muhim sanaladi.

⁹ Петров, А.Н. Стратегический менеджмент / А. Н. Петров - СПб.: Питер, 2005.- 496 с.(54 с.)

¹⁰ Линдгрэн, М. Сценарнопланирование. Связь между будущим и стратегией./ М. Линдгрэн, Х. Бандхольд [пер. с англ.]- М.: Олимп-Бизнес, 2009. - 256с.(34 с.)

Nazorat uchun savollar

1. Yalpi talab nima?
2. Nima uchun yalpi talab egri chizig'i o'zgaradi?
3. Yalpi talabga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
4. Yalpi talab egri chizig'ining pasayuvchan shaklda bo'lishiga foiz stavkasi, boylik va import tovarlar xaridi samaralarining ta'sirini tushuntirib bering.
5. Xrapovik samarasi tushunchasiga izoh bering
6. Narx darajasining oshishi ishlab chiqarishning real hajmiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

7-MAVZU. PUL-KREDIT SIYOSATINI ISHLAB CHIQUISH MASALALARI

7.1. Pul-kredit siyosatining usullari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartibga solish qonunchilik, ijro etish va nazorat qilish xususiyatidagi tadbirlar tizimidan iborat bo'ladi.

Bunda iqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartibga solishning obyektiv imkoniyati iqtisodiy rivojlanish, ishlab chiqarish va kapital to'planishi ma'lum darajaga erishgandagina vujudga keladi. Hozirgi sharoitda iqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartibga solish takror ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bir qator vazifalarni hal qilishga qaratilgandir. Bular jumlasiga barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ish bilan bandlikni tartibga solish, tarmoq va mintaqaviy tuzilmalardagi ijobiy siljishlarni qo'llab-quvvatlash, eksportni rag'batlantirish kabi-larni kiritish mumkin.

Pul-kredit vositalari va usullarini isloh qilish taktik va strategik vazifalarni ajratishga asoslanadi. Strategik vazifa shakllangan bozor iqtisodi amal qilayotgan mamlakatlar uchun xos bo'lgan, pul-kredit nazoratining umumiy qabul qilingan vositalaridan foydalana boshlashdir. Ushbu maqsadga erishish uzviy ravishda bir qator bosqichlar orqali amalga oshiriladi. Monetar tartibga solish vositalarini takomillashtirishni bosqichlarga bo'lish o'tish davrining muayyan tarixiy bosqichlarini hisobga olish zarurati bilan belgilanadi.

Bank tizimining taraqqiyoti aniq belgilangan maqsad, vazifalar va tamoyillarga asoslanadi. Ushbu maqsad, vazifa va tamoyillar respublika iqtisodiyotini isloh qilish jarayonida umumiqtisodiy masalalarni hal etish bilan bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimini keng ko'lamli isloh qilish jarayonida muhim institutsional va tuzilmaviy o'zgarishlarga erishildi. Ikki bosqichli bank tizimi, ya'ni Markaziy bank hamda mulkchilikning turli shakllari asosida tijorat banklari tizimi tashkil etildi va rivojlanmoqda. Bundan tashqari, banklarimizning yetakchi xorijiy banklar bilan hamkorligi yildan yilga kengaymoqda.

So'nggi yillarda prezidentimiz tomonidan bank tizimiga katta e'tibor qaratilayotganligi, shuningdek, tijorat banklari kapitallashuvini yanada

jadallashtirish borasidagi farmonlariga muvofiq qilinayotgan sa'y-harakatlar natijasida korxonalar va tashkilotlar tomonidan investitsiyalarga bo'lgan talabning ma'lum darajada o'sishiga erishildi.

Shuningdek, likvidlilik ustidan qat'iy nazorat o'rnatilganligi va bu asosda makroiqtisodiy muhitning yetarli darajada rivojlanayotganligi bank tizimi faoliyatini naqadar to'g'ri yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi. Demak, bank tizimining keyingi taraqqiyoti iqtisodiyotning real tarmog'idagi ijobiy o'zgarishlar, korxonalarning moliyaviy holati hamda makroiqtisodiy muhitning yaxshilanishi bilan bog'liqdir. Bunday ijobiy muhitni bank tizimiga, ayniqsa, Markaziy bank faoliyatiga davlat tashkilotlarining aralashuvini cheklash va ular mustaqilligini ta'minlash orqali vujudga keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatini amalga oshirishda quyidagi instrumentlardan foydalanadi:

1. Majburiy zaxiralar siyosati;
2. Hisob stavkalari siyosati;
3. Ochiq bozordagi operatsiyalar siyosati;
4. Valyuta siyosati va shu kabilar.

Mazkur usullar jahon banklari amaliyotida tan olingan asosiy usullar hisoblanib, ularning qo'llanishi har bir davlatda turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, AQSH da ko'proq ochiq bozordagi usullar qo'llanilsa, Germaniyada ko'proq majburiy zaxiralar qo'llaniladi. Hozirgi kunda O'zbekiston Markaziy bankining muomaladagi pul massasini tartibga solishda, asosan, majburiy zaxiralar instrumentidan foydalanilmoqda.

7.2. Tijorat banklariga nisbatan o'rnatilgan majburiy zaxira siyosati

Markaziy bankning pul-kredit siyosatini tartibga solish yuzasidan mavjud tartiblariga muvofiq, tijorat banklari majburiy zaxiralarni Markaziy bankda saqlaydilar.

Majburiy zaxiralar bu – tijorat banklarining depozit operatsiyalari natijasida vujudga kelgan bank resurslarining Markaziy bankda foizsiz hisob raqamda saqlanish talabidir. Bu esa, o'z navbatida bevosita kreditlash imkoniyatlarini chegaralaydi va depozit emissiyasini qisqartiradi.

Majburiy zaxiralar siyosati Markaziy bank pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlaridan biri hisoblanadi. Majburiy zaxiralardan pul-kredit siyosatining instrumenti sifatida foydalanish darajasi, ularga foiz hisoblash tartibi, majburiy zaxiralar me'yorining miqdori, ularni tabaqalashtirish kabi ko'rsatkichlar bo'yicha mamlakatlar o'rtasida jiddiy farqlar mavjud. Bunday farqlarning mavjudligi, asosan, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish xususiyatlari, pul muomalasi sohasidagi vaziyat kabi omillar bilan ta'riflanadi.

Pul-kredit siyosatining instrumenti sifatida majburiy zaxiralar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- bank tizimining likvidligiga ta'sir etish funksiyasi;
- tijorat banklarining kredit emissiyasini cheklash funksiyasi;
- tijorat banki bankrot bo'lganda, uning majburiyatlari bo'yicha hisoblashish funksiyasi.

Markaziy bank majburiy zaxiralar miqdorini o'zgartirish yo'li bilan bank tizimining likvidligiga ta'sir qila oladi.

Ikkinchi funksiyaning mazmuni shundaki, majburiy zaxiralar, mavjud miqdorlar.

Mamlakatimizda majburiy zaxiralar miqdoridan yuqorida qayd qilingan maqsadlarda foydalanishga mutlaqo zarurat yo'q. Chunki, milliy valyuta kursining AQSH dollariga va boshqa erkin almashinuvchi valyutalarga nisbatan pastligi, bank tizimining yetarli darajada chet el valyuta zaxiralarga ega emasligi va umuman, respublikamizda erkin almashinuvchi valyutalarga bo'lgan talabning kattaligi kabi omillar minimal zaxiralardan ushbu maqsadlarda foydalanishni istisno etadi. Shu nuqtayi nazardan olganda, respublikamizda joriy hisob raqamlaridagi chet el valyutalariga nisbatan zaxira talabnomasining qo'llanilmasligi juda o'rinlidir.

Respublikamizda nisbatan bahosi yuqori bo'lgan tovarlarni AQSH dollarida sotilishi pul muomalasi uchun jiddiy xavf tug'diradi. Ushbu an'analarning yanada rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun aholi qo'lidagi chet el valyutalarini bank muassasalariga jalb qilish zarur. Jalb qilishning sinalgan usullaridan biri chet el valyutasidagi omonat hisobraqamlariga to'lanadigan foiz stavkalarini oshirish hisoblanadi. Bu esa, G'arb amaliyotida keng qo'llanilayotgan minimal zaxira talabnomalarini chet el valyutasidagi majburiyatlarga nisbatan belgilashni respublikamiz sharoitida qo'llashni istisno etadi.

Qimmatli qog'ozlar bozori, ssuda kapitallari bozori zaif rivojlangan, Markaziy bankning valyuta siyosati orqali pul massasiga yetarli darajada ta'sir eta olish imkoniyati bo'lmagan sharoitda majburiy zaxiralar pul-kredit siyosatining eng asosiy va ta'sirchan instrumenti bo'lib qolaveradi. Uning bunday mamlakatlar uchun muhim bo'lgan ahamiyatlaridan biri shundan iboratki, u bank tizimining barqarorligini kafolatlaydi. Bu esa, aholi va huquqiy shaxslarning bank tizimiga bo'lgan ishonchlarini mustahkamlaydi. Chunki iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish garovlaridan biri – bank tizimiga bo'lgan yuksak ishonchning mavjudligidir.

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida majburiy zaxiralar me'yorini keskin pasaytirish maqsadga muvofiq emas. Chunki, birinchidan, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish jarayoni hozirgi kunda muomaladagi pul massasining o'sishiga olib keladi. Bundan tashqari, respublikamizga hamon tayyor mahsulotlarni sezilarli miqdorda chetdan keltirilishi potensial inflyatsiya manbayi hisoblanadi. Shuning uchun hozirgi bosqichdagi iqtisodiyotni tartibga solish tadbirlari inflyatsiyaga qarshi qaratilgan bo'lishi kerak. Ikkinchidan, majburiy zaxiralar pul bazasining, uning dinamikasini oldindan ko'ra bilish mumkin bo'lgan qismi sifatida, pul-kredit siyosatining muhim obyekti hisoblanadi. Shuningdek, Majburiy zaxiralar orqali Markaziy bankning kreditlar va foiz stavkalariga qay darajada ta'sir etayotganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

7.3. Valyuta va depozit siyosati

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir qismi xalqaro valyuta munosabatlari hisoblanadi. Xalqaro valyuta munosabatlari bu – valyutaning jahon xo'jaligi va milliy xo'jalikda amal qilishi hamda xo'jaliklar faoliyati natijalarini o'zaro ayirboshlanishida yuzaga kelgan yalpi ijtimoiy munosabatlaridir.

Valyuta munosabatlarining elementlari qadimiy antik davrga borib taqalgan bo'lib, qadimiy Gretsiya va Rimda veksellari ko'rinishida va pulni maydalash hamda ayirboshlash ko'rinishida bo'lgan. Valyuta munosabatlarining keyingi rivojlanish davri o'rta asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda g'arbiy Yevropada o'tkazma veksellari bo'yicha savdo markazlari tashkil qilingan, shular jumlasiga Liondagi veksellari yarmarkasini

kiritishimiz mumkin. Feodal ishlab chiqarishdan kapitalistik ishlab chiqarishga o‘tilishi natijasida xalqaro hisob-kitoblarning banklar orqali amalga oshirilishi juda tez rivojlandi.

Ishlab chiqarish kuchlarining o‘sishi, jahon bozorining paydo bo‘lishi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, xo‘jalik yuritishining xalqaro tizimi shakllanishi va xo‘jalik aloqalarining baynalmi-nallashuvi xalqaro valyuta munosabatlari rivojlanishining asosi bo‘lib hisoblanadi. Xalqaro valyuta munosabatlari xalqaro iqtisodiy munosabatlar orqali, ya‘ni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste‘molda namoyon bo‘ladi. Valyuta munosabatlari bilan takror ishlab chiqarish o‘rtasida to‘g‘ri va teskari aloqa mavjud. Ularning obyektiv asosi jamiyatdagi tovar va xizmatlar hamda kapitalning xalqaro ayirboshlashini yuzaga keltiruvchi takror ishlab chiqarish hisoblanadi. Valyuta munosabatlarining holati mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlan-ganligiga bog‘liq.

Mamlakatlar xalqaro bozorga qo‘shilishi natijasida kapital aylanishi jarayoni milliy pul birligidagi kapitalning bir qismini xorijiy valyutaga aylanishi va aksincha holat yuz berishini anglatadi. Bu holat xalqaro hisob-kitob, valyuta, kredit va moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda yuz beradi.

Valyuta munosabatlari takror ishlab chiqarishga nisbatan ikkilamchi sanalsa-da, unga sezilarli teskari ta‘sir o‘tkazadi. Xo‘jalik ishlab chiqarishining baynalmi-nallashuvi sharoitida takror ishlab chiqarish tashqi omillarga – ishlab chiqarish dinamikasi, xorijiy fan va texnika taraqqiyoti darajasi, xalqaro savdoning rivojlanishi, kapitallar oqimiga juda bog‘liq bo‘lib qoladi. Xalqaro valyuta munosabatlarining beqarorligi va valyuta inqirozlari takror ishlab chiqarishga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababdan xalqaro valyuta munosabatlarini aniq bir shaklga keltirishga va uni doim nazorat qilishga harakat qilib kelingan.

Valyuta tizimi bu – valyuta munosabatlarini milliy qonunchilik yoki xalqaro kelishuvlar asosida tartibga solish tizimidir. Valyuta tizimi uch xil bo‘ladi: milliy, hududiy va xalqaro.

Tarixan dastlab xalqaro huquq normalarini hisobga olgan holda milliy qonunchilik bilan mustahkamlangan milliy valyuta tizimlari paydo bo‘lgan.

Milliy valyuta tizimlari xalqaro valyuta tizimi bilan uzviy bog‘liq, ya’ni xalqaro valyuta munosabatlari yuzaga kelishining asosi bo‘lib hisoblanadi.

Xalqaro valyuta tizimi XIX asr o‘rtalarida yuzaga kelgan. Xalqaro valyuta tizimining barqaror bo‘lishi dunyo xo‘jaligi strukturasi darajasiga muvofiq kelishiga, yetakchi davlatlarning manfaatlariga va kuchlarning joylashishiga bog‘liq. Ushbu shartlarning buzilishi valyuta tizimining inqiroziga olib keladi va yangi valyuta tizimining yuzaga kelishiga asos bo‘ladi.

Xalqaro valyuta tizimining amal qilish mexanizmi va uni tartibga solish milliy valyuta tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu bog‘liqlik tashqi faoliyatga xizmat qiluvchi milliy banklar orqali amalga oshiriladi va davlatlararo valyutani tartibga solishda yuzaga keladi hamda yetakchi davlatlarning valyuta siyosatini muvofiqlashtiradi.

Xalqaro valyuta tizimi va milliy valyuta tizimining o‘zaro bog‘liqligi va farqlari ularning elementlarida ko‘rinadi (1.1-jadval).

Milliy valyuta – bu davlat qonunlari bilan belgilangan va hisob-kitoblarda qo‘llaniladigan pul birligidir. Shu o‘rinda, pul birligi va valyuta o‘rtasida farqni ajratish maqsadga muvofiq. Pul birligi bu bir mamlakat hududida hisob-kitoblarni amalga oshirish vositasi hisoblanib, u xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qatnashsa (boshqa valyutaga ayirboshlanganida, xorijda tuzilgan bitim bo‘yicha talab va majburiyatlarni bajarishda qatnashsa, bir mamlakatdan boshqasiga kapital sifatida harakat qilsa) valyutaga aylanadi. Demak, har qanday pul birligi ham valyuta hisoblanmaydi.

Valyuta munosabatlarini tartibga solish. Bozor iqtisodiyoti bilan bog‘liq jarayonlarni boshqarishda, milliy valyutani xalqaro mavqeyini belgilashda va mamlakatning joriy hamda kelajakdagi iqtisodiy munosabatlari tizimida valyuta siyosati muhim rol o‘ynaydi. Valyuta siyosatining shakli va o‘rni, mamlakat valyuta-iqtisodiy holati, jahon xo‘jaligi evolyutsiyasi, jahon maydonidagi o‘rni bilan aniqlanadi. Tarixiy rivojlanishga nazar soladigan bo‘lsak, birinchi navbatda har qanday valyuta siyosatining asosiy maqsadlari quyidagicha shakllanib kelmoqda: valyutaviy inqirozni bartaraf etish va valyuta qiymatini ta’minlanganligi, valyutaviy cheklashlar, valyutaning erkin almashinuvi, valyuta operatsiyalarini erkinlashtirish va boshqalar. Mamlakatlararo munosabatlarda valyuta siyosatining asosiy jihati: hamkorlik

va kelishuv, ya'ni rivojlanayotgan mamlakatlar ichki siyosatiga moliyaviy va maslahat xizmatlari orqali yordam berish.

Valyuta siyosati huquqiy jihatdan valyutaviy qonunlar asosida tartibga solinadi. Bularga huquqiy darajadagi chegaralarning o'rnatilishi, mamlakat ichkarisida va mamlakat tashqarisida valyuta qiymatliklari bilan bo'ladigan munosabatlarni tartibga solish, valyutaviy muammolar bo'yicha ikki tomonlama va ko'p tomonlama mamlakatlararo valyutaviy kelishuvlarni tuzish kiradi. Valyuta siyosatini amalga oshirishning asosiy yo'llaridan biri davlatning xalqaro hisob-kitoblari bajarilishini boshqarish va milliy, mamlakatlararo, hududlararo valyuta munosabatlarini amalga oshirishdan iborat. Valyutani tartibga solishning *bevosita yo'li* - bu qonuniy hujjatlar va hukumatning ijro organlari orqali amalga oshiriladi. *Bilvosita yo'li* - esa bu bozor agentlarining iqtisodiy harakatlanishiga, iqtisodiy usullar, xususan, valyuta-kredit usullari bilan ta'sir etadi.

Valyuta siyosati – bu valyuta munosabatlarini boshqarish va tartibga solish bo'yicha davlat tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar yig'indisidir.

Valyuta munosabatlarini tartibga solishda quyidagilar ishtirok etishadi:

- Yirik valyuta mablag'lariga ega bo'lgan xususiy korxonalar, valyuta munosabatlarida aktiv ishtirok etayotgan milliy va xalqaro banklar hamda korporatsiyalar.

- Moliya vazirligi, Markaziy bank, valyuta nazorati tashkilotlari.

Xalqaro valyuta munosabatlarini tartibga solish valyuta, kredit va moliya siyosatining quyidagi tamoyillari asosida shakllangan:

- Milliy iqtisodiyotda valyuta, kredit va moliya munosabatlarining bir-biriga o'zaro bog'liqligi.

- Xo'jalik munosabatlarini erkinlashtirish sharoitida bozor va davlat boshqaruvini bozor tomon yuz tutishi.

- Ikkinchi jahon urushidan so'ng jahon siyosiy va iqtisodiy maydonida asosiy kuch hisoblangan AQSH o'rnida uchta asosiy hamkorlik va qarama-qarshi markazlarning tashkil topishi: AQSH, G'arbiy Yevropa va Yaponiya.

- Jahondagi yetakchi valyutalar, kredit va moliya bozorlari, ya'ni suzib yuruvchi kurslar, foiz stavkalari, birja inqirozlari va boshqalar o'zgarishining barqaror emasligi.

- Bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lmagan ichki milliy iqtisodiy siyosatning xalqaro xo'jalikdagi integratsiyalashuvi.

Mamlakatlararo valyutani boshqarish tashkiloti bo'lib Xalqaro valyuta fondi (XVF) hisoblanadi.

Valyuta siyosati maqsad va shakliga ko'ra tarkibiy hamda joriy shakllarga bo'linadi. Tarkibiy valyuta siyosati jahon valyuta tizimi tarkibini o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli tadbirlar majmuyidir. Ular barcha mamlakatlarning maqsadlariga to'g'ri keladigan, alohida valyutalarni shakllantirishga qarshi qaratilgan valyuta tadbirlari orqali amalga oshiriladi. Tarkibiy valyuta siyosati joriy valyuta tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Joriy valyuta siyosati valyuta kursi, valyuta operatsiyasi, valyuta bozorining faoliyati va oltin bozorini qisqa vaqtda tezkorlik bilan boshqarishdir. Valyuta siyosatining quyidagi ikki shakli mavjud: diskont va deviz siyosati. Uning ko'rinishlari – valyuta intervensiyasi, valyuta zaxiralarni diversifikatsiyalash, valyutaviy cheklashlar, valyuta kursining tartibi, devalvatsiya, revalvatsiya.

Diskont siyosati bu Markaziy (Milliy) banklarning foiz stavka siyosati bo'lib, u valyuta kursiga ikki tomonlama ta'sir etish maqsadida olib boriladi. Foiz stavkasini oshirish bilan xorijiy investor mablag'lari mamlakat ichkarisiga jalb etiladi, valyuta oqimini kuchaytiradi, shu bilan birga inflyatsiya jilovlanadi va milliy valyuta qadri oshadi. Foiz stavkasi tushganida aksincha holat kuzatiladi. Diskont siyosati, asosan, kapital oqimi erkinlashtirilganida samara berishi mumkin.

Valyuta siyosatining bu shaklidan rivojlangan mamlakatlar to'lov balansini muvozanatlash maqsadida olib borishadi.

Ushbu jadvaldan ko'rib turganimizdek, keltirilgan mamlakatlarda foiz stavkalari turli darajada belgilangan. AQSH va Buyuk Britaniyada uzoq yillardan beri (1960 - yil oxirlaridan boshlab) to'lov balans defisiti kuzatilib kelmoqda, aksincha Yaponiya va Yevropaning bir qator, yetakchi davlatlari profisit to'lov balansiga ega. To'lov balansining defisiti, albatta, salbiy holat bo'lsada, profisitni ham ijobiy deb bo'lmaydi. Shu bois, jadval ma'lumotlarida ham aks etayotganidek, to'lov balans defisitiga ega davlatlar foiz stavkasini boshqalarga

nisbatan oshirishadi, o'z navbatida profisit kuzatilayotgan davlatlar kapital eksportini amalga oshirish bilan foiz stavkasini tushirishadi.

Nazorat uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatini amalga oshirishda qanday instrumentlardan foydalanadi?
2. Majburiy zaxiralar siyosati deganda nimalarni tushunasiz?
3. Pul-kredit siyosatining instrumenti sifatida majburiy zaxiralar qanday funksiyalarni bajaradi?
4. Xalqaro valyuta munosabatlariga ta'rif bering.
5. Xalqaro valyuta tizimi va milliy valyuta tizimining o'zaro bog'liqligi yuzasidan o'z fikrlaringizni bildiring.
6. Valyuta munosabatlarini tartibga solishda ishtirok etuvchi organlar qaysilar?

8-MAVZU. PUL, KREDIT VA QARZ

8.1. Pul-kredit multiplikatori

Pullar markaziy emissiya banki faoliyati natijasida yaratiladi. Pullarni yaratish jarayoni ikki bosqichdan iborat bo'ladi. Pullarni yaratish jarayonining **birinchi bosqichida** markaziy emissiya banki asosiy yo'nalishlar bo'yicha, shu jumladan, hukumatga, tijorat banklari, chet mamlakatlar, alohida korxonalariga bevosita kreditlarni berish yo'li bilan (agar amaldagi qonunlarda shunday tartib nazarda tutilgan bo'lsa), shuningdek, rasmiy oltin va valyuta zaxiralarini ko'paytirish orqali o'z aktivlarini ko'paytiradi. Markaziy emissiya banki aktivlarining ko'paytirilishi ayni bir vaqtda uning passivlarining ham tegishli o'sishini anglatadi, ya'ni pul bazasining tashkil etilishiga olib keladi.

Pul bazasi muomaladagi naqd pullardan, shuningdek, tijorat banklarining mamlakat Markaziy bankidagi majburiy va majburiy bo'lmagan (ixtiyoriy va ortiqcha) zaxiralardan iborat bo'ladi. Umuman olganda, tijorat banklarining zaxiralari deganda, mabodo bank omonatchilari to'satdan katta miqdordagi to'lov talablarini qo'ygani holda, uning tezkorlik bilan muomalaga kiritadigan aktivlari tushuniladi. Tijorat banklarining Markaziy bankdagi zaxiralari majburiy va majburiy bo'lmagan (ixtiyoriy va ortiqcha) zaxiralardan tarkib topadi.

Majburiy zaxiralar deganda tijorat banklarining Markaziy bankdagi omonatlari (depozitlari)ning qonuniy tartibda belgilab qo'yiladigan eng kam normasi tushuniladi. Majburiy bo'lmagan (ixtiyoriy, ortiqcha) zaxiralar deganda tijorat banklarining Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlarida majburiy zaxiralarning belgilangan normasidan ortiq miqdorda saqlanayotgan mablag'lari tushuniladi. Tijorat banklari majburiy bo'lmagan zaxiralar miqdorlarini o'z xohishiga ko'ra o'zgartirishi mumkin. Shu munosabat bilan e'lon qilinadigan statistika pul bazasini belgilashda bunday zaxiralarni muomaladagi naqd pullar tarkibida yuribdi deb hisoblab, ular ajratib ko'rsatilmaydi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul bazasining quyidagicha ta'rifi beradi:

Pul bazasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki muomalaga chiqargan naqd pullar va tijorat banklarining majburiy zaxiralari o'z ichiga oladi.

Pullarni yaratish jarayonining **ikkinchi bosqichida** tijorat banklari o'z mijozlari – korxonalar, tashkilotlar, aholini kreditlash uchun markaziy emissiya bankidan olgan kreditlardan foydalanadiki, bu pul massasining yaratilishiga olib keladi.

Pul massasi tijorat banklari tizimidagi pul bazasining oshishi natijasida vujudga keladi va muomaladagi naqd pullardan va mijozlar hisobvaraqlaridagi pullar qoldiqlaridan iborat bo'ladi.

Bank multiplikatori pullarning bir tijorat bankidan boshqa tijorat bankiga harakati davrida tijorat banklarining depozit hisobvaraqlaridagi pullarning ko'payishi jarayonidan iborat. Pul massasini ko'paytirishning ushbu mexanizmi faqat ikki darajali bank tizimi (markaziy va tijorat banklari) amal qiladigan va to'liq faoliyat yuritadigan sharoitda ishlashi mumkin. Bank multiplikatori mexanizmining amal qilishi jarayonida banklar mijozlarining hisobvaraqlarida pul mablag'larining to'planishi yuz beradi. Ushbu mexanizmning amal qilishi intensivligini hisob-kitob qilish uchun bank multiplikatori koeffitsientini hisob-kitob qilish formulasi qo'llaniladi:

1-R x 100% yoki pul massasi - R, bunda: R – markaziy bank belgilab qo'ygan majburiy zaxiralash normasi.

Bank multiplikatori mexanizmi quyidagi usulda faoliyat yuritadi: Markaziy bank qandaydir tijorat bankiga kredit beradi va o'z navbatida ushbu tijorat banki o'zining mijoziga kredit beradi. Mijoz ushbu taxminan 10 ta birlikdan iborat kreditdan o'z majburiyatlarini to'lash uchun foydalanadi. Pul mablag'lari boshqa iqtisodiy subyektga borib tushadi va u bu mablag'larni o'zining tijorat bankidagi depozitli hisobvarag'ida joylashtiradi. Bankning ikkinchi mijozining hisobvarag'ida 10 ta birlik mavjud. Bank ushbu summadan majburiy zaxiralash fondiga muayyan foizni ajratadi. Bankda, masalan, erkinmablag'larning 8 ta birligi qoladi va u ushbu mablag'larni yana kreditga beradi. Bu operatsiya faqat shunday farq bilan takrorlanadiki, to'rtinchi mijozning hisobvarag'ida endi 8 ta birlik mavjud bo'ladi. Bunday operatsiya muayyan muddat davomida takrorlanadi va natijada mijozlarning banklardagi hisobvaraqlarida aks ettiriladi.

Markaziy bank birinchi marta bergan 10 ta birlikdan oshadigan summa (10+8+ va hokazo) paydo bo'ladi. Shunday qilib, mazkur mexanizm iqtisodiyotga taqdim etilgan pul massasini muayyan summagacha naqd pulsiz shaklda ko'paytirishga imkon beradi, ushbu holatda belgilab qo'yilgan majburiy zaxiralash normasi qanchalik yuqori bo'lsa, kreditning aylanishi shunchalik tez tugaydi va bu mexanizmning amal qilishi natijasida qo'shimcha ravishda iqtisodiyotda shunchalik kam miqdordagi pullar paydo bo'ladi.

Pul massasi bilan pul bazasi o'rtasidagi nisbat pul multiplikatori deb ataladi.

$$\text{Pul multiplikatori} = \frac{\text{Pul muassasi}}{\text{Pul bazasi}}$$

Tijorat banklarining o'z mijozlariga (iqtisodiyotga) kreditlari bilan Markaziy bankning tijorat banklariga kreditlari o'rtasidagi nisbat kredit multiplikatori deb ataladi.

$$\text{Kredit multiplikatori} = \frac{\text{Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar}}{\text{Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga berilgan kreditlar}}$$

Muomaladagi pullar miqdorining o'sishi to'raligicha Markaziy bankning kredit emissiyasi bilan oldindan belgilanadi va har qanday yo'nalish bo'yicha muqarrar tarzda pul bazasining o'sishiga va multiplikatorning ta'sirida pul massasining ko'payishiga olib keladi.

Pul massasining ko'payishi inflyatsiya sur'atlariga ta'sir ko'rsatadi. Naqd pul mablag'larining emissiyasi emissiyaning naqd pulsiz shakldagi pullar emissiyasidan kelib chiqadigan ikkilamchi turidir. Emissiyaning bu turi Markaziy bank tomonidan o'tkaziladi. Emissiyaning ushbu shakli markazlashtirilmagan shaklda bo'ladi va mintaqaviy tijorat muassasalari (MTM)lari orqali amalga oshiriladi.

Ushbu kassalar qabul qilgan mablag'larning ortiqcha hajmi, ya'ni MTM bergan pullar miqdori tashkilotlar va banklarning MTMga qaytargan mablag'lar summasidan ortiq bo'lishi kerak. Naqd pullar depozit hisobvaraqlarida turgan naqd pulsiz shakldagi pul mablag'laridan hosil bo'ladi va tijorat banking bank multiplikatori mexanizmining amal qilishi natijasida yaratgan pul massasining tarkibiy qismidan iborat bo'ladi.

8.2. Inflyatsiyani targetlash rejimlari tavsifi

Hozirgi kunda inflyatsion targetlash pul-kredit siyosatini olib borishning eng ommabop usullaridan biri bo'lib, ushbu usul jahondagi 40 dan ortiq mamlakatlarda qo'llanilmoqda.

“**Target**” so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, “**maqsad**” degan ma'noni anglatadi. Inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi (target) o'rnatiladi.

Inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi (target)ga erishish uchun pul-kredit siyosati mexanizmlari bosqichma-bosqich ushbu rejimga o'tkazilib, inflyatsiyani pasaytirishda samarali instrument sifatida foydalaniladi.

O'z navbatida, ushbu rejimning qo'llanilishi narxlar barqarorligini ta'minlash orqali o'rta muddatli istiqbolda mustahkam va barqaror iqtisodiy o'sish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishi mumkin. Shu bilan birga, Markaziy bank inflyatsiya darajasining eng mos maqsad (target)ini aniqlab olib, unga pul-kredit siyosati instrumentlarini qo'llash, iqtisodiy rivojlanishni muntazam tahlil qilish va pul-kredit siyosati rejalarini keng yoritish orqali erishadi.

Bu rejim o'zining qabul qilingan standartlari va tartiblariga ega. Masalan, makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish tizimidan keng foydalangan holda qaror qabul qilish, suzuvchi valyuta kursidan foydalanish, kommunikatsiyaviy siyosat tamoyillari, valyuta intervensiyasi strategiyasi va boshqalar.

Markaziy bank inflyatsiyaning erishilishi zarur eng mos maqsad (target)ini (masalan, inflyatsiyaning 5 foizli darajasiga erishish) o'rnatib, ushbu targetni pul-kredit siyosati instrumentlaridan foydalanlan holda saqlashi lozim.

Narxlar barqarorligini ta'minlash inflyatsion targetlash rejimiga o'tishda samarali usullardan biri bo'lib, u o'z navbatida, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, Markaziy bankning bank tizimi va to'lov tizimlari ishlashining barqarorligini ta'minlash singari asosiy maqsadlari qatorida turadi

Nima uchun aksariyat mamlakatlar inflyatsion targetlash rejimini tadbir etmoqda?

Gap shundaki, past darajadagi va prognoz qilinadigan (barqaror)



inflyatsiya mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sish uchun juda zaruriy omil hisoblanadi. Binobarin, inflyatsion kutilma tijorat banklari tomonidan kredit ajratishda undagi foiz stavkasiga qo'shiladi hamda yuqori inflyatsion kutilma kredit foiz stavkasining yuqori bo'lishiga olib keladi.

Shunday qilib, tadbirkorlar qarz mablag' (kredit)lardan foydalanganliklari uchun hisoblangan foiz stavkalarining yuqori (yuqori inflyatsiya ta'sirida) bo'lishi, ularni qaytarish bilan bog'liq to'lovlarga ta'sir qiladi.

Agar foiz stavkalari (kredit uchun hisoblangan) yuqori bo'lsa, tadbirkorlar kamroq kredit oladilar. Bu esa ularning investitsiyaviy qobiliyatiga ta'sir etgan holda, uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir qiladi. Zero, biz bugun kiritayotgan investitsiyalar - ertangi kunda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda foydalaniladigan asosiy ishlab chiqarish manbalarini yaratishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Barqaror iqtisodiy o'sish uchun past darajadagi va prognoz qilinadigan (barqaror) inflyatsiya markaziy banklar uchun zaruriy shartlardan biri hisoblanadi.

Shu sababli, past darajadagi va prognoz qilinadigan (barqaror) inflyatsiyani ta'minlash aksariyat markaziy banklar tomonidan ularning uzoq muddatli maqsadi (target) sifatida belgilanadi.

Nima uchun inflyatsion targetlash rejimidan foydalanish kerak?

Inflyatsion targetlash rejimi bir necha makroiqtisodiy maqsadlarga erishish imkonini beradi:

- narxlarning keskin oshishi va yuqori inflyatsiyani oldini olish;

- pul bozorini shakllantirish, pul bozorini segmentlash sabablarini bartaraf etish;

- ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda, aholi va tadbirkorlarning to'lov qobiliyatini qo'llab-quvvatlash hamda moliya sektorining barqarorligini ta'minlash.

Inflyatsion targetlash rejimi qanday amalga oshiriladi?

Inflyatsion targetlash rejimini amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, quyidagi shartlar bajarilishi zarur:

- inflyatsiyaning doimiy targetini belgilash va uni keng jamoatchilikka yetkazish (*inflyatsiya, uning omillari hamda ko'zlangan inflyatsion target haqida aholini muntazam ravishda xabardor qilish*);


- inflyatsion jarayonlarni boshqarish va pul bozorida foiz stavkalarini tartibga solish maqsadida pul-kredit siyosati bo'yicha **instrumentlardan** (*REPO va valyutaviy svop auksionlari, depozit auksionlari hamda Markaziy bank obligatsiyalarini joylashtirish bo'yicha auksionlar*) keng miqyosda foydalanish;

- pul-kredit siyosati sohasida obyektiv qarorlar (*xo'jalik yurituvchi subyektlar holatini tahlil qilish: uy xo'jaliklari sohasi, tadbirkorlik sohasi, davlat boshqaruvi sohasi va tashqi dunyo*) qabul qilish uchun batafsil makroiqtisodiy tahlil qilish hamda ichki va tashqi bozorlarda mavjud bo'lgan ochiq ma'lumotlarni hisobga olgan holda prognozlash;

- pul-kredit siyosati **maqsadlari** (*narxlar barqarorligi, kreditlarning ommabopligi, past darajadagi inflyatsiya, aholining milliy valyutaga bo'lgan ishonchini oshirish va hokazo*)ni keng jamoatchilikka etkazish uchun kommunikasiyaviy siyosatni takomillashtirish, makroiqtisodiy holatni prognoz qilish imkoniyatini ta'minlash hamda bozor ishtirokchilari ishonchini shakllantirish

Inflyatsion targetlash rejimi sharoitlarida pul-kredit siyosatining qanday instrumentlari qo'llaniladi?

Inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiya darajasini ushlab turish uchun pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlaridan biri bo'lib, Markaziy bank tomonidan belgilanadigan asosiy stavka hisoblanadi. Markaziy bank asosiy stavkani o'zgartirish orqali tijorat banklari



tomonidan omonat va kreditlar bo'yicha taklif etiladigan foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu o'z navbatida, umumiy talab orqali iqtisodiyotdagi narx darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda inflyatsion targetlash rejimi

Yuqoridagilardan kelib chiqib, inflyatsion targetlash deganda – oldindan belgilanadigan inflyatsiya darajasi (target)ni keng jamoatchilikka e'lon qilish hamda ushbu ko'rsatkichga erishish va uni saqlab qolish jarayoni tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tilayotgan bo'lib, 2023-yilda 5 foiz darajadagi inflyatsion maqsad (target)ga erishish rejalashtirilgan.

8.3. Likvidlilik konsepsiyasi

Ushbu konsepsiya 1958-yilda AQSHda ishlab chiqilgan edi. O'sha davrlarda AQSH to'lov balansi holatining keskin yomonlashuvi va dollarning inqirozi Savdo vazirligi tomonidan to'lov balansi tuzish va uning kamomadini o'lchash uslublarini tanqidiy nuqtayi nazardan qayta ko'rib chiqishga majbur etdi. Qisqa muddatli kapital harakatiga nisbatan munosabat ham qayta ko'rib chiqildi va bunda xorijlik xususiy shaxslar va rasmiy organlar qo'lidagi likvid dollarli aktivlarga muhim ahamiyat berildi. Bu esa o'z navbatida yangi yondashuvning mazmuni va nomini belgilab berdi.

Pul massasi darajasini hisoblashning asosiy tamoyillaridan biri mablag'larni likvidlilik darajasi hisoblanadi. Muomaladagi pulning turlari pul agregatlari bilan guruhlariga ajratiladi. Unga ko'ra muomaladagi mablag'lar likvidlilik bo'yicha tasniflanadi, ya'ni dastlab yuqori likvidli mablag'lar past likvidligiga qarab M1, M2, M3, ..., Mn yoki L agregatlarga ajratiladi. Pul agregatlari tarkibi va soni turli mamlakatlarda turlichadir.

AQSHda naqd va naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshiradigan pullar likvidlilik darajasiga qarab quyidagi pul agregatlari bilan belgilanadi:

- $M1$ = naqd pullar (banknotlar va tangalar), talab qilib olguncha saqlanadigan depozitlar, pul cheklari, boshqa chek depozitlari;
- $M2$ = $M1$ + chek bo‘lmagan jamg‘arma depozitlar, muddatli jamg‘armalar (100 ming dollargacha);
- $M3$ = $M2$ + 100 dollardan yuqori muddatli jamg‘armalar, jamg‘arma sertifikatlar va boshqalar;
- L = $M3$ + xazina jamg‘arma obligatsiyalari, davlatning qisqa muddatli majburiyatlari, tijorat qimmatli qog‘ozlar va boshqalar.

Likvidlik konsepsiyasi AQSH dollarining zaxira valyutasi ekanligi hamda xalqaro to‘lov va zaxira vositasi sifatida ishlatilishidan kelib chiqqan edi. Bundan, AQSH AQSH dollarlaridan chayqov maqsadida foydalanilishiga qarshi kurashga doim tayyor bo‘lib turishi kerak. Buning uchun esa, norezident shaxslarda qancha likvidli dollarli aktivlar borligini bilish darkor. Ushbu summaning o‘simini esa to‘lov balansining saldosi ko‘rsatishi kerak edi. Shu sababli, likvidlilik konsepsiyasiga muvofiq, negizli shartnomalar tarafdorlari tomonidan kiritiladigan moddalardan tashqari, asosiy moddalar qatoriga yana 3 ko‘rinishdagi shartnomalar kiradi: qisqa muddatli xususiy milliy kapital harakati, xorijiy tijorat kreditlari va “xatolar va o‘tkazib yuborishlar” moddasi bo‘yicha saldo.

Savdo vazirligining fikri bo‘yicha, AQSHning xalqaro likvidli pozitsiyasidagi o‘zgarishlarni aks ettiruvchi moddalar balanslashtiruvchi sifatida olinadi. Balanslashtiruvchi moddalarga quyidagi o‘zgarishlar kiradi: Amerika valyuta zaxiralari (XVFga badalni hisobga olgan holda), AQSHning xorijlik rasmiy tashkilotlar va xususiy shaxslar oldidagi likvidli majburiyatlari. Ushbu konsepsiyaning o‘ziga xosligi shundaki, u AQSH davlat valyuta zahiralari va Amerika xususiy egalari qo‘lidagi valyuta aktivlarini ayirboshlash imkonini beradi.

XVFda qabul qilingan, to‘lov balansi moddalarining tasnifiga ko‘ra likvidlilik konsepsiyasi bo‘yicha saldo birmuncha shartlashuvlar bilan (“S” guruhiga aloqador), asosiy deb hisoblanuvchi, A+V+S+D guruhlari operatsiyalari bo‘yicha saldolarining summasiga

muvofiqdir. Ushbu saldo, E+F+G+H guruhlari bo'yicha olingan yalpi saldo hajmi bilan, teskari (manfiy) ifoda bilan balanslashtiriladi.

Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT) tomonidan qabul qilingan tasnifda likvidlilik konsepsiyasi yaqqol aks etgan. Avval u o'zida birmuncha qarama-qarshiliklarni mujassam etgan edi. Qisqa muddatli kapital bilan bir qator operatsiyalarning to'lov balansi asosiy moddalari qatoriga kiritilishi yetarli darajada asoslanmagan edi. Xususan, amerikalik xususiy shaxslar qo'lida turgan xorijiy valyutalar aktivlarini to'lov balansiga kiritilishining asosiy sababi shundaki, AQSH qonunchiligi davlat moliya organlariga ulardan, rasmiy zahiralarga qo'shimcha ravishda, dollarni himoyalashda foydalanishni qiyinlashtirib qo'ygan edi. "Xatolar va o'tkazib yuborishlar" moddasi bo'yicha saldo qisqa muddatli kapital harakati bilan bog'lanmagan bo'lib, ushbu hol xalqaro hisob-kitoblar hisobini yuritishning kamchiliklari bilan izohlanar edi.

Balanslashtiruvchi moddalar qatoriga AQSH ning xususiy qisqa muddatli majburiyatlar o'zgarishini kiritilishi ushbu majburiyatlarga, dollarga bo'layotgan yaqqol xavf sifatida qarashni aks ettirar edi. Haqiqatda ham AQSH qonunchiligiga muvofiq, dollarlarning xorijlik egalari ularni bevosita AQSH g'aznaxonasida oltinga almashtira olmas edilar. Ammo AQSH dollariga ishonch yo'qolgan paytda xorijlik xususiy banklar o'z dollarlik aktivlarini Markaziy banklarga sotish imkoniyatiga ega bo'lgan edilar, Markaziy banklar esa o'z navbatida ushbu dollarlarni AQSH g'aznasiga oltinga almashtirishga taqdim qilar edilar. 1958-yildagi AQSH to'lov balansining yirik kamomadi hukumat va Moliya doiralarida katta bezovtalanishni keltirib chiqardi. Bu esa, o'z navbatida, kamomadni o'lchash uslublariga bo'lgan ishonchsizlikda o'z ifodasini topdi.

Likvidlilik konsepsiyasi endigina paydo bo'lib, qattiq tanqidga uchradi. Biroq AQSH Savdo Vazirligi uni himoya qilish va amalda qoldirishga muvaffaq bo'ldi. Likvidlilik konsepsiyasi dollar zahira valyutasi maqomiga ega bo'lganligi sababli, rasmiy konsepsiya sifatida faqatgina AQSH to'lov balansiga nisbatan foydalanilgan. AQSH to'lov balansining yirik kamomatlari boshidanoq ushbu konsepsiyani gumon ostiga qo'ydi.

Nazorat uchun savollar

- 1. Bank multiplikatori mexanizmi qanday usulda faoliyat yuritadi?**
- 2. Pul multiplikatori deb nimaga aytiladi?**
- 3. Inflyatsiyani targetlash rejimi mohiyati nimadan iborat?**
- 4. Nima uchun inflyatsion targetlash rejimidan foydalanish kerak?**
- 5. Inflyatsion targetlash rejimi qanday amalga oshiriladi?**
- 6. O'zbekistonda inflyatsion targetlash rejimi to'g'risida ma'lumot bering.**
- 7. Likvidlilik konsepsiyasi haqida nimalarni bilasiz?**

9-MAVZU. PUL-MOLIYA ORGANLARI VA MOLIYA BOZORI

9.1. Naqd pul muomalasini boshqarishning makroiqtisodiy barqarorligi

Naqd pul muomalasi naqd pul orqali amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlar bo'lib, bunda iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi o'zaro tovarlar va qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi, ko'rsatilgan turli madaniy va maishiy xizmatlar, sug'urta, kommunal to'lovlari, naqd pulda kreditlar olish va qaytarish, lotereya biletleri harid qilish, korxonalar va tashkilotlar tomonidan ishchi va xizmatchilarga naqd pulda ish haqi to'lash hamda boshqa majburiy to'lovlar amalga oshiriladi.

Shuningdek, **naqd pul muomalasi** davlat budjetining naqd pulda shakllanadigan va taqsimlanadigan qismini ham o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu jarayon, bir tomondan aholi va yakka tadbirkorlarning budjet oldidagi soliq va boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirish jarayonlarini, ikkinchi tomondan esa davlat budjeti tomonidan aholiga naqd pulda pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy to'lovlarni amalga oshirish jarayonlarida o'z aksini topadi.


Naqd pul aylanmasi esa naqd pullarning ma'lum davrdagi harakatlar yig'indisidan iborat bo'lib, u naqd pul muomalasidagi naqd pullar harakatidan tashqari pul muomalasini tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan harakatlar yig'indisini ham o'z ichiga oladi. Naqd pullarning aylanmasi va uning tarkibiy qismlarini quyidagi paragrafda batafsil ko'rib chiqamiz.

Naqd pullar aylanmasi yuqorida qayd etilganidek, iqtisodiy subyektlar o'rtasida yuz beradigan pul muomalasi va uni tashkil qilish bilan bog'liq naqd pullar harakatini o'z ichiga oladi. Shundan kelib chiqib, uni ikki qismga – pul muomalasini tashkil qilish va pul muomalasidagi harakatlarga bo'lish mumkin.

Bunda shuni yodda tutish kerakki, pul aylanmasining bu ikki qismi bir-biridan ajralgan holda alohida mustaqil pul aylanishi bo'lmasdan, balki o'zaro bog'liq bo'lgan bir butun jarayondir. Aslida pul iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish uchun zarur. Lekin pul mazkur iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirar ekan, u ayni paytda mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida harakatda bo'ladi va o'zining vazifasini

to'laqonli va bekamiko'st ado etish uchun qo'shimcha harakatlar qilishga majbur bo'ladi. Bu yerda gap, pul muomalasini tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan pulning harakati ustida ketmoqda.

Pul muomalasini tashkil qilish jarayoni naqd pul (banknot va tangalar) larni ishlab chiqish, ularni muomalaga tayyorlash, saqlash va iqtisodiy subyektlarga yetkazib berish, muomaladan ortiqcha va yaroqsiz pullarni olish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayon naqd pullarni pul ishlab chiqarish fabrikasidan Markaziy bank muassasalariga keltirish, ulardan tijorat banklariga yetkazib berish va nihoyat tijorat bank filiallari tomonidan mijozlarni naqd pulga bo'lgan talabini qondirishdan iborat.



1-chizma. Naqd pullar aylanmasining tarkibiy qismlari

Albatta, pul muomalasini tashkil qilish Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi, lekin naqd pullar oqimining asosiy qismi tijorat banklarining kassalari orqali harakat qiladi. Natijada, tijorat banklari ham naqd pul muomalasini boshqarishda bilvosita ishtirok etadilar.

Demak, pul muomalasini tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan pulning harakati ikkita pul oqimlaridan iborat, bular:

1. Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga naqd pullarni yetkazib berish va tijorat banklaridan ortiqcha va muomalaga yaroqsiz naqd pullarni qabul qilish bilan bog'liq pul oqimi.

2. Tijorat banklari tomonidan mijozlarni naqd pulga bo'lgan talabini qondirish uchun naqd pul berish va naqd pul tushumiga ega bo'lgan korxonaga va tashkilotlarning naqd pul tushumlarini qabul qilish (inkassatsiya) bilan bog'liq pul oqimi.

Naqd pul muomasidagi pul harakati uchta pul oqimini o'z ichiga oladi, ya'ni:

- korxonaga va tashkilotlar o'rtasidagi;
- korxonaga va tashkilotlar bilan aholi o'rtasidagi;
- alohida shaxslar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish jarayonlari bilan bog'liq naqd pul oqimi.

Korxonaga va tashkilotlar o'rtasidagi naqd pul ishtirokida amalga oshiriladigan to'lovlar hajmi o'ta chegaralangan bo'lishiga qaramasdan, ular o'rtasida ayrim to'lovlar hanuzgacha naqd pulda amalga oshirilib kelinmoqda.

Naqd pul muomalasining asosiy qismi korxonaga va tashkilotlar bilan aholi o'rtasidagi pul munosabatlari bilan bog'liq naqd pullar oqimidan iborat. Unga korxonaga va tashkilotlar tomonidan ishchi va xizmatchilarga naqd pulda mehnat haqi, stipendiya, pensiya va boshqa ijtimoiy nafaqalar berish, ular o'rtasidagi o'zaro tovarlar va qimmatli qog'ozlar oldi – sotdisi, ko'rsatilgan turli madaniy va maishiy xizmatlar, sug'urta, transport, kommunal to'lovlari, naqd pulda kreditlar olish va qaytarish (shu jumladan banklardan ham), omonatlarga pul qo'yish va olish, lotereya biletleri harid qilish, jarima va ustamalar hamda boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirishdagi naqd pullar harakati kiradi. Yuqoridagi funksiyalarini bajarish mobaynida naqd pullar murakkab yo'lni bosib o'tadilar. Ya'ni muomalaga zarur pul mablag'lari Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga, ular tomonidan esa o'z o'rnida xo'jalik subyektlari va aholigacha chiqariladi. Xo'jalik subyektlari va aholi qo'lidagi pul mablag'lari savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarini orqali yana tijorat banklariga qaytib keladi. Tijorat banklari va ularning filiallari yana o'zlari xizmat ko'rsatayotgan korxonaga va tashkilotlarga hamda aholigacha qonunchilikda belgilangan to'lovlarni amalga oshirish uchun naqd pullar berishadi. Shunday qilib, naqd pullar tijorat banklaridan chiqib yana tijorat banklariga qaytadi va doimiy aylanishda bo'ladi.

Naqd pullarning tijorat bankidan chiqib yana tijorat bankiga qaytib kelish harakati ularning doiraviy aylanmasi deyiladi.

Tijorat banklari faqat muomaladan vaqtincha ortiqcha bo'lgan va muomalaga yaroqsiz naqd pullarni Markaziy bank muassasalariga topshirishadi. Naqd pullarning Markaziy bankdan tijorat banklariga chiqishi muomalaga pul chiqarish, ya'ni Markaziy bankning emissiya operatsiyasi, tijorat banklaridan Markaziy bankka qaytib kelish harakati muomaladan pul olish operatsiyasi deyiladi.

Naqd pullar aylanishini mamlakatimiz misolida 2-chizmada aks ettirilgan.

1. Markaziy bank buyurtmasiga ko'ra, pul fabrikasida ishlab chiqarilgan naqd pullarni Markaziy bank va uning muassasalariga maxsus inkassatorlar apparati orqali yetkazib berish.

2. Markaziy bank tijorat banklari buyurtmalariga va pul-kredit siyosati ko'rsatgichlariga, asosan, tijorat banklariga inkassatorlar orqali naqd pullar yetkazib berish. Markaziy bank Hisob-kitob markazlari kassasidan faqat o'z mijozlariga qonunchilikda belgilangan to'lovlar uchun naqd pullar berish.

3. Tijorat banklari va ularning filiallari tomonidan o'zlari xizmat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarga qonunchilikda belgilangan to'lovlarni amalga oshirish uchun naqd pullar berish.

4. Korxonalar va tashkilotlar tomonidan ishchi va xizmatchilarga mehnat haqi, stipendiya, pensiya va boshqa ijtimoiy nafaqalar berish, shuningdek, qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa to'lovlarni amalga oshirish.


5. Aholi tomonidan korxonalar va tashkilotlardan naqd pullarga tovarlar va qimmatli qog'ozlar, lotereya biletleri harid qilish, ko'rsatilgan turli madaniy va maishiy xizmatlar, transport, sug'urta, kommunal to'lovlari, jarima va ustamalar hamda boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirish.

6. Korxonalar va tashkilotlar tomonidan naqd pul tushumlarini tijorat bank kassalariga topshirish (inkassatsiya qilish).

7. Jismoniy shaxslar tomonidan tijorat banklaridan naqd pulda kreditlar, omonatlardagi pul qo'yilmalari, dividend va naqd puldagi boshqa daromadlarini olish.

8. Jismoniy shaxslar tomonidan tijorat banklariga naqd pulda kreditlarni qaytarish, omonatlar qo'yish va boshqa to'lovlarni amalga oshirish.

9. Tijorat banklari tomonidan muomalaga yaroqsiz va ortiqcha naqd pullarni Markaziy bankka topshirish.



2-chizma. Naqd pul aylanmasi

Yuqoridagi chizmaning 4 va 5 – bosqichlar naqd pullarning bankdan tashqari aylanmasini o‘z ichiga oladi, ya’ni naqd pullarning bu harakati banklarni chetlab o‘tadi. Naqd pullarning bu aylanmasining ma’lum qismi, aholi va xo‘jalik subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan noqonuniy faoliyat turi hisoblanadi. Shuning uchun dunyoning barcha mamlakatlarida naqd pullarning bankdan tashqari aylanmasiga barham berish uchun ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Respublika Hukumati tomonidan naqd pullarning bankdan tashqari aylanmasini qisqartirish bo‘yicha muntazam ravishda katta tadbirlar o‘tkazilib kelinmoqda. Xususan, “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va

terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida"gi qonunni qabul qilinishi ham aynan shu masalalarning ijobiy yechimini ta'minlashga qaratilgan.

Qonunda u quyidagicha bayon qilingan "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish mulk (pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk) jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berishdan, shuningdek, bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbayini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini yoxud pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki ularning kimga qarashliligini yashirishdan yoxud sir saqlashdan iborat bo'lgan, jinoiy jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmishdir".

Mazkur qonunga binoan banklar pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilot sifatida qaralib, ularga majburiy nazoratni amalga oshirish maqsadida yuridik yoki jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni ular taqdim etgan hujjatlar asosida aniqlash yoki identifikatsiyalash vazifasi yuklatilgan.

Lekin bankdan tashqari pul aylanmasi qonunda ko'zda tutilgan pul mablag'lari bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar tomonidan ham qayd etilmaydigan pul aylanmasiga ega. Masalan, mamlakatga noqonuniy olib kirilgan yoki xufiyona ishlab chiqarilgan tovarlarni uyushmagan bozorlarda aholiga sotish, dehqon bozorlaridagi mahsulot oldi-sotdi operatsiyalari qonunda ko'rsatilgan birorta tashkilot tomonidan rasman qayd etilmaydi yoki ularni identifikatsiyalash deyarli mumkin emas. Pulning bu aylanmasini faqat maxsus izlanishlar va tadqiqotlar o'tkazish orqali aniqlash mumkin.

Ayrim mamlakatlarda pul muomalasini tartibga solish uchun uning amal qilish doirasiga chegaralar o'rnatilgan. O'zbekistonda naqd va naqdsiz pul o'rtasidagi mavjud farqqa barham berib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 790-moddasiga muvofiq fuqarolar o'rtasidagi tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan hisob-kitoblar hamda fuqarolar bilan korxonalar va tashkilotlar o'rtasidagi tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq ayrim hisob – kitoblar naqd pulda amalga oshirilishi belgilangan. Yuridik shaxslar o'rtasidagi tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq barcha to'lovlar naqd pulsiz shakllarda amalga oshiriladi. Respublikaning aksariyat pul aylanmasi

korxonalar va tashkilotlar o'rtasida amalga oshirilishi sababli, umumiy pul aylanmasida naqd pul aylanmasining ulushi ancha kamdir.

Demak, naqd pul muomalasi, asosan, jismoniy shaxslarning naqd pul shaklidagi daromad va harajatlarining harakatidan iborat bo'lib, aholining kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan to'lovlarda qo'llanilmoqda. Shu bilan birgalikda, mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq ayrim to'lovlarni ham naqd pulda amalga oshirishga ruxsat berilgan.

Naqd pul muomalasining o'rni va zaruriyati

Bugungi kunda jahon hamjamiyati erishgan yuksak texnologik yutuqlaridan foydalanilgan holda pul muomalasida naqd pullar o'rnini bank (yoki boshqa kredit tashkilotlari) hisobvaraqlari bo'yicha yozuvlar va turli elektron to'lov hujjatlari egallab borayotganligiga qaramasdan barcha mamlakatlar iqtisodiyotida naqd pul muomalasi saqlanib qolmoqda.

Naqd pul muomalasining ulushi Buyuk Britaniya, Yaponiya va AQSH kabi yuksak darajada rivojlangan mamlakatlarda umumiy pul aylanmasining 2 – 8% ini tashkil etgan bo'lsa, iqtisodiyoti o'tish jarayonidagi va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatgich nisbatan yuqorilgicha qolmoqda.

Mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanish tarixi shuni ko'rsatmoqdaki, eng rivojlangan mamlakatlarda ham naqd pul muomalasi hali o'zining muqim o'rnini egallab turibdi. Shuning uchun ham naqd pul muomalasini tashkil etish bilan bog'liq masalalar hali birorta mamlakatning kun tartibidan olib tashlangani yo'q.

Shu o'rinda, haqli savol tug'iladi. Nima uchun, eng rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida ham naqd pul muomalasi hanzuz saqlanib qolmoqda? Qanday omillar borki, ularning ta'siri ostida naqd pullar o'rnini eng zamonoviy texnik vositalar ham bosa olmayapdi.

Naqd pul muomalasini saqlanib qolishiga avvalo, aholi o'rtasida kichik hajmdagi chakana va uyushmagan savdo hamda naqd pulli xizmatlarning mavjudligi sabab bo'lmoqda. Bunday savdo va xizmatlar uchun to'lovlarni texnik vositalar qo'llash yo'li bilan amalga oshirish mumkin emas. Har qanday kichik savdo shahobchasiga, barcha transport vositalariga yoki aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatuvchi hamma kichik korxonalar (firmalar)ga ham qimmatbaho qurilmalar bo'lmish bankomat va terminallar o'rnatish iqtisodiy jihatdan samara

beravermaydi. Qolaversa, bugungi kunda eng rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida ham yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati saqlanib qolmoqdaki, ushbu faoliyatni amalga oshirish albatta, naqd pullardan foydalanishni taqozo etmoqda. Bizning Respublikamizda esa ushbu omilning ta'siri juda kuchli. Chunki aholining tomorqa xo'jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlarni dehqon bozorlarida sotish mutlaqo naqd pul yordamida amalga oshiriladi.

Naqd pul muomalasini saqlanib qolishiga nafaqat ayrim tovarlar va xizmatlarni naqd pulsiz to'lab berish imkoniyati mavjud emasligi, balki *naqd pullarning yuqori likvidlik qobiliyatiga ega ekanligi* ham katta ta'sir etadi. Iqtisodiyotdagi barcha aktivlarning sifat darajasi ularning qancha daromad keltirish qobiliyati bilan bir qatorda likvidlik, ya'ni qo'shimcha xarajatlarsiz pulga aylanish qobiliyati bilan ham baholanadi. Naqd pullar mutlaq likvidli aktivlar hisoblanadi. Bank hisobvaraqlaridagi naqdsiz pul mablag'lari ham likvidlik darajasi bo'yicha naqd pullarga qaraganda past likvidli aktivlar hisoblanadi. Naqd pul banknotlari va tangalar muomalaga yagona emissiya banki – *Markaziy bank* (Milliy bank, Federal xazinalar tizimi) tomonidan chiqariladi va ular yuqori likvidli aktivlar (oltin, xorijiy davlatlar valyutasi va boshqa yuqori likvidli majburiyatlar) bilan ta'minlangan. Shuning uchun barcha aktivlarning, jumladan plastik kartochkalar, bank omonatlari yoki boshqa depozitlaridagi mablag'larning ham likvidlilik darajasi naqd pulga aylanish qobiliyati bilan o'lchanadi.

Shuningdek, *naqd pullar ishonchli va oson to'lov vositasidir*. Bugungi kunda erishilgan eng qulay va mukammal texnik vositalar ham har qanday pulli hisob – kitoblarni naqd pulchalik tez va oson bajarishga qodir emas. Tovarlarni va xizmatlarni uchun to'lovlar naqd pullar bilan amalga oshirilganda, sotuvchida ham oluvchida ham o'z xatti-harakatlaridan hech qanday shubhaga o'rin qolmaydi.

Bundan tashqari, naqd pullarning yashovchanlik qobiliyati, uning *odamlar ruhiyatiga singib ketgan mo'jizakor kuchining ta'siri* bilan o'lchanadi. Kishilar ongida naqd pullar hali ham o'zlarining tarixiy ajdodlari bo'lmish *haqiqiy oltin pullarning vakillari* bo'lib qolmoqda. Azal-azaldan naqd pullar kishini jamiyatdagi ijtimoiy haq-huquqini tasdiqlovchi guvohnoma vazifasini o'tab kelmoqda. Shu sababli, har bir shaxs cho'ntagida omonat daftarchasi, plastik kartochni yoki uning

o‘rmini bosuvchi biror hujjat olib yurgandan ko‘ra naqd pullarning o‘zini olib yurishni afzal ko‘radi.

Odamlar iqtisodiy hayot jarayonlarini begonalarning aralashuvisiz (anonim) boshqarishni hush ko‘radilar, zero naqd pulli hisob – kitoblar har bir shaxsning o‘ziga xos maxfiy xatti harakati hisoblanadi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar esa bunday talabni bajarishga qodir emas, chunki unda albatta uchinchi shaxs bo‘lgan banklar ishtiroki muqarrardir.

Bundan tashqari, aholining naqd pul bilan hisob-kitoblar qilishga moyilligi bank tizimiga bo‘lgan ishonch va banklar tomonidan zarur to‘lovlarni qanchalik darajada amalga oshirish qobiliyati bilan ham o‘lchanadi. Agar, aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchi mustahkam bo‘lsa, ular qo‘llaridagi vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini bank omonotlariga topshiradilar hamda banklar tomonidan naqd pullar o‘rniga oson va tez amalga oshirish mumkin bo‘lgan naqd pulsiz hisob – kitoblarning turli shakllari taklif qilib borilsa, naqd pul muomalasi shunchalik qisqarib boraveradi. Qolaversa, aholi bank tomonidan ularning omonatlarga foizlar to‘lashdan oladigan daromadlardan manfaatdordirlar.

Shu bilan birga, yana shunday omilni qayd etib o‘tish zarurki, naqd pul muomalasining mavjudligi har bir *millatning dunyoqarashi va hayot tarziga* ham bog‘liqdir. Ma‘lumki, o‘zbek xalqining ko‘pdan ko‘p udum va marosimlari bevosita naqd pullar yordamida amalga oshirilayotganligi ham mamlakatimizda naqd pul muomalasi salmog‘ini oshiradi.

Naqd pul muomalasining zaruriy qo‘llanishiga aholining demografik joylashishi ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu omilning ta‘siri, ayniqsa, bizning Respublikamizda sezilarli darajada saqlanib turibdi. Respublika aholisining aksariyat qismi qishloq hududlarida istiqomat qilayotganligi ushbu omil ta‘sirini kuchaytirmoqda.

Naqd pullarning iqtisodiy jihatdan zaruriy mavjudligi uning huquqiy asoslarini ham saqlanib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Barcha mamlakatlarning qonunchilik hujjatlarida naqd pullar asosiy to‘lov vositasi va milliy pul tizimining asosi deb qayd qilingan. Demak, naqd pullar qonunchilik asosida davlat tomonidan himoyalangan. Qolaversa, qonunchilik hujjatlarida ham naqd pullarning naqdsiz pul mablag‘lariga nisbatan ustuvor xususiyati saqlanib qolganini sezish qiyin emas.

Deyarli barcha mamlakatlarda naqd pul banknotlari va tangalar muomalaga yagona emissiya banki – Markaziy bank (Milliy bank,

Federal zaxiralar tizimi) tomonidan chiqariladi va naqd pullar Markaziy bankning soʻzsiz bajarishi shart boʻlgan majburiyati hisoblanadi.

Plastik kartochkalar, bank omonatlari yoki boshqa depozitlaridagi mablagʻlar esa tijorat banklarining majburiyatlari hisoblanadi va ularning bajarilish darajasi oʻsha tijorat banking moliyaviy holati bilan baholanadi. Bozor iqtisodiyotidagi mavjud kuchli raqobat har qanday tijorat banking faoliyatini xavf-xatardan holi qoldirmaydi. Toʻgʻri, har bir mamlakatda bank majburiyatlari maʼlum jihatdan davlat tomonidan kafolatlanadi, jumladan bizning Respublikada ham “Fuqoralarning banklardagi omonatlarini kafolatlari toʻgʻrisida” qonun qabul qilingan, lekin har qanday sharoitda ham ular naqd pullar ega boʻlgan bexatarlikni toʻliq kafolatlay olmaydi.

Naqd pul muomalasi oʻz oʻrnida salbiy xususiyatlarga ham egadir. Chunonchi, naqd pul muomalasini tashkil qilish va boshqarish, yaʼni naqd pullarni muomalaga chiqarish, saqlash, tashish hamda ularni muomalaga tayyorlash bilan bogʻliq katta harajatlarni talab qiladi. Muomalaga yaroqsiz holga kelgan naqd pul biletlarini yoʻq qilish ham maxsus tadbirlar orqali katta harajatlar evaziga amalga oshiriladi.

Naqd pullar oʻrniga tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilayotgan plastik kartochkalar ham oʻz oʻrnida katta harajatlar va tadbirlarni amalga oshirishni talab qilmoqda. Bundan tashqari, plastik kartochkalar, albatta, naqd pulga almashish qobiliyatini saqlab qolmogʻi zarur, aks holda ularni aholi oʻrtasida keng targʻib qilib boʻlmaydi. Buning uchun esa aholi uchun qulay joylarda qimmatbaho qurilmalar – bankomat va terminallar qoʻyishga toʻgʻri kelmoqda. Yana shuni alohida qayd etish kerakki, aholining naqd pulga boʻlgan ehtiyojini xohlagan vaqtda qondirish uchun bankomatlarga bir vaqtda katta miqdordagi naqd pullarni qoʻyishga toʻgʻri kelmoqda. Bu esa, oʻz oʻrnida katta miqdordagi naqd pullarga boʻlgan talabni vujudga keltirmoqda.

Bundan tashqari, naqd pullardan belgilangan tartibda foydalanmaslik xufyona iqtisodiyotni rivojlanishiga yoʻl ochib beradi va ayrim yuridik va jismoniy shaxslarga noqonuniy faoliyat yuritib mehnatsiz daromad orttirish uchun xizmat qiladi.

Naqd pullar uchinchi subyekt aralashuvisiz harakatda boʻlganligi uchun aynan uning yordamida terrorizm, giyohvandlik moddalari bilan biznes qilish kabi oʻta xavfli jinoyatlar amalga oshiriladi. Shuning uchun dunyoning koʻpgina mamlakatlarida pul muomalasi terrorizmni

moliyalashtirish va giyohvandlik moddalari bilan biznes qilishning oldini olish maqsadida qonunlar qabul qilingan. Jumladan, bizning Respublikamizda ham 2006-yilning 1-yanvaridan boshlab “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun kuchga kirdi.

Bundan tashqari, naqd pul muomalasi bizning yodimizdan ko‘tarilgan “pul fetishizmi” (pulga sig‘inish)ni tomir otishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, hamma narsa pulga olib – sotilishi mumkin bo‘lgan bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlar ongini oson pul topishga ruju qo‘yish kabi illatlar bilan zaharlaydi.

Naqd pullarning ijobiy va salbiy xususiyatlari bo‘lishidan qat’i nazar, ular bugungi kunda yuqorida qayd etilgan obyektiv omillar ta’sirida dunyoning barcha mamlakatlarida amal qilib turibdi.

9.2. Valyuta tizimining mohiyati, tashkil etilish shakllari va roli. Milliy valyuta tizimi

Valyuta tizimi – bu, xo‘jalik aloqalarini baynalmilallashuvi asosida tarixan shakllangan, valyuta amali bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir. Valyuta tizimining mohiyati, tashkil etilish shakllari va roli jamiyatning iqtisodiy tizimi bilan belgilanadi.

Valyuta tizimi davlat, rezident va norezident shaxslarga tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun sharoit yaratib beradi. Subyektlarning ushbu faoliyati amalga oshishida valyuta qonunchiligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahon valyuta tizimi – bu, jahon bozori (xo‘jaligi) ning rivojlanishi asosida shakllangan va davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil etish shaklidir. Jahon valyuta tizimining tashkiliy asosi bo‘lib, milliy valyuta tizimi hamda ushbu tizimga kirayotgan har bir mamlakat valyuta mexanizmini tashkil etilishining davlat-huquqiy shakli hisoblanadi. Jahon valyuta tizimi XIX asrning o‘rtalariga kelib shakllandi. Jahon valyuta tizimi milliy valyuta tizimi elementlari bilan yaqindan aloqada bo‘lgan ma’lum bir elementlarni o‘z ichiga oladi. Ular quyidagilar:

- Zaxira valyutalari, xalqaro hisob-kitob valyuta (pul) birligi (SDR);
- valyutalarning o‘zaro konvertatsiya qilinish shartlari;
- valyuta paritetlarining soddalashtirilgan (unifikatsiya) rejimi;

- valyuta kurslari rejimlarini tartibga solish (reglamentatsiya);
- valyuta cheklanishlarini davlatlararo muvofiqlashtirish;
- xalqaro valyuta likvidligini davlatlararo muvofiqlashtirish;
- xalqaro kredit muomala quollaridan foydalanish qoidalarini soddalashtirish (unifikatsiya);
- xalqaro hisob-kitoblar asosiy shakllarini soddalashtirish (unifikatsiya);
- jahon valyuta va oltin bozorlari rejimi;
- davlatlararo valyuta muvofiqlashtirilishini amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar;
- zaxira valyutalari, xalqaro hisob-kitob valyuta (pul) birligi (SDR).

Jahon valyuta tizimi jahon pullarining amal qiluvchi shakllariga asoslangandir. Jahon puli deb xalqaro munosabatlarga (iqtisodiy, siyosiy, madaniy) xizmat ko'rsatuvchi pullarga aytiladi. Jahon pullari amaldagi shakllarining evolyutsiyasi birmuncha kechikib bo'lsa-da, oltin pullardan boshlab to kredit pullargacha bo'lgan milliy pullarning rivojlanish yo'lini qayta bosib o'tadi. Bunday qonuniyat asosida jahon valyuta tizimi XX asrga kelib jahon yetakchi mamlakatlarining bir yoki bir nechta milliy valyutalariga (an'anaviy yoki yevrovalyuta shaklida) yoki xalqaro valyuta birligiga (SDR) asoslanadi. Xalqaro hisob-kitob valyuta birligi xalqaro talab va majburiyatlarni o'zaro solishtirish, valyuta pariteti hamda kursni belgilash uchun shartli masshtab va xalqaro to'lov hamda zahira vositasi sifatida ishlatiladi. Oltinning demonetizatsiyasi jarayoni, ya'ni Yamayka (1976 – 1978-y.y.) valyuta islohoti natijasida oltinning yuridik jihatdan pul funksiyasini yo'qotishi, jahon puli sifatida muvozanatsiz milliy pullar ishlatilishining salbiy oqibatlari valyuta tizimiga SDRni (qarz olishning maxsus huquqlari), EKYuni (Yevropa hisob-kitob pul birligi) tadbiq etishga sharoit yaratib berdi. Jahon pullarining ushbu yangi shakllari mamlakatlarning maxsus hisobvaraqlarda yozuvlarni amalga oshirish yo'li orqali naqdsiz xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun ishlatilgan:

- SDR - Xalqaro Valyuta Fondida, EKYu-valyuta hamkorligining Yevropa fondida, 1994-yildan boshlab Yevropa Ittifoqining Yevropa valyuta institutida. SDR va EKYuning shartli qiymati o'rtacha tortilgan qiymat hamda valyuta savatiga (korzina) kirgan valyutalar kurslarining o'zgarishi asosida hisoblanadi. Yevropa Markaziy banki dastlab 1999-

yilning boshidan naqdsiz hisob-kitoblar uchun 2002-yildan boshlab esa naqdli shaklda EKYu o'rniga Yevroni muomalaga kiritdi.

SDR kursini AQSH dollariga yoki savat tarkibiga kirgan boshqa bir valyutaga nisbatan hisoblanishi 3 asosiy elementni o'z ichiga oladi:

1) taalluqli valyuta birliklaridagi valyuta komponentlari. Ular quyidagicha aniqlanadi: (valyutaning savatdagi solishtirma og'irligi) (uning AQSH dollariga nisbatan so'nggi 3 oy ichidagi o'rtacha bozor kursi) bundan oldingi SDR kursiga muvofiqlashtirilgan holda;

2) valyutalarning AQSH dollariga nisbatan bozor kurslari;

3) valyuta komponentlarining dollarli ekvivalenti. U quyidagicha hisoblanadi: (valyuta komponenti) / (valyuta kursi) funt sterlingdan tashqari (funtning valyuta komponenti)*(dollarga nisbatan valyuta kursiga).

Keltirilgan hisob-kitoblardan ko'rinib turibdiki, ushbu sanaga 1 SDR = 1,34 AQSH dollariga teng ekan. Valyuta kursining SDR birliklarida ifodalanishi rasmiy xarakterga ega va u faqatgina valyutalarni AQSH dollariga, dollar orqali esa boshqa valyutalarga bo'lgan bozor kurslarini ro'yxatga oladi.

Erkin suzuvchi valyuta kurslari va ularning muvozanatsizligi sharoitida turli mamlakatlar hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan valyuta savati uslubi qo'yilgan maqsadlardan kelib chiqib (valyuta kursini aniqlash, xalqaro valyuta birligini yaratish, baho valyutasi va qarz valyutasini indeksatsiya qilish), valyutalarni turli to'plamidan foydalangan holda ishlatilmoqda.

Yevropa valyuta ittifoqida valyuta paritetlarining asosi sifatida Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining 12 valyutasidan iborat EKYu valyuta savati ishlatilgan. 1999-yildan boshlab Yevropa valyuta ittifoqining yagona valyutasi Yevrodir. Bundan tashqari, bir qator mamlakatlar (hozirda 16 ta davlat) o'z valyutalari kursini saqlash maqsadida yakka tartibdagi valyuta savatidan foydalanmoqda.

Xalqaro valyuta likvidligini davlatlararo muvofiqlashtirish. Xalqaro valyuta likvidligini muvofiqlashtirish valyuta tizimining elementi sifatida xalqaro hisob-kitoblarni zarur to'lov vositalari bilan ta'minlashdan iborat. Xalqaro valyuta likvidligi – bu, mamlakatning (yoki bir guruh mamlakatlarning) vaqtida o'z Xalqaro majburiyatlarini kreditor uchun muqobil bo'lgan to'lov vositalarida so'ndirilishini ta'minlashdan iborat. Jahon xo'jaligi nuqtayi nazaridan Xalqaro valyuta

likvidligi jahon to'lov muomalasini moliyalashtirish va kreditlash manbalarining yig'indisini bildiradi hamda u jahon iqtisodiyotining Xalqaro zahira aktivlari bilan ta'minlanganligiga bog'liqdir. Xalqaro valyuta likvidligi 4 asosiy qism (komponent)dan iborat:

- mamlakatning rasmiy oltin zahiralari;
- mamlakatning rasmiy valyuta zaxiralari;
- xalqaro hisob-kitob pul birliklaridagi hisobvaraqlar;
- xalqaro Valyuta Fondidagi zahira pozitsiyasi (a'zo mamlakatning o'z kvotasining 25 foizi chegarasida, xorijiy valyutada, so'zsiz kredit olish huquqi).

Xalqaro valyuta likvidligining ko'rsatkichi bo'lib, odatda mamlakat rasmiy oltin-valyuta zaxiralarini uning yillik tovar importining summasiga nisbati hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichning qimmatligi cheklangandir, chunki u mamlakat oldida turgan barcha joriy to'lov-larni, xususan, notijoriy xizmatlar hamda kapital va kreditlarning xalqaro harakati bilan bog'liq moliyaviy operatsiyalarni hisobga olmaydi.

Milliy valyuta tizimi mamlakat pul tizimining tarkibiy qismi bo'lib, valyuta munosabatlarining yig'indisi sifatida maydonga chiqmaydi, balki ushbu munosabatlarni faqat qonunchilik aktlari bilan tashkil etilish tartibini belgilaydi. Valyuta munosabatlarini tashkil etishning bunday tartibi birinchi navbatda valyuta tizimi elementlarini belgilashni o'z ichiga oladi.

Milliy valyuta tizimining qonunchilik asosida belgilanadigan elementlariga quyidagilar kiradi:

- milliy valyuta va uning nomi;
- milliy valyuta paritetini belgilash;
- milliy valyutaning konvertasiya shartlari;
- milliy valyuta kursining rejimi;
- xalqaro kredit muomala quollaridan foydalanishni tartibga solish (reglamentatsiya);
- xalqaro zahira aktivlari tarkibiy qismlari (komponentlari) o'rtasidagi nisbatni aniqlash;
- mamlakatning xalqaro hisob-kitoblarini tartibga solish (reglamentatsiya);
- milliy valyuta va oltin bozorlari faoliyatining rejimi;
- valyuta cheklanishlarining o'rnatilish tartibi;

- valyuta munosabatlariga xizmat ko'rsatuvchi va ularni muvofiqlashtiruvchi milliy organlar maqomi.

Yuqorida zikr etilgan elementlar yig'indisi xalqaro valyuta-kredit va hisob-kitob munosabatlarini amalga oshirish uchun davlat tomonidan belgilanadigan valyuta mexanizmidir. Milliy valyuta va uning nomi milliy valyuta tizimining asosi bo'lib hisoblanadi, u qonun asosida davlatning pul birligi sifatida belgilanadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishlatiladigan milliy pullar valyutaga aylanadi. Xalqaro hisob-kitoblarda odatda xorijiy valyuta, ya'ni boshqa mamlakatlarning erkin muomalada yuradigan valyuta maqomiga ega pul birliklari ishlatiladi. Ushbu pul birliklari bilan deviz tushunchasi bog'liq.

Deviz – bu, xorijiy valyutadagi har qanday to'lov vositasidir. Xorijiy valyuta valyuta bozorida oldi-sotdi obyekti bo'ladi, xalqaro hisob-kitoblarda ishlatiladi, banklarda hisobvaraqlarda saqlanadi, ammo ushbu davlat hududida qonuniy hisob-kitob vositasi bo'lib hisoblanmaydi (kuchli inflyatsiya davrlarini hisobga olmagan holda). Mamlakatda kuchli inflyatsiya va inqiroz holatida milliy valyutani nisbatan barqaror bo'lgan xorijiy valyuta siqib chiqaradi, zamonaviy sharoitda bu AQSH dollari va Yevrodur. "Valyuta" kategoriyasi, milliy va jahon xo'jaliklarining o'zaro aloqasi hamda munosabatlarini ta'minlaydi. Milliy valyuta paritetini belgilash. Valyuta pariteti – bu, ikki valyuta o'rtasidagi, qonuniy asosda belgilangan nisbat. Monometalizm davrida (oltin yoki kumush) valyuta kursining asosi bo'lib tanga pariteti hisoblangan. Tanga pariteti – bu, turli mamlakatlar pul birliklarini o'zidagi metall sig'imiga ko'ra o'zaro solishtirishdir. Tanga pariteti tushunchasi valyuta pariteti tushunchasi bilan mos keladi.

Oltin monometalizmi davrida valyuta kursi oltin paritetiga asoslangan edi. Bunda valyutalar zaminidagi rasmiy oltin miqdorlari bo'yicha o'zaro solishtirilar edi. Bu sharoitda valyuta kursi ushbu oltin pariteti atrofida, oltin nuqtalar chegarasida, tartibsiz asosda tebranar edi. Oltin nuqtalarning klassik mexanizmi 2 shart mavjudligi holatida amal qilar edi, ya'ni oltinning erkin asosdagi oldi-sotdisi va uning chetga cheklanmagan miqdorda erkin olib chiqishi.

Valyuta kursining tebranish chegaralari oltinni xorijga olib chiqish xarajatlari bilan belgilangan va amalda paritetdan +/- 1%dan oshiq bo'lmagan. Oltinni xorijga olib chiqish xarajatlariga fraxt, sug'urta, kapitalga foiz yo'qotishlari, probani aniqlash va boshqa shu kabi

xarajatlar kirgan. Oltin standartini bekor qilinishi bilan oltin nuqtalar mexanizmi o'z harakatini to'xtatdi.

Nazorat uchun savollar

1. Naqd pul aylanmasining tarkibiy qismlarini tushuntiring.
2. Naqd pul muomalasining o'rni va zaruriyati nimalardan iborat?
3. Jahon valyuta tizimi elementlariga nimalar kiradi?
4. Milliy valyuta tizimi mohiyati va elementlari.
5. Xalqaro valyuta likvidiligi komponentlarini sanab bering.
6. "Deviz" deb nimaga aytiladi?

10-MAVZU. O‘ZBEKISTONNING PUL-KREDIT SIYOSATI

10.1. O‘zbekiston Respublikasi kredit tizimi va uni takomillashtirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul doimiy va uzluksiz harakatda bo‘lishi lozim. Buning uchun esa bo‘sh pul mablag‘lari ham pul-kredit muassasalari orqali to‘planib, iqtisodiyotga investitsiyalar sifatida yo‘naltirilishi lozim. Bu jarayonlarni amalga oshirishda kredit munosabatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit bo‘sh turgan pul mablag‘larini ssuda fondi shaklida to‘plash va ularni pulga muhtoj bo‘lib turgan huquqiy va jismoniy shaxslarga ishlab chiqarish va boshqa ehtiyojlari uchun ma‘lum muddatga, foiz to‘lovlari bilan qaytarish shartida qarzga berish munosabatlarini ifodalaydi.

Pul shaklidagi kapital ssuda kapitali deyilsa, uning harakati kreditning mazmunini tashkil qiladi.

Kredit munosabatlari ikki subyekt o‘rtasida, ya‘ni pul egasi qarz beruvchi va qarz oluvchi o‘rtasida yuzaga keladi.

Turli xil korxonalar (firmalar), tashkilotlar, davlat va uning muassasalari hamda aholining keng qatlami kredit munosabatlarining subyektlari hisoblanadi. Sanab o‘tilgan subyektlarning aynan har biri bir vaqtning o‘zida ham qarz oluvchi va ham qarz beruvchi o‘rnida chiqishi mumkin.

Kredit munosabatlarining obyekt jamiyatda vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘laridir.

Takror ishlab chiqarish jarayonida tovarlar, iqtisodiy resurslar va pul mablag‘larining doiraviy aylanishi kredit munosabatlarining mavjud bo‘lishini taqozo qiladi. Shu bilan birga doiraviy aylanish jarayonida muqarrar suratda vaqtincha bo‘sh turadigan pul mablag‘lari va boshqa pul resurslari kredit mablag‘larining manbayini tashkil qiladi.

Kredit resurslarining asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

- 1) korxonalarining amortizatsiya ajratmalari;
- 2) mahsulot sotishdan olingan pul tushumlari;
- 3) korxonalarining ishlab chiqarish, fan va texnikani rivojlantirish fondlari, moddiy rag‘batlantirish fondlari;

4) korxonalar foydasi. Ular davlat budjeti va kredit tizimi bilan hisob-kitob qilinguncha, shuningdek, uning tegishli qismi korxonaga ehtiyojlari uchun foydalanguncha bankdagi hisoblarida saqlanadi;

5) bankdagi budjet muassasalari, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlarning joriy pul resurslari;

6) aholining bo'sh pul mablag'lari.

Takror ishlab chiqarish jarayonida vaqtincha bo'sh pul resurslari hosil bo'lishi bilan bir vaqtda, iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlari va sohalarida qo'shimcha pul mablag'lariga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Avvalo kredit qayta taqsimlash vazifasini bajaradi. Uning yordamida korxonalar, davlat va aholining bo'sh pul mablag'lari ssuda fondi shaklida to'planib, keyin bu mablag'lar kredit mexanizmi orqali iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlarini hisobga olib qayta taqsimlanadi. Shu orqali kredit ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, kredit pulga tenglashtirilgan to'lov vositalarini (veksel, chek, sertifikat va h.k.) yuzaga chiqarib, ularni xo'jalik amaliyotiga joriy etish vazifasini bajaradi.

Uchinchidan, kredit naqd pullar o'rniga kredit pullarni rivojlantirish va pul muomalasini jadallashtirish bilan muomala xarajatlarini tejash vazifasini bajaradi.

To'rtinchidan, kredit ssuda fondining harakati (qarz berish va qarzni undirish) orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vazifasini bajaradi.

Beshinchidan, kredit o'z muassasalari orqali iqtisodiy subyektlar faoliyati ustidan nazorat qilish vazifasini bajaradi.

Nihoyat, kreditning o'ziga xos vazifasi iqtisodiyotni tartibga solish hisoblanadi. Bunda kredit uchun foiz stavkalarini tabaqalashtirish, davlat tomonidan kafolatlar va imtiyozlar berish kabi usullardan foydalaniladi. Kredit bir qator turlarda amalga oshiriladi.

Tarixiy taraqqiyot davomida kreditning ikki – pul va tovar shakllaridan foydalanib kelingan. Hozirgi vaqtda mamlakat ichki aylanmasida pul kreditidan kengroq foydalanib, u bank, tijorat, davlat, iste'mol va xalqaro kredit shakllarini oladi.

Bank krediti – kreditning asosiy va yetakchi shakli sifatida chiqadi. U pul egalari – banklar va maxsus kredit muassasalari tomonidan qarz oluvchilarga (tadbirkorlar, davlat, uy xo'jaligi sektori) pul ssudalari shaklida beriladi.

Bank krediti yo‘nalishi, muddati va kredit bitimlari summasi bo‘yicha cheklanmaydi. Uning foydalanish sohasi ham juda keng, tovar muomalasidan tortib kapital jamg‘arilishigacha xizmat qiladi.

Xo‘jaliklararo kredit bir korxonalar (muassasa) tomonidan ikkinchisiga beriladi va ularning kapital qurilish, qishloq xo‘jalik sohasidagi munosabatlariga, shuningdek, ichki xo‘jalik hisobi bo‘g‘inlari bilan munosabatlariga xizmat qiladi.

Tijorat krediti – bu korxonalar, birlashmalar va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bir-biriga beradigan kreditlaridir. Tijorat krediti, avvalo, to‘lovni kechiktirish yo‘li bilan tovar shaklida beriladi.

Iste‘mol krediti – xususiy shaxslarga, uzoq muddat foydalanadigan iste‘mol tovarlari (mebel, avtomobil, televizor va boshqalar) sotib olish uchun ma‘lum muddatga beriladi. U chakana savdo magazinlari orqali tovarlarning haqini kechiktirib to‘lash bilan sotish shaklida yoki iste‘mol maqsadlarida bank ssudalari berish shaklida amalga oshiriladi. Iste‘mol kreditidan foydalanganlik uchun ancha yuqori foiz undiriladi.

Ipoteka krediti – ko‘chmas mulklar (yer, bino) hisobiga uzoq muddatli ssudalar shaklida beriladi. Bunday ssudalar berish vositasi, banklar va korxonalar tomonidan chiqariladigan ipoteka obligatsiyalari hisoblanadi.

Davlat krediti – kredit munosabatlarining o‘ziga xos shakli bo‘lib, bunda davlat pul mablag‘lari qarzdori, aholi va xususiy biznes esa kreditorlari bo‘lib chiqadi. Davlat krediti mablag‘lari manbasi bo‘lib, davlat qarzi obligatsiyalari xizmat qiladi. Davlat kreditning bunday shaklida, avvalo, davlat budjeti kamomadini qoplash uchun foydalanadi.

Xalqaro kredit – ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi harakatini namoyish qiladi. Xalqaro kredit tovar yoki pul (valyuta) shaklida beriladi. Kreditor va qarzi oluvchilar banklar, xususiy firmalar, davlat, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hisoblanadi.

So‘nggi vaqtlarda kreditlashning lizing, faktoring, farfeyting, trast kabi shakllari keng rivojlanib bormoqda.

Lizing – bu kreditning pulsiz shakli bo‘lib, odatda ishlab chiqarish vositalari va boshqa moddiy boyliklarni keyinchalik foydalanuvchilar tomonidan muntazam ravishda haq to‘lab borib, sotib olish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berishdan iborat. Lizing bo‘yicha bitimlar 1-yildan to 10-yilga qadar tuzilishi mumkin. Odatda ishlab chiqarish

vositalarini ularning egalari bevosita emas, balki maxsus lizing kompaniyalari orqali ijaraga beradilar.

Faktoring – bu boshqa iqtisodiy subyektlarning qarzdorlik bo'yicha majburiyatlarini sotib olish yoki qayta sotish munosabatlarini anglatadi. Bunda bank korxonalarining «debitorlik hisob varaqalari»ni o'zi uchun foydali shartlar asosida naqd pulga sotib oladi, keyin esa bu qarzlarni qarzdordan undirib oladi.

Farfeyting – bu uzoq muddatli faktoring munosabatlari bo'lib, qarzdorlik bo'yicha huquqlarni sotib olgan bank ularni odatda 1-5 yil vaqt o'tgandan so'ng undirishi mumkin bo'ladi.

Trast – bu mijozlarning kapitallarini boshqarish bo'yicha operatsiyalarni bildiradi.

Kredit berish bir qator **tamoyillarga** asoslanadi.

Bular quyidagilar: ssuda berishning maqsadli tavsifi, kreditning rasmiylashtirilgan muddatda qaytarilishi, ssudaning moddiy ta'minlanganligi va to'lovliligi.

Qarzga berilgan ssudaning, albatta, qaytarilib berilishi, undan foydalanilganlik uchun olingan foydadan ssuda foizini to'lash zarurati korxonalarini xo'jalik yuritishning eng samarali usullarini izlab topishga undaydi.

Qarzga (ssudaga) berilgan pul hisobiga olinadigan daromad foiz yoki foizli daromad deyiladi. Shu daromad (foiz)ning qarzga berilgan pul summasiga nisbatining foizda ifodalanish **foiz stavkasi** yoki **foiz normasini** tashkil qiladi:

$$r' = \frac{r}{K_{\text{ssuda}}} \cdot 100,$$

bu yerda:

r' – foiz normasi;

r – foiz summasi;

K_{ssuda} – qarzga berilgan pul (kapital) summasi.

Agar 100 ming so'm yiliga 20 ming ssuda foizi to'lash sharti bilan qarzga berilgan bo'lsa, ssuda foizi normasi 20% ni tashkil qiladi.

10.2. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatini boshqarish va nazorat qilish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul muomalasini ta‘minlashda banklar muhim rol o‘ynaydi. Banklar pul mablag‘larini to‘plash, joylashtirish va ularning harakatini tartibga solish bilan shug‘ullanuvchi iqtisodiy muassasadir.

Banklar faoliyatining asosiy tomonlaridan biri kredit munosabatlariga xizmat qilish bo‘lib, ular kredit muassasalarining asosini tashkil qiladi.

Banklar tizimi odatda ikki bosqichli bo‘lib, o‘z ichiga markaziy (emission) bank va tijorat (depozitli) banklarning tarmoq otgan shaxobchalarini oladi. Markaziy bank boshchiligida hamda keng tarmoqli mustaqil tijorat va xususiy banklar ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish ustivor yo‘nalishlardan hisoblanadi..

Davlat banki mamlakat pul-kredit tizimini markazlashgan tartibda boshqaradi va davlatning yagona kredit siyosatini amalga oshiradi.

Davlat banki Markaziy bank hisoblanadi. Buning mazmuni shundan iboratki, birinchidan, ko‘pchilik mamlakatlarda davlat banki yagona markaziy bankdan iborat bo‘lib, u o‘tkazadigan siyosat tartiblari yuqori davlat organlari tomonidan o‘rnatiladi.

Ikkinchidan, Markaziy bank tijorat banklari va jamg‘arma muassasalaridan mablag‘larni qabul qilib, ularga kredit beradi. Xususan, shu sababga ko‘ra markaziy bank “banklar banki” deyiladi.

Uchinchidan, Markaziy bank faqat foyda olishga intilib faoliyat qilmaydi, davlatning butun iqtisodiyot holatini yaxshilash siyosatini amalga oshiradi va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishga ko‘maklashadi.

Markaziy bank ko‘plab xilma-xil vazifalarni bajaradi.

Birinchidan, boshqa bank muassasalarining majburiy zahiralarini saqlaydi. Bu zahiralar pul taklifini boshqarish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Markaziy bank mamlakatning rasmiy oltin-valyuta zahiralarini saqlash vazifasini ham bajaradi.

Ikkinchidan, cheklarni qayd (inkassatsiya) qilish mexanizmini ta‘minlaydi va banklararo hisob-kitoblarni amalga oshiradi, ularga kreditlar beradi.

Uchinchidan, davlatning monetar siyosatini amalga oshiradi.

To'rtinchidan, barcha banklar faoliyatini uyg'unlashtiradi va ular ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Beshinchidan, xalqaro valyuta bozorlarida milliy valyutalarni ayirboshlaydi.

Oltinchidan, pul taklifi ustidan nazorat qilish mas'uliyatini oladi, milliy valyutani muomalaga chiqaradi.

Iqtisodiyotning ehtiyojlariga mos ravishda pul muomalasini tartibga soladi.

Monetar siyosatning asosiy maksadi inflyatsiyani past darajada ushlab turish va so'mning barqaror ayirboshlash kursini ta'minlashdan iborat. Mazkur vazifalar makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan umumiy iqtisodiy siyosat bilan uzviy bog'langandir.

O'zbekiston Markaziy banki o'zining asosiy vazifalarini bajarish bilan bir qatorda, bank xizmatlarini erkinlashtirishga qaratilgan siyosatni ham olib boradi. Bank tomonidan pul-kredit siyosatining vositalari sifatida ochiq bozorda qimmatli qog'ozlar operatsiyasi, ichki valyuta bozoridagi operatsiyalar, qayta moliyalashtirish stavkasi va tijorat banklariga majburiy zahira talablari vositalari ham ishga solinadi.

Barcha banklar tomonidan xalqaro kreditga layoqatlilik reyting bahosini olish borasida («Mudis», «Fitch Reytings», «Standart end Purs», «Tomson Faynenshl Bank Votch», «Japan Kredit Reyting Ejensi», «Reyting Ejensi Malayziya») bir qator nufuzli xalqaro reyting

Valyutani erkinlashtirish natijasida milliy valyuta konvertasiyasining joriy qilinishi evaziga ichki valyuta bozoridagi operatsiyalar salmog'i sezilarli darajada ortdi. Shu bilan bir qatorda, tashqi savdo jumladan, eksport operatsiyalarining kengayishi tashqi savdo balansining ijobiy qoldig'i bo'lishiga va O'zbekiston Markaziy bankining oltin valyuta zahirasi ortishiga olib keldi.

O'zbekiston Markaziy banki keyingi-yillarda qulay foiz stavkasi siyosatini olib bormoqda. Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasining pasayishi jarayonida tijorat banklarining foiz stavkalarini pasayishi ham kuzatildi.¹¹

¹¹ I.A.Karimov "2007 yil yakunlari va 2008 yilda mamlakatda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlari". Xalq so'zi gazetasi, 8 fevral 2008 yil.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida banklar va korxonalar teng huquqli sheriklar sifatida chiqadi. Kredit berishda fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishni, ishlab chiqarishni rivojlantirishning yangi sifat darajasiga erishishni ta'minlaydigan tadbirlarga ustunlik beriladi.

Banklar o'z tasarrufidagi resurslardan foydalanish samaradorligi uchun moddiy jihatdan mas'ul hisoblanadi va shu sababli kredit-pul operatsiyalari ko'proq ularning iqtisodiy foydaliligiga va samaradorligiga qarab beriladi.

Tijorat banklari o'zlarining xo'jalik mavqeiga ko'ra aksionerlik tipidagi muassasalar hisoblanadi. Huquqiy mavqeiga ko'ra, faoliyatning biron bir turiga xizmat ko'rsatuvchi, ixtisoslashgan yoki milliy bank bo'lishi mumkin.

Tijorat banklar sanoat, savdo va boshqa xil korxonalarni omonat tarzida jalb etilgan pul mablag'lari hisobidan kreditlaydi, korxonalar o'rtasida hisob-kitobni amalga oshiradi, shuningdek vositachilik va valyuta operatsiyalari bilan shug'ullanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati" to'g'risidagi qonunida aytilishicha, tijorat banklari va aksiyali pay asosida tashkil topgan xususiy banklar bo'ladiki, ular "kredit hisob-kitob va o'zga xil bank xizmatini ko'rsatadilar". Tijorat banklar faoliyatining asosiy maqsadi foyda chiqarib olishni ko'zda tutadi. Tijorat banklari daromadining manbai mijozlarining bank xizmati uchun to'lovi va aktivlardan - zayom, kredit, qimmatli qog'ozlardan olinadigan foiz hisoblanadi.

Ixtisoslashgan tijorat banklar – iqtisodiyotning turli sohalarida tijorat tamoyillarida kredit-pul operatsiyalarining muayyan turlarini amalga oshiradi. Jumladan bizning respublikada Sanoat qurilish banki – sanoat, transport, aloqa va moddiy-texnika ta'minoti sohalarida; Zamin, G'alla, Paxta banklar – agrosanoat kompleksi tarmoqlari va sohalarida; Tadbirkor banki mayda va o'rta biznes, kooperativ va yakka tartibdagi mehnat faoliyati sohasida kredit-pul operatsiyalarini amalga oshiradi.

Xalq banki – mamlakatda omonat ishlarini tashkil etishni, naqd pulsiz hisob-kitob qilishni va aholi uchun kassa vazifasini amalga oshirishni, aholiga shaxsiy ehtiyojlarga kredit berishni va shu kabi operatsiyalarni ta'minlaydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki eksport-import operatsiyalarini bevosita amalga oshiruvchi korxonalar va muassasalarga kredit beradi, qo'shma korxonalarga kredit berishda qatnashadi, yig'ma valyuta rejasining ijrosini, valyuta resurslaridan tejab foydalanishini nazorat qiladi, shuningdek tashqi iqtisodiy operatsiyalarga oid hisob-kitoblarni tashkil qiladi va amalga oshirishni ta'minlaydi.

Tijorat banklari tizimida tor ixtisoslashishi bo'yicha investitsion va ipoteka banklarni ajratib ko'rsatish lozim.

Investitsion banklar - maxsus kredit muassasalari bo'lib, obligatsiya hamda qarz majburiyatlari boshqa turlarini chiqarish yo'li bilan uzoq muddatli ssuda kapitalini jalb qiladi va ularni mijozlar (asosan davlat va tadbirkorlar) ga taqdim qiladi.

Investitsion kompaniyalar o'zlarining qimmatli qog'ozlarini chiqarish yo'li bilan huquqiy investorlar pul resurslarini to'playdi va ularni korxonalar (milliy va chet el)lar aksiya va obligatsiyalariga joylashtiradi. Bunday kompaniyalar to'liq investorlar manfaatini ifodalaydi va ularning asosiy maqsadi qo'yilgan kapital hisobiga foyda olish hisoblanadi.

Ipoteka banklar – bu ko'chmas mulk (er va inshoot) hisobiga uzoq muddatli ssuda berishga ixtisoslashgan kredit muassasalar. Ipoteka bankning resurslari o'zlarining ipoteka obligatsiyalari hisobiga shakllanadi. Olingan ssudadan uy-joy va boshqa inshootlar qurish, korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish uchun foydalaniladi.

Barcha tijorat banklari zahira (rezerv)larining hajmi va tarkibi bo'yicha Markaziy bank tomonidan o'rnatiladigan ma'lum talablarga javob berishi zarur.

Hukumat va O'zbekiston Markaziy banki tomonidan davlat ehtiyojlari uchun fermer xo'jaliklardan paxta va bug'doy yetishtirish harajatlarini maksadli kreditlashga bosqichma-bosqich o'tkazish bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunda tijorat banklarining quyidagi operatsiyalari qayd kilingan:

1. Mijozlarning hisob varaqalarini olib borish.
2. Mijozlarga kassa xizmati ko'rsatish.

3. Mijozning topshirig'iga binoan naqd pulsiz hisob-kitoblarni bajarish.

4. Qisqa yoki uzoq muddatli kreditlar berish.

5. Shartnoma yoki pullik asosida buyurtmachining topshirig'iga binoan kapital qo'yilmalarni mablag' bilan ta'minlash.

6. Bo'sh pul mablag'lari-depozitlarini muomalaga jalb qilish.

7. Aholidan omonatlarni qabul qilish.

8. Faktoring operatsiyalarini amalga oshirish.

9. Lizing operatsiyalarini amalga oshirish.

10. Tijorat banki davlatning hamda boshqalarning qimmatli qog'ozlarini xarid qilish va sotish.

11. Xorijiy valyuta va qimmatli metallarni xarid qilish va sotish.

12. O'z mijozlari uchun kafolat va majburiyatlar berish.

13. Budjetning kassa ijrosini bajarish.

14. Bank operatsiyalari bo'yicha maslahatlar berish va boshqa operatsiyalar.

Banklarning operatsiyalari ularning bevosita faoliyati orqali (vazifasi) amalga oshiriladi. Bunday vazifalar yuqorida ko'rib o'tganimizdek o'zaro bog'liq ikki turga bo'linadi.

Passiv (bank resurslarini shakllantirish bo'yicha operatsiyalar).

Aktiv (bunday resurslarni joylashtirish hamda foydalanish bilan bog'liq operatsiyalar).

Bank resurslari o'ziga tegishli va jalb etilgan mablag'lardan vujudga keladi. O'ziga tegishli mablag'lar odatda banklar tasarrufidagi barcha resurslarning faqat unga katta bo'lmagan qismlarini tashkil etadi. Ularning asosiy qismi depozitlar yoki banklarning mijozlariga qarashli omonatlardan iborat.

Bankning aktiv operatsiyalariga, avvalo, beriladigan, foizli, ssudalar (yoki kreditlar) kiradi.

Ular orasida eng ko'p tarqalgani veksellarni hisobga olish usulidir. Bank veksel saqlovchidan naqd hisob-kitob qilish yo'li bilan veksel sotib oladi. Unda qayd etilgan summadan hisobga olish foizini ko'rsatilgan xizmat uchun haq ushlab qoladi. Veksel bo'yicha to'lov muddati kelganida bank uni vekselni sotgan veksel saqlovchiga emas, balki vekselni bergan shaxsga taqdim etadi.

Qimmatli qog'oz garovga olinib, beriladigan ssudalar, shuningdek, mana shunday qog'ozlarni xarid qilish bo'yicha operatsiyalar fond operatsiyalari deb yuritiladi.

Tovar evaziga beriladigan ssudalar omborlar yo'ldagi va savdo aylanmasidagi bo'lgan tovarlarni garovga olib taqdim etiladi. Ssudalar o'z muddati to'lanmagan hamma hollarda garovga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar va tovar moddiy boyliklari bank ixtiyoriga mulk bo'lib o'tadi. To'lov qobiliyatiga shubha bo'lmagan yirik mijozlarga bank hech qanday ta'minotsiz ssudalar yoki bank kreditlari deb ataladigan qarzar beradi.

Tovarlarni sotish bilan bog'liq kreditlarni ko'rinisharidan biri iste'mol krediti yoki tovarlarni bevosita iste'molchilarga to'lov muddatini uzaytirgan holda sotish hisoblanadi.

Davlat tomonidan zayom obligatsiyalarini chiqarish yo'li bilan olinadigan kreditlar davlat kreditlari deb yuritiladi. Bunday toifadagi qarzlarga davlat odatda davlat budjetidagi kamomadni qoplash uchun majbur bo'ladi. Ana shunday holatlarda ko'pincha banklar va sug'urta kompaniyalari kreditorlar sanaladi, Davlat zayomlarining obligatsiyalari banklar vositaligida tarqatiladi, buning uchun vositachilik haqi olinadi.

Tijorat banklari o'z faoliyati bilan bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda ishlay oladigan tashkilotlarni o'z vaqtida mablag' bilan qo'llash va bunday tashkilotlarni aniqlash kabi muhim bir vazifani amalga oshirmoqda. Tijorat banklari kreditlash jarayonlari orqali mamlakat iqtisodining rivojlanishiga ham juda katta hissa qo'shmoqda.

Bugungi kunda tijorat banklari yetarli darajada texnik jihozlanganligi hamda kerakli axborot bazalariga va malakali kadrlarga egaligi banklarni o'z navbatida qimmatli qog'ozlar bozorining asosiy ishtirokchilaridan biri qilib qo'yimoqda. Qimmatli qog'ozlar bozorida banklar bir vaqtning o'zida ham investor ham emitent sifatida qatnashmoqda. Banklarning boshqa xo'jalik subyektlariga nisbatan stabil moliyaviy holatga egaligi qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarda qatnashishga imkon bermoqda. Respublikada tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida aktiv ishtirok etishining sabablaridan yana biri banklarning nizom kapitalini oshirish sohasida o'z aksiyalarini sotishga bo'lgan intilishdir.

Bugungi kunga kelib tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyalardan tashqari depozit va jamg'arma sertifikatlari bilan ishlashni ham yo'lga qo'ymoqdalar. Bundan tashqari, banklar o'z mijozlariga moliyaviy broker sifatida ham xizmat ko'rsatmoqda. Banklarning bunday funksiyalarni bajarishlari korxonalar tashkilotlarning qimmatli qog'ozlar bozori operatsiyalarida qatnashishlari uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Bugungi kunda, Respublika davlat mulkini xususiyashtirish bilan bog'liq jarayonlar keng o'rin olganligi sababli, korxonalarga tegishli, qimmatli qog'ozlar bozoriga nisbatan, davlat qimmatli qog'ozlar bozori aktiv harakat qilmoqda. Bu bozorda asosiy qatnashchilar sifatida tijorat banklari maydonga chiqmoqda. Bu bozorda tijorat banklari o'zlarining brokerlik funksiyalarini amalga oshirish bilan bir qatorda mavjud resurslarni hech qanday tavakkalchilikka bormagan holda qisqa muddatlarga joylashtirish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Respublika iqtisodiyotiga kirib kelayotgan «Lizing» jarayonlari bugungi kunda ishlab chiqarishni texnik va texnologik ta'minlash hamda qayta jihozlashda muhimligini ko'rsatmoqda. Agar biz lizing xizmatlariga to'lanadigan foiz bilan bank krediti bo'yicha to'lanadigan foiz o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor beradigan bo'lsak, u holda lizing xizmatlarini bugungi kunda tijorat banklari tomonidan amalga oshirilishini yo'lga qo'yish qulay hamda muhimdir. Chunki tijorat banklari lizing xizmatlari uchun boshqa lizing tashkilotiga kredit berishidan ko'ra bank krediti foizi darajasida mijozlarga xizmat ko'rsatishi va shu bilan lizing xizmatlari bahosini kamaytirishi mumkin. Bundan tashqari, kerakli mablag'm jalb qila olish imkoniyatiga ega va shu bilan bir qatorda texnik jihatdan yetarli darajada jihozlangan.

Tijorat banklari tomonidan olib borilayotgan bank faoliyatiga bugungi kunda «Trast» xizmatlari ham kirib kelmoqda. Trast xizmatlari respublika banklari uchun yangi hisoblansa-da uni o'zlashtirish sohasida ko'plab ishlar olib borilmoqda.

Chet el bank tajribasida bizga ma'lumki, firmalar buyurtmaga ega bo'lishliklari o'z navbatida bank ta'minot xatlari deb ataluvchi firmaning moliyaviy qobiliyatini kafolatlovchi xizmatlarga bog'liq bo'lmoqda.

Jahon banklari ish faoliyatida axborotlarni sotish va moliyaviy maslahatlar kabi xizmatlar ham keng o‘rin olgan. Bizning oldimizda turgan masalalardan biri ham bu sohani o‘rganishdir.

Yangi iqtisodiy sharoit o‘z navbatida tijorat banklarining rivojlanishini ular ko‘rsatayotgan xizmatlarga va bu xizmatlarning qay darajada tashkil qilinganligiga bog‘ladi. Chunki ishlab chiqarishdagi kabi bank sohasida ham raqobat ertami-kechmi o‘z ishini bajaradi.

10.3. Iqtisodiy islohotlar sharoitida Markaziy bankning valyuta siyosatining asosiy yo‘nalishlari va ahamiyati

O‘zbekistonda hozirgi jadal iqtisodiy islohotlar davrida bank tizimini barqarorlashtirish, pul muomalasini tashkil qilish va tartibga solish, mamlakatni sifat jihatdan yangi darajada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur barqaror makroiqtisodiy va qulay investitsion muhitni shakllantirish, aholi ehtiyoji va talablariga mutanosib zamonaviy, samarali bank xizmatlarini taqdim etish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, 2017 – 2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlari strategiyasida belgilanganidek, bugun bank tizimi oldida «mamlakat taraqqiyoti uchun dolzarb masalalar, jumladan, valyuta siyosati va bozorini xalqaro talab hamda andozalar asosida erkinlashtirish, milliy valyuta barqarorligini mustahkamlash, unga erishishda pul-kredit siyosati instrumentlarining rolini kengaytirish, bank tizimini bugungi kun talabidan kelib chiqib isloh qilish, uning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini oshirish va turini ko‘paytirish»¹² kabi vazifalar turibdi. Bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi aholining banklarga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga, milliy valyuta –so‘mning asosiy jamg‘arish funksiyasini bajarishdagi rolini oshirishga va uni chet el valyutasiga erkin konvertatsiya qilish amaliyotini yanada kengroq joriy qilinishga yo‘naltirilmoqda. Sodda qilib aytganda, bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar orqali aholi va tadbirkorlik subyektlarini uning ishonchli hamkoriga aylanishiga, pirovardida, xalq

¹² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli farmoni. «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlari strategiyasi to‘g‘risida»: rasmiy nashr. - T.: Adolat, 2017. -112 b.

farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi tizimni shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 32 ta tijorat banki faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan 21 tasi Aksiyadorlik tijorat banklari, 5 tasi xususiy va 6 tasi chet el kapitali ishtirokidagi banklar hisoblanadi.

2020-yil yakunlari bo'yicha inflyatsiya darajasi 2019-yildagi 15,2%ga nisbatan sekinlashib, 11,1%ni tashkil etdi. Inflyatsiyaga oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'zgarishi nisbatan yuqori – 6,5 foiz band hissa qo'shdi. Mazkur tovarlar guruhi bo'yicha inflyatsiya umumiy inflyatsiya darajasidan ancha yuqori bo'ldi va yil yakuni bo'yicha 15,3%ni tashkil qildi

2020-yilda nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar narxlarining o'sish sur'atlari umumiy inflyatsiyadan sezilarli darajada past bo'lib, mos ravishda 8,8% va 7,1%ni tashkil etdi. Jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi depozitlari foiz stavkasi 17%ni, yuridik shaxslarning depozitlari bo'yicha 14,4%ni tashkil qildi. Inflyatsiya sur'atining pasayishini hisobga olganda, depozitlar bo'yicha real foiz stavkasi yil davomida jismoniy shaxslar uchun 5% va yuridik shaxslar uchun 3% atrofida shakllandi.

Milliy valyutadagi kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi dekabr oyida 18,8%ni tashkil qildi. Bunda yil davomida qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foiz stavkasi 18,4%gacha (7,3 foiz bandga), uzoq muddatli kreditlar bo'yicha esa 19,1%gacha (6,6 foiz bandga) pasaydi.

2020-yilda banklar orqali naqd pul aylanmasi hajmi 360,1 trln so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 25,4 foizga oshdi. Jumladan, banklar kassalariga naqd pul tushumlari 179,9 trln so'mni, o'z navbatida, chiqim qilingan naqd pullar 180,2 trln so'mni tashkil etdi. Choraklar kesimida banklar kassalariga naqd pul tushumlari ikkinchi chorakda ancha kamaygan bo'lsa, to'rtinchi chorakda (ikkinchi chorakka nisbatan 76%ga) ko'paydi. Naqd pul tushumlarining o'sish hajmining qariyb 12,4 trln so'mi savdo va pullik xizmatlardan, 6,2 trln so'mi bank xizmatlari bo'yicha tushumlar hissasiga to'g'ri keldi

2020-yilda banklar kassalari va bankomatlar orqali chiqim qilingan naqd pullar 2019-yilga nisbatan qariyb 25%ga oshishi kuzatilgan bo'lsa, mazkur holat, asosan, bank kartalaridan naqd pul yechish hajmining 25,6 trln so'mga (1,7 barobar) o'sishi hisobiga yuzaga keldi.

Natijada banklardan berilgan naqd pullar tarkibidan bank kartalaridan yechib olingan naqd mablag'lar ulushi 25%dan 34%ga yetdi. Bunga ish haqi va ijtimoiy to'lovlarning bank kartalari orqali to'lash hajmi ortganligi sabab bo'ldi. 2020-yil yanvar oyida pensiya to'lovlarining 17%i, ish haqi to'lovlarining 66%i bank kartalari orqali to'langan bo'lsa, yilning oxirgi dekabr oyida esa pensiya to'lovlarining 31%i hamda ish haqi to'lovlarining 83%i bank kartalariga o'tkazildi.

Bank kartalariga jami 180,5 trln so'mlik mablag'lar kelib tushib, ushbu davrda bank kartalaridagi 62,2 trln so'mlik (34,4%) mablag'lar aholi tomonidan naqdashtirib olingan.

2020-yil davomida muomalaga chiqarilgan naqd pullar tarkibi bo'yicha 100 000 so'mlik banknotlar ulushi – 27,3%ga yetgan bo'lsa, 50 000 so'mlikning ulushi – 38,8%ga, 10 000 so'mlikning ulushi – 15,7%ga, 5000 so'mlik – 16,1%ga tushdi.

2020-yil davomida qo'shimcha 17,1 mlrd so'mlik yangi tangalar muomalaga chiqarilib, ularning muomalada bo'lgan jami naqd pullar tarkibidagi miqdoriy salmog'i 0,08%dan 0,13%ga yetdi.

Barqaror iqtisodiy rivojlanish va makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish usullarining bozor instrumentlaridan foydalanish asosida tubdan qayta ko'rib chiqilishi munosabati bilan ichki bozordagi narxlar barqarorligini ta'minlash pul-kredit siyosatining bosh maqsadi sifatida belgilandi. Bunda inflyatsiya sur'atini pasaytirish va uni past darajada saqlab turish o'rta muddatli istiqbolda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda asosiy shart sifatida qaraladi.

Ichki valyuta bozorining liberallashtirilishi pul-kredit siyosatining tamoyil va usullarini bosqichma-bosqich inflyatsion targetlashga qaratish uchun zarur bo'lgan asosni yaratadi. O'rta va uzoq muddatli istiqbolda narxlar barqarorligini ta'minlashda inflyatsion targetlash samarali usul hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida inflyatsion targetlash rejimining tanlanishi qator sabablar bilan izohlanadi. Birinchidan, bugungi kunda inflyatsion targetlash pul-kredit siyosatining ta'sirchan rejimi sifatida o'zini namoyon qilib, o'rta muddatli istiqbolda narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadiga eng muvofiq keluvchi rejim hisoblanadi.

Ikkinchidan, monetar agregatlar yoki valyuta almashuv kursini targetlash kabi rejimlarning amaliyotga qo'llanilishi tajribasi ularning

O'zbekiston sharoiti va zamonaviy talablarga mos kelmasligini ko'rsatmoqda. Xususan, valyuta almashuv kursini targetlash rejimida kursning doimiy tarzda maqsadli darajada saqlab turilishi xalqaro rezervlarni sezilarli darajada kamaytirib, valyuta inqirozining kelib chiqish xatarini oshiradi.

Valyuta almashuv kursini targetlash rejimida valyuta kursini mos ravishda o'zgartirish orqali tashqi salbiy ta'sirlarni mo'tadillashtirish imkoniyati cheklanadi. Bundan tashqari, mazkur rejimda Markaziy bankning asosiy e'tibori faqatgina valyuta almashuv kursining maqsadli darajasini ta'minlashga qaratilishi tufayli ichki maqsadlarga qaratilgan mustaqil pul-kredit siyosatini amalga oshirish imkoniyati cheklanadi. Boshqa tomondan, iqtisodiyotni liberallashtirish va tarkibiy o'zgartirish, shuningdek, xufyona iqtisodiyotning sezilarli darajada mavjud bo'lishi sharoitlarida pul agregatlarining keskin o'zgarishi kuzatilishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, monetar targetlash rejimi doirasida maqsadli ko'rsatkichlarni o'rnatish va unga erishish vazifasini murakkablashtiradi.

Shu bilan birga, pul agregatlari va inflyatsiya orasidagi barqaror bog'liqlikning pasayishi monetar targetlash rejimi samaradorligini kamaytiradi. Mamlakatimizda valyuta siyosatini liberallashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar hamda narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha aniq maqsadlarning belgilanishi inflyatsion targetlashga o'tish uchun tayanch shart-sharoitlar yaratadi.

Xalqaro tajribaga, asosan, inflyatsion targetlash rejimiga o'tish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha makroiqtisodiy sharoitlar mavjudligini va kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishini talab qiladi:

- pul-kredit siyosatini yuritish, ya'ni transmission mexanizm samaradorligini oshirish;
- valyuta bozori faoliyatini yanada liberallashtirish va takomillashtirish;
- pul-kredit siyosatining mavjud instrumentlarini takomillashtirish va yangi zamonaviy bozor instrumentlarini joriy etish;
- banklararo pul bozori faoliyatining shaffofligini oshirish va rivojlantirish;
- makroiqtisodiy prognozlash va tahlil qilish salohiyatini mustahkamlash;

- pul-kredit siyosatining pirovard maqsadi va qo'llaniladigan instrumentlar to'g'risida keng jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida pul-kredit siyosatining aniqligi va shaffofligini oshirish;

- kommunikatsion siyosatni takomillashtirish;
- Markaziy bankning institutsional bazasini rivojlantirish;
- moliya bozorini, shu jumladan, davlat qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish;
- makroiqtisodiy siyosatni samarali muvofiqlashtirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tarkibiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish.

Umuman olganda, inflyatsion targetlashga o'tish pul-kredit siyosatining barcha asosiy yo'nalishlarini tubdan qayta ko'rib chiqish va takomillashtirishni talab qiladi. Ushbu konsepsiyada nazarda tutilgan tadbirlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi bozor mexanizmlari va instrumentlari asosida pul-kredit siyosati samaradorligini oshirish bo'yicha strategik vazifalar bajarilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Pul-kredit siyosatini amalga oshirish va rivojlantirish bo'yicha ushbu Konsepsiya o'z ichiga 2018 – 2021-yillar uchun mo'ljallangan chora-tadbirlar "yo'l xaritasi"ni qamrab oladi. Mazkur yo'l xaritasini ishlab chiqishda asosiy e'tibor inflyatsion targetlashning mexanizm va tamoyillarini o'rta muddatli istiqbolda samarali joriy qilish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha choralarni amalga oshirishga qaratildi.

Nazorat uchun savollar

1. Kredit resurslari qanday manbalar asosida shakllanadi?
2. Kredit turlariga tushuncha bering
3. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatini boshqarish va nazorat qilish nimalarga asoslanadi?
4. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunda tijorat banklarining qanday operatsiyalari qayd kilingan?
5. O'zbekiston respublikasida 01.01.2021-yilda nechta bank faoliyat yuritmoqda?
6. Iqtisodiy islohotlar sharoitida Markaziy bank valyuta siyosatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?

GLOSSARIYLAR

| Atamalar-ning o'zbek tilida nomlanishi | Atamalar-ning ingliz tilida nomlanishi | Atamalar-ning rus tilida nomlanishi | Atamaning ma'nosi |
|--|--|-------------------------------------|---|
| Avans | Prepaid expense | Аванс | biror ish evaziga keyinchalik hisob-kitob qilish sharti bilan oldindan beriladigan pul, mahsulot, oziq-ovqat va h.k. |
| Agentlik operatsiyalari | agency operations | Агентские операции | bir tomonning topshirig'i bilan kelishilgan hududda ikkinchi (agent) tomon amalga oshiradigan oldisotdi bilan bog'liq bo'lgan amaliy va huquqiy harakatlar. |
| Asosiy kapital | Main capital | Основной капитал | ishlab chiqarish jarayonida bir necha yil davomida ishtirok etuvchi va o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga qisman o'tkazib boruvchi mehnat vositalaridir |
| Aylanma kapital | Working capital | Оборотный капитал | xom ashyo materiallar, energetika resurslarida moddiylashgan va bir ishlab chiqarish siklida sarflanuvchi, o'z qiymatini tayyorlangan mahsulotga to'liq ko'chiruvchi kapital. |
| Auksion | Auction | Аукцион | «kim oshdi» savdosi, ochiq savdo qilish. bu savdo davomida mahsulotni eng yuqori narx bo'yicha ko'targan xaridor sotib oladi. |
| Birja kotirovkasi | Stock quotes | Биржевые котировки | birjalar orqali sotiladigan mahsulotlar bahosi. har bir birja ularni ma'lum tizimga soladi va chop etadi. odatda, bk ertalabki va kechki savdo (birja sessiyasi) boshlanishiga va tugashiga mo'ljallab chop etiladi. |
| Bank aktivlari | bank assets | Банковские активы | banklarning asosiy faoliyatini amalga oshirishda foydalanuvchi |

| | | | |
|------------------------------------|---|--|--|
| | | | turli moddiy va moliyaviy resurslar majmuyi. Ular asosan bank kreditlari, asosiy vositalari, sotib olgan qimmatli qog'ozlari, investitsiyalari, valyuta ko'rinishida bo'ladi |
| Bazel qo'mitasi talablari | Requirements Banking Committee | Требования банковского комитета | bank tizimining barqaror amal qilishi hamda o'z majburiyatlarini bajara olishini ta'minlash uchun o'rnatilgan xalqaro me'yorlar majmuyi bo'lib, u kapitalning yetarlilik darajasini, banklarni nazorat qilish jarayoniga hamda bozor intizomiga qo'yilgan talablarni ifodalaydi. |
| Bank depozitlari | bank deposits | Банковские депозиты | jismoniy va yuridik shaxslarning bank muassasalariga ma'lum muddatga va muddatsiz omonat shaklida qo'yilgan bo'sh pul mablag'lari |
| Bozor kon'yukturasi | market conditions | Конъюнктура рынка | ayrim bozorlarda muayyan xolatlarining mavjudligi. bozor konyukturasi muayyan davrdagi bozor holati, bozorda muvozanatning mavjudligi yoki buzilganligi bilan xarakterlanadi |
| Bank tizimining likvidligi | Liquidity of the banking system | Ликвидность банковской системы | bankning o'z majburiyatlarini vaqtida va so'zsiz bajara olish imkoniyati. |
| Banklarning kredit portfeli | Credit portfolio of banks | Кредитные портфели банков | tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning umumiy jamlanmasi. Ular quyidagicha tasniflanadi: a) yaxshi; b) standart; v) substandart; g) shubhali; d) umidsiz. Tijorat banklariga ma'lum sanaga ssuda hisobvaraqalarida qolgan pul mablag'lari majmuasi (qoldig'i). |
| Bank-moliya tizimining | the stability of the banking and | Устойчивость банковско- | Banklarning va boshqa moliya muassasalarining o'z majburiyatlarini yuzasidan talablarga to'la |

| | | | |
|--|--------------------------------------|--|---|
| bar-qarorligi | financial system | финансовой системы | javob beraolishi. Bu likvidlilik, kapitalning yetarliligi, aktivlar sifati, rentabellik ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi. |
| Devalvat-siya | Devaluation | Девальвация | mamlakat savdo to'lov balansining keskin yomonlashuvi, valyuta rezervining holdan toyishi, xalqaro valyuta bozorida milliy valyuta kursining pasayishi bilan bog'liq holda milliy pul birligi qiymatining rasmiy ravishda pasaytirilishi. |
| Dividend | Dividend | Дивиденд | aksioner, aksiya egasining daromadi; aksionerlik jamiyati foydasining bir qismi. |
| Dotatsiya | subsidy | Дотация | tashkilot, korxonalariga davlat tomonidan beriladigan yordam puli, moddiy yordam, qo'shimcha to'lov, asosan, zararni qoplash va boshqa maqsadlar uchun ishlatiladi. |
| Integrat-siya | Integration | Интеграция | mustaqil xo'jalik faoliyatining milliy, mintaqa va xalqaro miqyosda o'zaro qo'shib yaxlit xo'jalik tizimini tashkil etishi. |
| Innovae-siya | Innovation | Инновация | yangilikni joriy qilish, fan-texnika yutuqlarini boshqarish va tashkil qilish sohasidagi yangiliklar majmuyi. |
| Iste'mol savati | Consumer basket | Потребительская корзина | muayyan oziq-ovqat, sanoat mollari va xizmatlarning tirikchilikni ta'minlash uchun yetarli bo'lgan miqdori. |
| Ish kuchining xalqaro migrasiyasi | International labor migration | Международная миграция рабочей силы | mehnat resurslarining ancha qulay sharoitda ish bilan ta'minlanishi maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tishini bildiradi. |
| Ipoteka | Mortgage | Ипотека | qarz, kredit olish uchun biror-bir muayyan ko'chmas mulkni (yer, imorat va hokazo) garovga qo'yish. |

| | | | |
|----------------------------|---------------------------|------------------------------|--|
| Iqtisodiy resurslar | economic resources | Экономические ресурсы | tabiiy, insoniy, moddiy, moliyaviy va intellektual resurslardan iborat. |
| Kalkulyatsiya | calculation | Калкуляция | mahsulotning o'lchov birligini yoki bajarilgan ishning tannarxini hisoblash. |
| Kliring | Clearing | Клиринг | tozalash, ravshanlashtirish-o'zaro talab va majburiyatlarni hisobga olib, amalga oshiriladigan naqd pulsiz hisob-kitob tizimi. Mamlakat ichidagi k. banklar o'rtasidagi to'lovlarni, naqd pulsiz hisob-kitoblarni o'z ichiga oladi. Xalqaro hisob-kitoblarda k. kelishuvlar (kliring kelishuvlari, valyuta k.) ko'rinishida amalga oshiriladi. Davlatlararo o'zaro qarzlarini tilla va valyutaga o'tkazmasdan savdosotiq talablariga ko'ra amalga oshiradilar. Masalan, paxta tolasi o'miga uning qiymatiga teng miqdorda mashina, asbob-uskuna olish. |
| Konsorsium | Consortium | Консорциум | korxonalarining vaqtincha tashkil etilgan birlashmalari, ular odatda moliyaviy ishlar yuzasidan tashkil etiladi. unda davlat, banklar, moliyaviy muassasalar, yirik firmalar ishtirok etadi. |
| Konsern | Concern | Консерн | ishlab chiqarish diversifikatsiyasi asosida tarkib topadigan yirik, ko'p tarmoqli korporatsiya. Ular asta-sekin sanoat monopoliyasining yetakchi shakliga aylanadi. |
| Monopoliya | Monopoly | Монополия | yakkahokimlik 2) ishlab chiqarishni markazlashtirish oqibatida yuzaga keladigan katta birlashma (kartel, sindikat, trest, konsern, konsorsium konglomerat va shu kabilar). Ushbu birlashma o'z ichiga ishlab chiqarishni, xizmat ko'rsatishni, mahsulot sotishning ko'p qismini mujassamlashtiradi, |

| | | | |
|--------------------------------|---------------------------|-------------------------------|---|
| | | | shu sohada o'zini hukmron mavqeini o'matadi. |
| Monopoliyadan chiqarish | | Управление маркетингом | davlat tomonidan tarmoq bozorida raqobat munosabatlarini rivojlantirishga ko'maklashuvchi tartib-qoidalarini joriy etilishi. |
| Baho | cost of | Стоимость | baho - tovar qiymatining pulda aks etishi, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat xo'jalik mexanizmi-da amal qiluvchi iqtisodiy dastak. faqat tannarxga emas, balki talab va taklif, shuningdek, tovarning ijtimoiy foydaliligi, sifati va boshqa tovarlar o'mini bosa olishi, muomaladagi pulning xarid qobiliyatiga ham bog'liq. |
| Pul tizimi | Structure of money | Структура дене | tovar muomilasining rivojlani-shining natijasi bo'lib, davlatlar tomonidan qonunchilik asosida mamlakatda pul muomalasini tashkil etish. |
| Proteksionizm | Protectionism | Протекционизм | milliy iqtisodiyotni boshqa davlatlar bilan bo'ladigan raqobatdan bojxona to'siqlarini joriy qilish, mamlakatga chet el tovarlari, xizmat turlari va kapitallarini kirib kelishini cheklash yo'li bilan himoya qilish va saqlashga yo'naltirilgan. |
| Raqobat | Competition | Конкуренция | yuqori foyda olish maqsadida mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi kurash |
| Reklama | Advertising | Реклама | tovar yoki ko'rsatiladigan xizmat to'g'risidagi xolis axborot, ularni ko'proq sotish maqsadida xaridorlarga ularning xossalari, afzalliklari va sotib olish shartlarini yetkazish. r. maxsus firmalar orqali amalga oshiriladi va yuqori daromad manbai hisoblanadi. |

| | | | |
|--------------------------------|-----------------------------|---------------------------|--|
| Savdo agenti | Trading agent | Торговый агент | bir yoki bir qancha korxonalar tovarlarini shartnoma asosida sotadigan vakil |
| Tarif stavkasi | Tariff rate | Тарифная ставка | tegishli ish toifasiga ega bo'lgan ishchining mehnatiga to'lanadigan haq miqdorini belgilab beradi. |
| Tovar belgisi | Trademark | Товарный знак | muayyan firma tovarlariga qo'yiladigan belgi. tb (savdo markasi) faqat ma'lum firmaga tegishli bo'ladi va uni boshqa firmalar o'z tovarlariga qo'yaolmaydilar |
| Franchayza | franchisee | Франчайза | foydalanish uchun tayyor korxonada, firma yoki mashhur firma mahsulotining savdo markasidan foydalanilgan holda amalga oshiriluvchi biznes yuritish usuli. |
| Fyuchers operatsiyalari | Futures transactions | Фючерсные операции | birjalarda amalga oshiriladigan savdo-sotiq operatsiyalari, bu operatsiyalar shartnoma tuzilganidan so'ng ishlab chiqariladigan yoki yetishtirib beriladigan mahsulotlar bo'yicha amalga oshiriladi. Odatda, ushbu shartnoma tuzilgandan so'ng buyurtmachi bajaruvchiga avans tariqasida ma'lum summani o'tkazib beradi. |
| Embargo | Embargo | Эмбарг | chet el tovarlarini kiritish yoki chiqarish, olib chiqib ketishni davlat tomonidan ta'qiqlash yoki chet davlatga qarashli mulkni vaqtincha to'xtatib turish, ta'qiqlash. |
| Emissiya | Emission | Эмиссия | Muomalaga bank biletleri, pul va qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish, davlatning emissiya banklari tomonidan amalga oshiriladi. E. asosan, davlat budjetidagi kamomadni to'ldirish, izdan chiqqan pul muomalasini tiklash maqsadida o'tkaziladi. |

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

I.O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T.: «O‘zbekiston», 2011. - 406.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risida. №O‘RQ-341 2012-yil 20-dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Raqobat to‘g‘risida. №O‘RQ-319. 2012-yil 6-yanvar.

II.O‘zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.01.2019-yildagi PF-5630-sonli “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.01.2019-yildagi PF-5635-sonli 2017—2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish-yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” gi Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2017-yildagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2018-yil.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-mart PF-4707 — sonli “2015—2019-yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash chora-tadbirlarini ta‘minlash to‘g‘risida.”gi Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-may PF 4725-sonli “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta‘minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.01.2019-yildagi PQ-4126-sonli “Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori .

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev Qarori “xususiy lashtirilgan korxonalar bilan ishlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida 18.04.2017

12. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. //Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.// Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 21-sentabr.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2017-yildagi PQ-2751-sonli

“Respublikada bank plastik kartochkalari asosida naqd pulsiz hisob-kitob tizimini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.02.2017-yildagi 44-sonli “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan xorijiy valyutadagi tushumni majburiy sotish tartibiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” gi Qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.01.2017-yildagi PQ-2746-sonli “Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabr PQ-1438 sonli “2011 – 2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi Qarori.

III.Darsliklar

1. Sh.Shodmonov, M.Rahmatov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Zamin nashr, 2021. – 856 b.

2. Carl E. Walsh. Monetary Theory and Policy Third Edition. Printed and bound in the United States of America. HG230.3.W35 2016

3. Jagdish Handa. Monetary Economics, 2nd Edition. Second edition published 2009 by Routledge. Simultaneously published in the USA and Canada by Routledge.

4. B.Y. Xodiyev, Shodmonov Sh.Sh., Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2017. – 783 b. Toshkent “Barkamol fayz media”

5. Н.М.Розанова. Денежно-кредитная политика. Учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры. Москва.Юрайт-2017. -400-с.

6. Кропин, Ю.А. Деньги, кредит, банки: Учебник и практикум для академического бакалавриата / Ю.А. Кропин. - Люберцы: Юрайт, 2016. - 364 с.

7. Our Money – Towards a New Monetary System First edition. © 2015 Frans Doorman. All rights reserved. ISBN: 978-1-329-08349-3

8. В.Д.Камаев, М.З.Ильчиков, Т.А.Борисовская. Экономическая теория. Краткий курс: учебник. – М.:КНОРУС, 2012. – 384 стр.

9. Камаев В.Д., Ильчиков М.З. Экономическая теория. учеб. М.: КНОРУС, 2012. – 587с.

10. Нуреева, Р.М. Национальная экономика: учеб. М.: ИНФРА – М, 2010. – 655с.

IV. O‘quv qo‘llanmalar

1. Вахабов А.В., Разикова Г.Х. Модернизация экономики– Т.: Иктисод-Молия, 2014. с. 42.

2. Shodmonov Sh.Sh., Yaxshiyeva M.T., Yusupov R.A. Pul nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Cholpon, 2011. – 165 bet.

3. Rashidov O.Y., Tojiyev R.R., Do‘sqobilov. O‘quv qo‘llanma. Markaziy bankning monetar siyosati. Toshkent, TDIU, 2010-yil, 192 bet.

4. O.Y.Rashidov, R.R.Tojiyev, Do‘sqobilov. O‘quv qo‘llanma. Markaziy bankning monetar siyosati. Toshkent, TDIU, 2016-yil, 192 bet.

5. Shodmonov Sh.Sh., Yaxshiyeva M.T., Yusupov R.A. Pul nazariyasi. O'quv qo'llanma. –T.: Cholpon, 2011. – 165 bet.

6. Картаев Ф. С. Выбор режима монетарной политики и экономический рост. Монография — Экономический факультет МГУ имени М.В.Ломоносова Москва, 2017. — С. 235.

7. Варламова Т.П. Валютные операции. Учебное пособие. – М.: «Дашков и К», 2016. 272с.

V. Statistik ma'lumotlar to'plami

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil statistik axborotnomasi, T., 2020.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil statistik axborotnomasi, T., 2019.

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil statistik axborotnomasi, T., 2018.

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil statistik axborotnomasi, T., 2017.

VI. Internet saytlari

1. www.stat.uz
2. www.uz.uz
3. www.ceep.uz
4. www.internetindicators.com
5. www.uzreport.com
6. www.uzsecurities.com
7. www.uzexport.com
8. <http://gov.uz>

| | |
|---|-----------|
| KIRISH..... | 3 |
| 1-MAVZU. PUL ASOSLARI | 6 |
| 1.1. Pulning vujudga kelishi | 6 |
| 1.2. Pulning xususiyatlari..... | 13 |
| 1.3. Pulning vazifalari..... | 16 |
| 2-MAVZU. PUL TA'MINOTI JARAYONI | 21 |
| 2.1. Pul aylanmasining mohiyati..... | 21 |
| 2.2. Naqd pullarni qabul qilish tartibi | 25 |
| 2.3. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning shakllari | 27 |
| 3-MAVZU. PULGA TALAB | 31 |
| 3.1. Pulga talab nazariyasi, modeli va grafigi | 31 |
| 3.2. Fisher tenglamasi | 32 |
| 3.3. Pulga talabning Keyns nazariyasi, likvidlilikning afzalligi nazariyasi | 34 |
| 4-MAVZU. MARKAZIY BANKNING PUL MASSASIGA VA FOIZ STAVKASIGA TA'SIRI | 37 |
| 4.1. Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari... | 37 |
| 4.2. Markaziy bankning valyuta siyosati va uning ko'rinishlari..... | 40 |
| 5-MAVZU. PUL-KREDIT SIYOSATI..... | 46 |
| 5.1. Pul-kredit siyosatiga ta'sir etuvchi neokeynschilar nazariyasi..... | 46 |
| 5.2. Pul kredit va fiskal siyosatining o'zaro bog'liqligi..... | 50 |
| 5.3. Pul-kredit siyosati va yalpi talab orasidagi bog'lanish | 54 |
| 6-MAVZU. YALPI TALAB, NARX VA ISHLAB CHIQRISH..... | 60 |
| 6.1. Yalpi talab tushunchasi va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar | 60 |
| 6.2. Ishlab chiqarishning real hajmi | 65 |
| 6.3. Investitsion sarflar texnologiyasi | 71 |
| 7-MAVZU. PUL-KREDIT SIYOSATINI ISHLAB CHIQISH MASALALARI | 76 |
| 7.1. Pul-kredit siyosatining usullari..... | 76 |
| 7.2. Tijorat banklariga nisbatan o'rnatilgan majburiy zaxira siyosati..... | 77 |
| 7.3. Valyuta va depozit siyosati..... | 79 |

| | |
|---|-----|
| 8- MAVZU. PUL, KREDIT VA QARZ..... | 85 |
| 8.1. Pul-kredit multiplikatori..... | 85 |
| 8.2. Inflyatsiyani targetlash rejimlari tavsifi. | 88 |
| 8.3. Likvidlilik konsepsiyasi | 91 |
| 9-MAVZU. PUL-MOLIYA ORGANLARI VA MOLIYA BOZORI | 95 |
| 9.1. Naqd pul muomalasini boshqarishning makroiqtisodiy barqarorligi | 95 |
| 9.2. Valyuta tizimining mohiyati, tashkil etilish shakllari va roli. Milliy valyuta tizimi..... | 105 |
| 10-MAVZU. O‘ZBEKISTONNING PUL-KREDIT SIYOSATI | 111 |
| 10.1. O‘zbekiston Respublikasi kredit tizimi va uni takomillashtirish..... | 111 |
| 10.2. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatini boshqarish va nazorat qilish..... | 115 |
| 10.3. Iqtisodiy islohotlar sharoitida Markaziy bankning valyuta siyosatining asosiy yo‘nalishlari va ahamiyati..... | 122 |
| Glossariy | 127 |
| Foydalanilgan adabiyotlar | 133 |

M.T.YAXSHIYEVA

MONETAR NAZARIYA VA SIYOSAT

(O'quv qo'llanma)

**Toshkent – «Инновацион ривожланиш
нашриёт-матбаа уйи» – 2021**

| | |
|------------------------------|--------------|
| Muharrir: | N.Ibragimova |
| Tex. muharrir: | A.Moydinov |
| Musavvir: | A.Shushunov |
| Musahhih: | L. Ibragimov |
| Kompyuterda sahifalovchi: | M.Zoyirova |

**E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35
Nashr.lits. № 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.**

Bosishga ruxsat etildi 18.06.2021.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez Uz» garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 9,5. Nashriyot bosma tabog'i 8,75.

Tiraji 50. Buyurtma № 55 .